

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 811.512 133: 81.373: 008

MAMATALIYEVA RA‘NO RAHMATOVNANING

**O‘ZBEK TILIDA GIDRONIMLAR HOSIL BO‘LISHINING
LINGVOMADANIY ASOSLARI (Boysun tumani misolida)**

70230101- Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

 **f.f.dok., prof. Sh.T. Maxmaraimova**

Termiz - 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvardagi №2-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31- raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)


Ilmiy rahbar:


 **f.f.dok.prof.Sh.T. Maxmaraimova**

Kafedra mudir:

 **f.f.f.d. PhD N.R. Amonturdiyev**

Magistratura bo'limi boshlig'i:

 **p.f.f.d. PhD A.B. Narbayev**



70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Mamataliyeva Ra‘no Rahmatovnaning “O‘zbek tilida gidronimlar hosil bo‘lishining lingvomadaniy asoslari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTASIYASI

Tadqiqot obyektlari: Tadqiqotning obyekti sifatida tarixiy, geografikasarlar, ensiklopedik lug‘atlar, toponimik lug‘atlar, shuningdek, Boysun tumanining gidronimik xususiyatiga ega bo‘lgan joylari olingan.

Ishning maqsadi: Boysun tumani gidronimlarining nazariy asoslarini yoritish, gidronimlar ko‘lamiga mansub birliklarni belgilash va Boysun tumani gidronimlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Asosan, uslubiy va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- Boysun tuman gidronimlarining lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlari o‘rganildi, ular lisoniy jihatdan tasniflandi;
- Boysun tuman gidronimlarining indikatorlari aniqlandi, lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlari ko‘rsatildi hamda ilmiy jihatdan umumlashtirildi;
- Boysun tuman gidronimlari sirasida xarakterli bo‘lgan ayrim gidronimlar lingvomadaniy jihatdan tadqiq etildi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari hozirgi o‘zbek adabiy tili, toponimika, etimologiya va areal lingvistikaga oid izlanishlarni nazariy ma‘lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, etimologiya va areal lingvistikada gidronimlarni tahlil qilish jarayonida foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar gidronimlarning lingvistik tahlilini o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Tatbiq etish darajasi: Tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, etimologiya, areal lingvistikada gidronimlarni tahlil etish jarayonida foydalanish mumkin.

Qo‘llanish sohasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, Tilshunoslikning onomastika, areal lingvistika kabi sohalari.

ANNOTATION

“Linguistic-cultural foundations of the formation of hydronyms in the Uzbek language” master’s dissertation on the topic

Objects of research: historical, geographical, encyclopedic dictionaries, toponymic dictionaries, as well as places of Boysun district with hydronymic characteristics were taken as the object of research.

The purpose of the work is: to clarify the theoretical basis of the hydronyms of the Boysun district, to determine the units belonging to the scale of hydronyms and to study the hydronyms of the Boysun district.

Research methods: Mainly, methodological and comparative analysis and classification methods were widely used.

The results obtained and their novelty:

- The lexical and spiritual characteristics of Boysun district hydronyms were studied, they were linguistically classified;
- Indicators of Boysun district hydronyms were determined, lexical-spiritual features were shown and scientifically summarized;
- Among the hydronyms of Boysun district, some hydronyms that are characteristic were studied from a linguistic and cultural point of view.

Practical significance: The results of the research will enrich the research on the current Uzbek literary language, toponymy, etymology and areal linguistics with theoretical information. The practical importance of the research is that the results of the research can be used in the process of analyzing hydronyms in linguistics, etymology and areal linguistics. Collected evidence, performed analysis serve as important material for studying the linguistic analysis of hydronyms.

Application level: The research results can be used in the process of analyzing hydronyms in linguistics, etymology, areal linguistics.

Field of application: Higher educational institutions and general secondary schools of the Republic of Uzbekistan, such fields of linguistics as onomastics, areal linguistics.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ONOMASTIK SATHDA GIDRONIMLARNING O'RNI.....	7
1.1. Jahon va o'zbek tilshunosligida gidronimlarning lingvistik tadqiqi.....	7
1.2. Turkiy tillarda gidronimika sohasining shakllanishi.....	20
1.3. O'zbek gidronimiyasiga doir tadqiqotlar.....	23
1.4. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy manbalarda ifodalanishi.....	29
I bobga doir xulosalar.....	32
II BOB BOYSUN TUMANI GIDRONIMLARINING INDIKATORLARI, LEKSIK-SEMANTIK, GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	33
2.1. Boysun tumani gidronimiyasida qo'llanadigan gidronimik indikatorlar.....	33
2.2. Boysun tuman gidronimlarining leksik-semantik tahlili.....	39
2.3. Obyektning tabiiy- geografik belgilari asosida paydo bo'lgan gidronimlar...	49
2.4. Boysun tumani gidronimlarining yasalishi.....	53
2.5. Boysun tuman gidronimlari hosil bo'lishida o'z va o'zlashma qatlam.....	57
II bobga doir xulosalar	59
III BOB. BOYSUN TUMAN GIDRONIMLARI HOSIL BO'LISHIDA LINGVOMADANIY ASOS.....	61
3.1. Xalq madaniy hayoti bilan bog'liq bo'lgan gidronimlar.....	61
3.2. Folklor janrlarida gidronimlarning aks etishi.....	66
3.3. Boysun tuman gidronimlarining lingvomadaniy kodlarda aks etishi.....	71
III bobga doir xulosalar.....	74
XULOSA.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	78
ILOVA.....	82

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahon tilshunosligida onomastikaning bir bo'lagi bo'lgan gidronimlar xalqlar tarixi va til tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy til, xalqning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniy-ma'naviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi lisoniy manba hisoblanadi. Joy nomlari kabi gidronimlar ham ajdodlarimizdan hozirga qadar yetib kelgan ulkan madaniy-ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning bebaho numunasidir.

Dunyo tilshunosligida gidronimlar til va dialektlarning rivojlanish va shakllanish tarixiga tegishli bir qancha masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularda ma'lum bir hududda yashayotgan u yoki bu xalqning g'oyaviy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, etnik tarkibi va kelib chiqishi, migratsiya va integratsiya hamda boshqa hodisalarga tegishli voqelik aks etadi.

Jahon tillari, xususan, O'zbekiston toponimik tizimida ham gidronimlar ma'lum bir tarixiy davr mahsuli bo'lmay, ular bir necha o'n asrlar mobaynida shakllangan.

Toponimik tizimda o'zining tabiiyligi, qadimiyligi va turg'unligi bilan xarakterlanuvchi gidronimlar ayrim ilmiy ishlarni, toponimiyaga doir tadqiqotlarga oid izlanishlarni nazarga olmaganda o'zbek toponimikasida keng miqyosda o'rganilmagan. Surxondaryo viloyati gidronimlari ham hozirga qadar to'planmagan va monografik aspektda tadqiq etilmagan. Shunday ekan bu sohaning ilmiy-nazariy masalalari, gidronimlarning toponimik tizimdagi o'rnini, lisoniy tabiati, nomlanish tamoyillari, lug'aviy-ma'naviy, lahjaviy, morfologik, yasallish xususiyatlari ham o'rganilmagan.

Gidronimlarni to'plash va ularni lisoniy jihatdan tadqiq etish, ular mansub bo'lgan hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi va aholisining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialektini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Keltirilgan dalillar va xususiyatlar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PK – 2909-son qarori, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshiish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF – 5850-sonli Farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi PF – 6084-son Farmoniga muvofiq tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” kabi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti sifatida tarixiy, geografik asarlar, ensiklopedik lug‘atlar, toponimik lug‘atlar, shuningdek, Boysun tumanining gidronimik xususiyatga ega bo‘lgan joylari olingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Boysun tumani gidronimlarining nazariy asoslarini yoritish, gidronimlar ko‘lamiga mansub birliklarni belgilash va Boysun tumani gidronimlari hosil bo‘lishidagi lingvomadaniy asoslarni tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

- gidronimik materiallarning tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tadqiq qilinish darajasini aniqlash va shu asosda o‘zbektoponimikasining bu sohaga oid muammolarini belgilash;
- gidronimik terminlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash; ularning adabiy va lahjaviy variantlariga xos lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlarini ko‘rsatish hamda ilmiy jihatdan umumlashtirish;
- gidronimlarning lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlarini o‘rganish, ularni lisoniy jihatdan tasniflash;
- o‘zbek tili gidronimlarini xronologik jihatdan tahlil qilish va shu asosda ularda sodir bo‘lgan lisoniy o‘zgarishlarga xos qonuniyatlarni aniqlash;

- gidronimlar sirasidagi ayrim xarakterli bo'lgan nomlarni etimologik tahlil qilish;

- o'zbek tili gidronimlarining morfemik tarkibini aniqlash va shu asosda ularning yasalish va tuzilish xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, Boysun tumanining gidronimik xususiyatga ega bo'lgan joy nomlari to'plandi va lug'aviy-ma'naviy xususiyatlari o'rganildi; lisoniy jihatdan tasniflandi; ushbu hudud gidronimlarining hosil bo'lishida lingvomadaniy jihatlar tadqiq etildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mazkur tadqiqot ishida Boysun tuman gidronimlarining leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari tadqiq etildi, gidronimlar hosil bo'lishida lingvomadaniy jihatlar tadqiq etildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: O'zbek tilshunosligida gidronimlar masalasi borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ulardan E. Begmatov, N. Uluqovning "O'zbek onomastikasi", N. Uluqovning "O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi", E. Begmatov, N. Uluqovning "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati", E. A. Begmatovning "Joy nomlari ma'naviyat ko'zgusi", S. Bo'riyev va S. Karimovlarning "O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida", T. Enazarovning "Nomshunoslik masalalari", S. Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi", "Toponimika", Z. Do'simov, M. Tillayevlarning "Toponimika asoslari", X. Xolmo'minov "Boysun rayon mikrotoponimlarining leksik-semantik xususiyatlari" kabi ilmiy adabiyotlarda gidronimlar haqida o'zbek tilshunoslarining ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan. Mazkur adabiyotlar ilmiy tadqiqot ishimizga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Asosan, uslubiy va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi o'zbek adabiy tili, toponimika, etimologiya va areal lingvistikiga oid izlanishlarni nazariy ma'lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, etimologiya va areal lingvistikada gidronimlarni tahlil qilish jarayonida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasi tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, o'n ikki fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB.ONOMASTIK SATHDA GIDRONIMLARNING O'RNI

1.1. Jahon va o'zbek tilshunosligida gidronimlarning lingvistik tadqiqi

XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligida bir qancha ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng tivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O'zbek nomshunosligi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar o'zbek onomastikasi bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi¹.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi.

O'zbek onomastikasi o'tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuzaga keldi. O'zbek nomshunosligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o'zbek ismlari materiallari atroflicha to'plandi, to'rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov – 1965, G'.Sattorov – 1990, S.Rahimov – 1998, R.Xudoyberganov – 2007 himoya qilindi, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (1990), “O'zbek ismlari imlosi”(1972), “O'zbek ismlari” (1991), “O'zbek ismlari ma'nosi”(1998; 2004; 2010), “Ismlar chiroyi” (1994) nomli kitoblari nashr qilindi.

Bu davrda o'zbek toponimikasi bo'yicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli bo'ldi. O'zbek toponimikasiga oid 20 dan ortiq nomzodlik, uchta

¹ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлаб олинган). – Наманган. 2008. 168 -бет.

doktorlik (Z.Do'simov, S.Qorayev, T.Enazarov) ishlari himoya qilinishi bu davrda olib borilgan ishlarning samarasi hisoblanadi. O'zbek toponimikasi bo'yicha olib borilgan ishlar Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo. Xo'jamberdiyev, X.Xolmo'minov), Samarqand viloyati (T. Rahmatov, N. Begaliyev, A. Turobov, S. Bo'riyev), Sirdaryo viloyati (N. Mingboyev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazanova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslanov), Navoiy viloyati (O'. Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg'ona viloyati (N.Oxunov, S. Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Do'simov, A. Otajonova, M.Tillayeva), Shimoliy o'zbek shevalari toponimiyasi bo'yicha yozilgan edi.

O'zbek toponimikasi muammolari H.Hasanov, S.Qorayev, E. Begmatov, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida umumiy tarzda ham tahlil qilingan.

O'zbek tarixiy toponimikasi va antroponimikasi bo'yicha mamlakatimizda ayrim ishlar qilingan. Masalan, akademik B.Ahmedov, akademik A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga bag'ishlangan kuzatishlari², Sh. Kamoliddinning O'rta Osiyodag iqadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor³. N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubova va B.Vafoyevlarning Alisher Navoiy onomastikasiga, M. Turdibekovning Abulg'ozii Bahodirxonning "Shajarai turk" asari onomastikasiga, I. Xudoynazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.⁴

O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A.Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Husanov, S.Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev,

²Муҳаммаджонов А. "Турон" геоними ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №2. 12-16-бетлар; Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 4. 37-42-бетлар; Муҳаммаджонов А. Марғилон-Маргинон номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. 39-42-бетлар; Муҳаммаджонов А. Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №6. 7-12-бетлар; Муҳаммаджонов А. "Кува" ёки "Кубо" топоними ва "Кубод" атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. № 3. 41-46-бетлар ва бошқалар.

³ Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарк, 2006, 192 с.

⁴ Бундай асарлар рўйхати ҳақида қаранг: Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографикўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 бет.

E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov, B.O'rinboyev, T.Nafasov, V.Nafasova, O.Holiqov) hamda ko'p sonli ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi⁵. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Husanov, T.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O'rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir.

O'zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o'rni kattadir. Masalan, 1974-yilda Buxoro shahrida "O'rta Osiyo onomastikasining dolzarb muammolari" mavzusida butunittifoq ilmiy anjumani o'tkazilgan edi. Bu anjumanda juda ko'plab taniqli olimlar qatori Samarqand shahridan L.I.Royzenzon, H.Berdiyurov, R.Qo'ng'urovlar ishtirok etgan edilar. H.Berdiyurov, B.Yo'ldoshev bilan hamkorlikda bu anjumanda "O'zbek tilida frazeologizmlar tarkibida atoqli otlarning qo'llanilishi", R.Qo'ng'urov esa "Mushtum" satirik jurnalida okkazional ma'noli atoqli otlar" mavzuida ma'ruzalar qilgan edilar. Xuddi shu yillari SamDUda "Onomastika masalalari" nomi bilan bir necha ilmiy to'plam nashr etilgan⁶, busohada ilmiy tadqiqotlar ko'lami ancha kengaygan edi. Masalan, shu yillari SamDU olimlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazannikning "Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar" nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgan edi⁷. Bu olimning shogirdi Yu.Po'latov esa shu sohada tadqiqotlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi⁸. Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish

⁵Бундай ишлар рўйхати куйидаги ишда келтирилган: Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 8-164-бетлар.

⁶ Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск I. – Самарканд: издание СамГУ, 1971, 150 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарканд: издание СамГУ, 1975, 95 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск III. – Самарканд: издание СамГУ, 1976, 170 с.

⁷ Магазаник Э.Б. Ономапозтика или "говорящие имена" в литературе. – Ташкент: Фаъ, 1978, 148 с.

⁸ Пулятов Ю. Бадий таржимада кishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish. – Ташкент: Фаъ, 1967, 63 бет.

ishlari olib bordi⁹. XX asrning 80-90-yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaharlarida “O‘zbekiston onomastikasi” deb nomlangan butunittifoq va respublika ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazilgan, ularning materiallari alohida to‘plamlar sifatida nashr etilgan edi¹⁰.

Ma’lumki, bizni o‘rab olgan borliq, moddiy olam nihoyatda murakkab, boy, serqirra, rang-barang bo‘lib, uni tashkil qilgan narsa va hodisalar mohiyati, holati, shakli, ko‘rinishi va vazifasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Biz bu tushunchalarni “*turdosh ot*” termini bilan yuritimiz va ot turkumi kategoriyasigakiritimiz. Odamlar o‘zlari yashayotgan hududdagi daryolar, ko‘llar, buloqlarni va ularni tashkil etuvchi birliklarni bir-biridan farqlash uchun turli nomlar bilan atashgan. Masalan: *Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Nil, Oyko‘l, Baykal ko‘li, Toshbuloq, Qo‘turbuloq, Marjonbuloq, Zirabuloq* kabilar. Bunda ko‘rinadiki, atoqli otlar narsa va hodisalarni, obyektlarni yakkalab, donalab atash zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Bunday zaruriyat bo‘lmaganda esa kishilar muloqot jarayonida ularga berilgan umumiy nomdan foydalanish bilan kifoyalanishadi. Masalan: *Mamlakatimizda daryolar ko‘p. Bizning viloyatimizda ko‘llar, buloqlar mavjud.* Shuni unutmashlik zarurki, insoniyat tafakkurining gultoji uning umumlashtirish qobiliyatidir. Agar shunday umumlashtirish qobiliyati bo‘lmaganda, har qanday til million, milliardlab so‘zlardan, grammatik vositalardan iborat murakkab va tushunarsiz hodisaga aylanardi. Demak, narsa va hodisalarga yakkalab, donalab atoqli ot bilan nomlash o‘ziga xos zaruriy ehtiyoj va qonuniyat natijasi sanaladi.

Ma’lum bir tildagi atoqli otlarning barcha mavjud tiplari va hajmini aniqlab olish, o‘sha tildagi atoqli otlar doirasini, ular tarqalgan onomastik sath yoki onomastik maydon tushunchasini bilib olishimiz uchun ko‘maklashadi.

⁹ Мирзаев И. Бадий таржимада киши исмлари ва географик номларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. № 5. 70-73-бетлар.

¹⁰ Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джиззак, 1985, 55 с.; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Гулистан, 27-28 мая 1987 г.). – Ташкент, 1987, 92 бет; Ономастика Узбекистана. Материалы конференции (Карши, 14-16 сентября 1989 г.). – Ташкент, 1989, 208 бет; “Жой номлари – халқ тили ва маънавиятининг нодир мероси” мавзундаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 1998, 106 бет ва бошқалар.

Bu muammo onomastikaga oid tadqiqotlarda “onomastik ko‘lam” nomi bilan yuritiladi. Dastlab onomastikaga oid ilmiy adabiyotlarda bu termin “toponimik ko‘lam” sifatida V.N.Toporov tomonidan qo‘llangan edi. Keyinchalik A.V.Superanskaya o‘z ishlarida “onomastik ko‘lam”, “toponimik ko‘lam” terminlaridan keng foydalandi. A.V.Superanskaya o‘z ishida “onomastik ko‘lam” atamasining onomastika ilmi uchun juda qulayligini “toponimik ko‘lam” misolida quyidagicha izohlaydi: “Bu termin nomlar va nomlangan obyektlarning ma‘lum makonda joylashishi, ya‘ni ularning bir-biridan alohida holda mavjud bo‘lishi va bu ularning yer yuzi, shuningdek, undan tashqarida ekanligini ko‘zda tutishi jihatidan ham qulaydir”¹¹. Bundan ko‘rinadiki onomastik sath yoki ko‘lam deyilganda biror konkret tildagi atoqli otlarning umumiy majmui, yig‘indisi tushuniladi. A.V.Superanskayaning fikriga ko‘ra, “onomastik ko‘lam bu muayyan bir xalq tilida real mavjud hamda taxminiy va xayoliy obyektlarni nomlash uchun qo‘llanadigan atoqli otlar yig‘indisidir”¹². Agar biz ana shu ta‘rifdan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, o‘zbek tilining onomastik ko‘lamini shu tildagi barcha atoqli ot tiplari, ko‘rinishlarining majmui tashkil qiladi¹³. Bunga barcha atoqli otlar majmuyini kiritish mumkin. “Onomastik ko‘lam” tushunchasi tor va keng ma‘nolarga ega. Negaki, har bir tilning onomastik ko‘lamini tashkil qiluvchi kichik ko‘lamlar va ko‘lamchalar mavjud. Shu sababli olimlar tilning umumiy onomastik ko‘lamini eng katta ko‘lam deb nomlamoqdalar¹⁴. Onomastik tizimni tashkil etuvchi birliklar va ularni ifodalovchi jarayonlar ko‘p qirrali va murakkabdir.

Har qanday tilning onomastik tizimi, jumladan o‘zbek tilining ham onomastik tizimi g‘oyat ko‘p qirrali hamda hajman ulkan va nominativ-funksional xususiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi, shuningdek, bir-biri bilan muayyan bog‘liqlik xususiyatiga egadir. Tilning leksik boyligini konkret lug‘aviy birliklar tashkil etganidek, tilning onomastik fondini onomastik leksika tarkibiga kiruvchib konkret atoqli otlar tashkil etadi. Onomastik birliklar aslida konkret atoqli otlardir.

¹¹ Йўлдошев.Б Узбек ономастикаси масалалари. -Самарканд, 2011, 83-бет.

¹² Теория и методика ономастических исследований. – Москва: Наука, 1986, 9-с.

¹³ Бегматов Э., Авлокулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. 20-бет

¹⁴ Бегматов Э., Авлокулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. 20-бет.

Ozarbayjon olimi A.Gurbanov ozarbayjon tilining onomastik birliklar (“vohidlar”)i qatoriga antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, ktematonimlarni kiritgan edi. Hatto A.Gurbanov onomastik birliklar tilning mustaqil birligi bo’lgani uchun, ularni o’rganuvchi onomokologiya (yoki onomastika) ham xuddi leksikologiya, semasiologiya kabi tilshunoslikning mustaqil sohasi deb hisoblagan edi. Onomastik birlikda quyidagi uchta xususiyat namoyon bo’ladi: a) “onomastik birlik” termini biror yakka atoqli otni ifodalab keladi: *Muhabbat* (ism), *Go’zal* (ism), *Dang’ara* (toponim), *Beshkent* (toponim), *Mushtariy* (yulduz nomi), “*Mushtum*” (jurnal nomi, ideonim) kabilar; b) onomastik birlik nominativ-funksional xususiyatiga ko’ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar, urbonimlar kabi; v) onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi.

Umuman, onomastik birliklarni belgilash, tadqiq qilish darajasi milliy tillar tilshunosligida har xil saviyadadir. Shuni aniq namoyon qilish maqsadida E.Begmatov, Ya.Avloqulov o’z onomastik ko’lam haqidagi ikkinchi maqolalarida 47 ta onomastik birlik nomining 27 muallif va ilmiy to’plamda qanday qayd qilinganligini ko’rsatish maqsadida ikkita jadval keltirganlar¹⁵. Mana shu jadvalda ko’rsatilgan 22 ta onomastik makroko’lam materiallari o’zbek tili misolida ma’lum darajada o’rganilgan¹⁶.

Ma’lumki, onomastik birliklar orasida eng ko’p o’rganilgani toponimlardir. Toponimlar asosan apellyativlar asosida hosil bo’ladi. *Apellyativ* lotincha *appellativum* – *turdosh ot* so’zidan olingan bo’lib, atoqli otga qarama-qarshi qo’yiluvchi, atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo’luvchi turdosh ot va boshqa til leksemalaridir¹⁷.

Toponimlarda xalqning o’tmishi, urf-odatlarini, boshidan kechirgan turli xil siyosiy-ijtimoiy, etnomadaniy jarayonlar o’z aksini topgan bo’ladi. Shunga binoan

¹⁵ Begmatov Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макроқўлами таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 5. 35-36-бетлар.

¹⁶ Begmatov Э., Авлоқулов Я. Ўзбек ономастикасининг микроқўлами // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. № 1. 55-60-бетлар.

¹⁷ Begmatov Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006, 16-бет.

toponimiya muayyan til lug'at boyligining muhim tarkibiy qismi, o'tmish voqealari darakchisi sanaladi.

O'zbek toponimikasini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan. O'tgan davr mobaynida o'zbek toponimikasini o'rganish bo'yicha juda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar orasida taniqli geograf olim H.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi. Bu asarda geografik nomlar – toponimlarning tarixi, ularning xilma xilligi va shakllanish qonuniyatlari qisqacha bayon etilgan hamda toponimika to'g'risida qisqacha tushuncha berilgan. Asarda ta'kidlanishicha, "joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, qabila va tillarning tarqalishi, eski qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning hosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlarning bor-yo'qligi, joyning o'simlik, hayvonot va iqlimiy xususiyatlari, hunar-kasb, tarixiy voqealar, afsona-rivoyatlar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olamizki, bular hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir"¹⁸. Asarning oxirida qisqacha toponimik lug'at (45-58-b.) va tarixiy-geografik nomlar izohlari (58-80-b.) berilishi uning ilmiy-amaliyligidir.

T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, T.Rahmatov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov, S.Nayimov kabi olimlarning sa'yi-harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to'plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar o'rganildi.

O'zbek toponimiyasiga oid dastlabki lisoniy monografik ish T.Nafasov tomonidan bajarilgan va ilmiy tadqiq qilingan, izlanishlar olib borilgan edi¹⁹. Mazkur tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyati hududidagi joy nomlari, toponimlarning nomlanish asoslari, etimologiyasi, ularning struktural-grammatik tuzilishi va yasalishi masalalari keng va atroflicha tadqiq etilgan edi. Olim keyinchalik faqat Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganish bilan kifoyalanib

¹⁸ Hasanov X. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. - Toshkent: Fan, 1965, 37-bet.

¹⁹ Nafasov T. Топонимы Кашкардарианской области. Автореф. дис... канд. филол. наук. - Ташкент. 1968, 24 с.

qolmay, janubiy O'zbekiston toponimlarining etnolingvistik tahlilini amalga oshirdi²⁰, O'zbekiston toponimlarining izohli lug'atini nashr ettirdi²¹. Mustaqillik yillarida prof. T. Nafasov toponimika sohasida yana ham shijoat bilan mehnat qildi, olimning "O'zbek nomnomasi" (1993), "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" (2007), "Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari" (2008) "Qashqadaryo qishloqnomasi" (2009), "Chiroqchinoma" (2010) kabi bir qancha yirik tadqiqotlari xuddi shu yillarda nashr etildi. 2008 yilda prof. T. Nafasov tavalludining 70 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi, ana shu sana munosabati bilan o'tkazilgan ilmiy anjumanda olimning nomshunoslik sohasidagi izlanishlariga munosib baho berilgan, uning asarlari bibliografiyasi e'lon qilingan edi²².

O'zbekiston hududidagi toponimlarning tarixiy-ilmiy tahlilida taniqli geograf olim S.Qorayevning izlanishlari ham alohida o'rin tutadi²³. Bu ishlarda O'zbekiston hududidagi tarixiy va zamonaviy toponimlar qiyosiy-tarixiy yo'nalishda chuqur tahlil qilingan. Olimning doktorlik dissertatsiyasi esa O'zbekiston oykonimlari tahliliga bag'ishlangan edi²⁴. S.Qorayev toponimik lug'atlar tuzish, nomshunoslikka doir ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar yaratish sohasida ham ibratli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Uning bu sohadagi serqirra faoliyatiga doir ma'lumotlar quyidagi ishning bibliografiya qismida mavjud²⁵.

Xorazm vohasi toponimlarining ilmiy-lingvistik tahlilida prof. Z.Do'simovning xizmati kattadir. Olimning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari²⁶, monografiyasi²⁷, xuddi shu mavzuga bag'ishlangan edi. Keyinchalik A. Otajonova Xorazm etnotoponimlarining lug'aviy asoslari,

²⁰ Nafasov T. Топонимы Кашкардарьинской области. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968, 24 с.

²¹ Nafasov T. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988, 290 бет.

²² Қаранг: Номшунос олим (проф.Т.Нэфасовнинг илмий педагогик фаолияти хақида). Қарши: ҚаршиДУнашри, 2008, 256 бет.

²³ Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана. – Ташкент, 1969, 25 с; Караев С.К. Топонимия Узбекистана (социоллингвистический аспект). – Ташкент, Фан, 1991, 132 с.

²⁴ Караев С.К. Ойконимия Узбекистана (историко-географическое исследование формирования названий населенных пунктов республики). Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. – Ташкент, 1998, 50 с.

²⁵ Қараев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005, 223-238-бетлар.

²⁶ Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма. – Ташкент, 1970, 24 с; Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. – Ташкент, 1986, 48 с.

²⁷ Дусимов З. Хоразм топонимлари. – Ташкент: Фан, 1998, 136 бет.

M.Tillayeva esa Xorazm onomastikasining “Avesto” bilan qiyosi mavzulariga oid qiziqarli ishlarni amalga oshirdilar²⁸.

O‘.Rajabov esa Xorazm viloyati hududida to‘plagan onomastik materiallari asosida toponimik aniqlagich (indikator)larning funksional-semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan nomzodlik ishini himoya qildi²⁹.

Shuningdek, Yo. Xo‘jamberdiyev Surxondaryo viloyati, S.Nayimov esa Buxoro viloyati toponimlarini o‘rganish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirdilar³⁰. N.Oxunovning nomzodlik ishi esa Qo‘qon gruppа tumanlarining toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi³¹.

O‘zbek toponimikasida bajarilgan ayrim tadqiqotlar alohida tuman yoki shahar mikrotoponimlari tadqiqiga bag‘ishlanganligi e‘tiborga molikdir. Chunki toponimik obyekt doirasi qanchalik tor doirada belgilansa, olingan natijalar, ilmiy xulosalar shunchalik asosli bo‘ladi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda T.Rahmatov, J.Latipov, X.Xolmo‘minov, O‘.Oripov, A.Aslonov, S.Bo‘riyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari e‘tiborga molik³². A.Turobov esa Samarqand viloyati materiallari misolida etnonim va etnooykonimlarning lisoniy tahlili bilan jiddiy shug‘ullandi³³. O.Begimov toponimlardagi o‘zlashma qatlamni lisoniy tadqiq etishga oid nomzodlik ishini himoya qildi³⁴. X.Bo‘riyeva esa Toshkent shahrining XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy toponimiyasi muammolarini tadqiq etdi³⁵.

²⁸ Отажонов А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. – Тошкент, 1997, 26 бет; Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қисқаш асосида). – Тошкент, 2006, 26 бет.

²⁹ Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2009, 22 бет.

³⁰ Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимии Сурхандарьинской области. – Ташкент, 1973, 25 с; Найимов С. Ойконимы Бухарской области. – Ташкент, 1984, 24 с.

³¹ Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. – Ташкент, 1978, 23 с.

³² Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. – Москва, 1973, 28 с; Латипов

Дж. Топонимия города Маргелана и его окрестностей. – Ташкент, 1975, 26 с; Холмунинов Х.

Микротопонимия Байсунского района и его окрестностей. – Ташкент, 1993, 24 с; Оripov Ў. Нурота тумани

макро-вамикротопонимларининг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2003, 22 бет; Аслонов А.С. Шофиркон

тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 2005, 21 бет; Бўриев С.Н. Ургут

тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент, 2010, 23 бет.

³³ Турабов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили. – Тошкент, 1999, 22 бет.

³⁴ Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма қатлами. – Тошкент, 1999, 27 бет.

³⁵ Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бoshлари). –

Тошкент, 2007, 25 бет.

O'zbekistonda toponimik tadqiqotlar ko'lamining kengayishida serg'ayrat olim T. Enazarovning ham alohida ulushi bor. Olimning nomzodlik ishi Shahrisabz hududi joy nomlarining tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, doktorlik dissertasiyasi toponimlarning lug'aviy asoslari va etimologik tadqiq muammolarini o'z ichiga qamrab olgan edi³⁶. Mamlakatimizda toponimikaga doir monografik tadqiqotlar, risolalar, o'quv qo'llanmalari yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda S.Qorayevning "Toponimika – joy nomlari haqidagi fan" (1980), "Toshkent toponimlari" (1991), "Toponimika" (2006), M.Mamedovning "Xalq nomlari joynomlarida" (1981), L. Karimovaning "O'zbek tilida toponimlarning o'rganilishi" (1982), E.Begmatovning "Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi" (1998), T.Enazarovning "O'zbekiston toponimikasi" nomli maxsus kursni o'qitish metodikasi" (1999), "Toponimlar etimologik tadqiqining ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari" (2001), Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi" (2002), "O'zbekistondagi ba'zi toponimlarning etimologik talqini" (2004), "Nomshunoslik masalalari" (2010), N.Oxunovning "Joylar va nomlar" (1986), "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" (1989), A.Otajonovning "Xorazm etnotoponimlari" (1997), Z.Do'simov va M.Tillayevalarning "Joy nomlarining siri" (2001), "Toponimika asoslari" (2002), A.Turobovning "Samarqand etnonim va etnooykonimlari" (2004), T.Qurbonov va M.Xudoyberdiyevalarning "Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari" (2006), S.Karimov, S.Bo'riyevlarning "O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida" (2006) B.Qilichevning "Buxoro viloyati toponimlari" (2008), N.Begaliyevning "Samarqand toponimiyasi" (2010) kabi bir qator ishlarni alohida ta'kidlash lozim.

Umuman olganda, O'zbekistonda onomastik birliklar orasida eng ko'p o'rganilgani joy nomlari – toponimlar bo'lib, kelgusida bunday tadqiqotlar yanada kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi lozim. Shu asosda O'zbekiston toponimlarining xaritasi, mukammal ko'p tomlik izohli lug'atlar yaratilishi kerak. Bu sohada ham ishlar amalga oshirilgan. Toponim lug'atlarda joy nomlari,

³⁶Эназаров Т.Ж. Шахрисабз худуди жой номларининг тарихий-қийёсий тадқиқи. – Тошкент, 1993, 21 бет; Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. – Тошкент, 2006.56-бет

geografik nomlar, qisman suv inshootlari nomlari (gidronimlar) izohlanadi, ularning adabiy-orfografik jihatdan me'yoriy ko'rishlari qayd qilinadi. O'zbek lug'atshunosligida toponimik lug'atlarning juda ko'p turlari yaratilgan³⁷.

Shuningdek, joy nomlari qadimiy va uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida ma'lumot beruvchilisoniy darakchilardir. Shu bois toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya kabi o'nlab fanlar o'z predmeti nuqtai nazaridan o'rganadi. Toponimika shu bois tilshunoslikni yuqoridagi fanlar bilan tutashtiruvchi, bog'lovchi rishta, o'z navbatida, ular uchun muhim dalillar, ma'lumotlar beruvchi nazariy va amaliy soha hamdir³⁸.

Ma'lumki, toponimlar doirasiga suv obyekti va inshootlarini nomlovchi birliklar – gidronimlar ham kiradi. Gidronim so'zi (yunoncha *hudor* – suv, *onoma* – atoqli ot) suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) suv obyektlarining atoqli oti, toponim turi ma'nolarini bildiradi. Respublikamiz hududida *daryo, soy, ariq, kanal, jilg'a, irmoq, buloq, sharshara, sardoba* kabi suv obyektlari juda keng tarqalgan. Jumladan, Farg'onavodiysida 6500 ga yaqin daryo, soy, jilg'alar, Zarafshon daryosining o'rta oqimida 120 ga yaqin soylar, Qashqadaryoda 3120, Surxondaryoda esa 2200 dan ortiq daryo, soy, jilg'alar borligi aniqlangan³⁹. Shu bilan birga hozirgi vaqtda O'zbekistonda 53 suv ombori, 41 GES, 1456 nasosstansiyasi, 140 ming km.ga yaqin zovurlar, 30 ming km.dan ko'proq ichki tarmoq kanallari qurilgan, ular 4,3mln. gektar yer maydonini sug'orish uchun xizmat qiladi⁴⁰. Bu suv obyektlarining barchasi o'z atoqli oti – gidronimiga ega.

Gidronimika toponimikaning bir bo'limi sifatida o'zining o'rganish obyekti va predmetiga ega. Gidronimika tilshunoslikning nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi.

³⁷ Do'simov Z., Egamov H. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977, 174-bet.
Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978, 203-bet.

³⁸ Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent. Fan. 2008. 5-bet.

³⁹ Саидов А. Тоғ сойлари – суғориш манбаи. – Тошкент: Фан, 1974, 14-бет.

⁴⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўн икки жилдлик. 2-жилд. – Тошкент, 2001, 698-бет.

Suv obyektlarining nomlari gidronimlar, ularning majmuyi gidronimlar deb yuritiladi⁴¹. Toponimikaga oid ilmiy manbalarda gidronimlar turlicha talqin qilinadi. S.Qorayev toponimiya doirasiga daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, jilg‘alar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalarning atoqli nomlarini kiritgan⁴².

N.Oxunov esa gidronimlarni “Suv obyektlarining, ya’ni dengiz, daryo, ko‘l, soy, ariq, buloq, quduq singarilarning atoqli otlaridir” deb izohlaydi⁴³. Ba’zi manbalarda gidronimlar to‘liq izohlanmagan va “Daryo, suv havzalari kabilarning nomi”⁴⁴ deb izoh berib o‘tilgan. Gidronimlar terminini N.Begaliev “Gidronimlar o‘zida suv mavjudligi bilan yaqin bo‘lgan, ya’ni akvatoriyaga tegishli obyektlar, okean, dengiz, qo‘ltiq, bo‘g‘oz, ko‘l, botqoq, daryo, irmoq, ariq, sharshara, quduq va boshqalarning nomlari”⁴⁵ deya ta’riflaydi va fikrimizcha bu izoh yuqoridagilarga nisbatan mukammalroq hisoblanadi.

Gidronimlar tadqiqi bilan shug‘ullangan tilshunos olim N.Uluqov gidronimlar tushunchasi tilshunoslik fani nuqtai nazaridan keng qamrovga ega ekanini ta’kidlaydi va o‘zbek tilining toponimik sathida alohida semantik guruhni – gidronimlarni, ya’ni gidronimiyani tashkil etadigan quyidagi suv obyekti va suv inshooti nomlarini keltirib o‘tadi: ariq nomlari; band, to‘g‘on, damba nomlari; botqoq nomlar; buloq, chashma nomlari; gidrouzel nomlari; GES nomlari; daryo nomlari; dengiz nomlari; yop nomlari; jilg‘a nomlari; zakan, zovur, zaxkash nomlari; irmoq, o‘zak nomlari; kanal, arna nomlari; kechuv, kechik nomlari; kollektor nomlari; koriz nomlari; ko‘l nomlari; ko‘prik nomlari; muzlik nomlari; nasos stansiyasi nomlari; oydin nomlari; olish nomlari; orol nomlari; parom nomlari; sardoba nomlari; selxona nomlari; soy nomlari; solma, yorish nomlari; soqa nomlari; suv omborlarining nomlari; tashlama, kanda nomlari; chungul nomlari; sharshara nomlari; qoq nomlari; quduq// quyi nomlari; hovuz nomlari. Demak, gidronimika keng ma’nodagi tabiiy suv obyektlari va suv inshooti

⁴¹ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008, 6-бет

⁴² Qorayev.S. Toponimika – joy nomlari haqidagi fan. – Toshkent: Fan. 1989, 3-бет.

⁴³ Oxunov.N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. - Toshkent: Fan. 1989 – 5-бет.

⁴⁴ Hojiyev.A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. - Toshkent: o‘qituvchi, 1985. - 10-бет.

⁴⁵ Begaliyev.N. Samarqand viloyati gidronimlari (lisoniy tahlil): Samarqand. 1994 – 3-бет.

nomlarini tadqiq etadi. Sun'iy va tabiiy, yirik va kichik suv obyektlari hamda suv inshootlarining atoqli otlari gidronimlar hisoblanadi⁴⁶.

Gidronimlar tilshunoslikda qanday suv obyekti nomini anglatishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Okeonim (yunoncha okeanos + onoma) okean va uning qismlarining atoqli nomlari. Masalan, Tinch okeani, Dunyo okeani. Okean yunoncha "okeanos" so'zidan olingan bo'lib, "cheksiz dengiz", "buyuk, katta daryo" degan ma'nolarni anglatadi⁴⁷.

2. Palegonim (grekchapalegos – dengiz + onoma – nom) – dengiz va uning qismlari nomi. Dengizva uning qismlari atoqli nomlari majmuyi palegonimiya deyiladi⁴⁸. Masalan, Qora dengiz, Orol dengizi.

3. Limnonim – ko'l nomlari. Masalan, Chuqur ko'l, Oydinko'l. Ko'l nomlari majmuyini limnonimiya ataymiz. Limnonim termini A.S.Strijak, A.V.Superanskaya, E.M.Mirzayevlarning tadqiqotlarida faol qo'llanilgan.

4. Potamonim – daryolarning nomlari. Masalan, Norin daryo, Qoradaryo. Daryolar nomi majmuyi potamoniya deyiladi. Geografiya fanining daryolar haqidagi bo'limi patamologiya deb ataladi.

5. Gelonim – botqoq va botqoqliklarning atoqli nomlari⁴⁹. O'zbekiston hududida botqoqliklar qisman Amudaryo, Sirdaryo daryolari vodiylarida uchraydi⁵⁰. Ularga maxsus nom qo'yilmagan.

Toponimshunoslar gidronimlarni eng qadimiy nomlar deb baholaydilar. S.Qorayev Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osori atiqalar nomi bilan bellasha oladi, deya ta'kidlaydi⁵¹. Yuqoridagilardan a'yonlashadiki, nomshunoslikda ya'ni onomastik sathda gidronimlar alohida o'ringaega. Toponimlarning eng asosiy va salmoqli qismini gidronimlar tashkil etadi. Haqiqatan ham barcha xalqlar, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida

⁴⁶ Uluqov.N.O'sha asar.10-bet.

⁴⁷ Usmonov O.Donnerov R.Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati – Toshkent.Fan.1965.314-bet.

⁴⁸ Podolskaya N.V.Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. – Moskva.Nauka.1978. – 69-s.

⁴⁹ Podolskaya N.V.Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. – Moskva.Nauka.1978. – 43-113-s.

⁵⁰ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- Toshkent.2001 – 2-k.177-bet.

⁵¹ Qorayev.S.Toponimika – Toshkent.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2006.58-bet.

ham daryolar, buloqlar eng muhim hayo tmanbai vazifasini bajargan. Shuning uchun ham gidronimlar xalqlarning ijtimoiy – siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, boshqa toponim turlarining hosil bo‘lishi va nomlanishiga asos bo‘lgan.

Jahon tilshunosligida gidronimlar toponimikaning bir qismi sifatida o‘rganiladi. Rus tilshunosligida gidronimiya masalalari R.A.Agayev, A.P.Afanasev, V.F.Barashkov, N.P.Butenko, I.A.Borobeva, E.D.Golovina, E.F.Donilina, I.G.Dolgachev, L.I.Kalilina, M.V.Labzina, B.A.Maxotin kabi olimlar tomonidan o‘rganildi.

1970-yillarda gidronimiyaga oid bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yaratildi. R.A.Ageyeva Pskov va Novgorod gidronimlarini⁵², E. D.Golovina Moloma daryosi havzasiga xos toponimlarning yasalish xususiyatlarini⁵³ o‘rgandilar hamda nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. R.A.Ageyeva Kalinin viloyatining g‘arbiy qismiga xos substrat gidronimlarni, aniqrog‘i, hududdagi boltiqcha va fin-ugorcha nomlarni o‘rgandi. U Vesecha, Zalvinskoye, Ozaron, Peno, Stergut, Ilmaj, Kezenka, Maglino, Oech, Sheregodro kabi gidronimlarning yangi etimologik talqinini taqdim etdi. Uning tadqiqotlari natijasida hudud toponimiyasida boltiqcha nomlarning ko‘pligi aniqlandi⁵⁴. E.S.Otin tomonidan Ukraina gidronimlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi⁵⁵.

1.2. Turkiy tillarda gidronimika sohasining shakllanishi

Turkiy tillarda ham gidronimika sohasining shakllanishi va rivojlanishi, bu sohaga oid bo‘lgan ilmiy-lisoniy tadqiqotlar 1970-1975-yillarga to‘g‘ri keladi. Dastlab bu sohada hudud gidronimlarining lisoniy tadqiqiga bag‘ishlangan

⁵² Агеева Р.А. Антропонимические основы в восточнославянской гидронимии Псковских и Новгородских эсмелей // Историческая ономастика. - Москва. 1977 - С 209-216 ; Гидронимия Псковских и Новгородских (Шелонская и Дерясвля латини) эсмелей в свете истории заселения края Автореф дис . канд филол наук - Москва 1973. - 22 с

⁵³ Головина Э.Д. Топонимия бассейна р. Моломи (Гловообразовательный анализ) Автореф дис канд филол наук - Ленинград. 1971. - 15 с. (ЛГУ).

⁵⁴ Агеева Р.А. Субстратная гидронимия западной части Калининской области (В границах исторической Деревской латини) / Топонимия Центральной России - Москва. 1974. - С 104-111

⁵⁵ Отин Е.С. Гидронимия Юга-Восточной Украины Автореф дис .. док. наук. - Киев. 1974 -44 с.

maqolalar chop etildi. Baykal, Issiqko'l gidronimlariga oid o'nlab ilmiy izlanishlar yuzaga keldi.

Turkiy tillarga xos gidronimlarning nomlanish asosi va tarixi, leksik-semantik, morfologik, yasalish hamda boshqa lisoniy xususiyatlari G.I.Donidze, E.M.Murzayev, A.A.Kamolov, S.Ataniyozov, M.B.Labzina, F.G.Garipova, L.G.Guliyeva, M.A.Jevlov, K.F.Gritsenko, B.I.Batarinsev kabi olimlar tomonidan tadqiq etildi.

Birgina *Baykal* gidronimining etimologiyasi, nomlanishi xususida E.R.Rigdilon, E.M.Murzayev, S.U.Umurzakov, B.R.Buyantuyev, G.E.Bazarova, S.A.Gurulev va M.Mamirovlar ilmiy maqolalar yozdilar⁵⁶. E.M.Murzayev va S.Umurzakovlar tomonidan 1960-1970-yillar davomida gidronimiyaga oid turli lug'atlar ham yaratildi. 1962-yilda O.N.Turbachev Yuqori Dnepr gidronimlarining etimologik lug'atini tuzdi⁵⁷. K.X.Meretukov Adigey toponimiyasiga oid tadqiqotida hudud gidronimlarining lug'atini tuzdi⁵⁸. 1973-1980-yillarda Bukov, Shimoliy Azov, Posemya hududlari, Oka havzasi gidronimlarining lug'atlari nashr etildi⁵⁹. Sibirdagi aborigen xalqlar tillariga oid gidronimlarning ters lug'ati ham tuzildi⁶⁰. Ukraina gidronimiyasi ham ancha mukammal o'rganilgan. 1979-yilda Ukraina olimlari o'z respublikalarining yirik gidronimlari lug'atini nashr ettirdilar. Ushbu lug'atda 20000 ta asosiy suv obyektlarining nomlari va ularning 24000 ta turli variantlari berilgan⁶¹.

⁵⁶ Ригдильон Э.Р. О названии Байкал и Ангара -Изд.АН СССР Сер Географическая. 1953 -№5,-С 76-78; Буянтуев Б.Р. К вопросу о происхождении названия Байкал-Иза Ан СССР. Сергеографич. 1951. С.51-52; Мурзаев Э.М., Умурзаков С.У. Гидронимы Иссык-Куль и Байкал.-Изв АН СССР Сер географ 1974,-№ 6 -С 92-94; Бязарота Г.Э., Гурулев С.А.К истории названия озера Байкал - Ономовстика Бурятия.-УламУдэ. 1976 -С 202-213; Мямиров М., Ысмаилов. Байкал деген агтардим теги жонундо - Ала-Тоо. Фрунзе, 1980 -№9 -С. 150-153

⁵⁷ Турбачев О.Н. Этимологический словарь гидронимов Верхнего Поднепровья -Москва, 1962 -С. 174 -214

⁵⁸ Меретуков К.Х. Из топонимики и гидронимики Адигеи // Уэ Адыг. НИИ яз. лит. и ист.-Майкоп, 1972, Т. К - С 301-332

⁵⁹ Топонимия Буковина - Киев Наук думка. 1973 - С, 219 - 231.. Катпог рек Северного Приморья - ПУОК, 1974. - В10.-С 56-46; В 11. - С. 16-73; Ыип 12 - С 10-54, с карт; Яшемко А.И. Гидронимический словарь Посемья - Проблемы аномалики. Вологда, 1974. - С.3*118; С м олник П Г.П. Гидронимия бассейна Оки (Список рек и озер). - М оскм Ндука. 1976. - 403 с

⁶⁰ Обритный гидронимический словарь Алтая и его энвчские для изучения истории аборигенных издров Сибири Происхождение аборигенов Сибири и их язмов. Материалли Всесоюз. конф • Томск. 1976. - С 122-125

⁶¹ Словник гидронимов Украин. - Киев: Наук думка. 1979 -с-78

Tilshunoslikda bu lug‘at katta ahamiyatga ega va kam yaratilgan lug‘atlardan biri hisoblanadi.

Yirik suv inshootlari nomlarini ifodalovchi gidronimlarni lisoniy tadqiq etish keyinchalik ham davom ettirildi. D.Isayevning Issiqko‘l⁶², K.F.Grisenkoning Lena va Aldana⁶³, M.R.Fedotovning Volga⁶⁴ gidronimlari haqidagi maqolalari fikrimizning dalilidir. E.M.Murzayevning ishlarida Volga, Don, Dnepr, Amur kabi yirik daryo nomlarining ma‘nosi, nomlanish asosi, motivi, variantlari va ular bilan bog‘liq tarzda shakllangan toponimlar tahlil qilingan⁶⁵.

Turkiy tillarda 1970-yillarda gidronimiyaga oid yirik tadqiqotlar olib borildi. Tatariston gidronimlari va ularning lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlari F.G.Garipova tomonidan o‘rganildi. U Tataristonning Ashit, Kazanki, Meshi, Shoshmi kabi daryo havzalariga oid gidronimlarning, kichik va yirik ko‘llarning nomlanish xususiyatlarini, gidronimlarning grammatik jihatlarini, tuzilishiga ko‘ra turlarini, jumladan, izofali so‘z birikmalari asosida shakllangan gidronimlarni tadqiq etdi⁶⁶. Olimaning tadqiqotida Tataristonning 4000 atrofidagi gidronimlari zamonaviy planda o‘rganildi va ilova tarzida ularning lug‘ati berildi. U tatar tili gidronimlarini leksik-semantik tasnif qildi va ularni etnolingvistik jihatdan slavyan (rus), tatar, bulg‘or, eron, fin-ugor tillariga mansub qatlamlarga ajratdi.

Boshqirdiston gidronimlarining etnogenezisi, tarixiy shakllanish asoslari, leksik-semantik guruhlari toponimist A.A.Kamolov tomonidan o‘rganilgan⁶⁷. Shuningdek, Qozog‘iston, Turkmaniston gidronimiyasida alohida monografik

⁶² Исаев Д. "Исик-кол" дегам ат кандайча аслин чиккан -Иза. Ан. Кирг ССР, 19(9-16 6 -С. 19-25

⁶³ Гриценко К.Ф. Якутские названия озер междуречья Лени и Алдана. - Питание гидронимики Материал 3- республиканской ономастической (гидронимичном) наради.-Кмса: Наукдумка. 1971,-С.

⁶⁴ Федотов М.Р. Эпни-ш и тшм-эм састе тюрксаных названий реки волги // Советской туркологии -Баку 1978. -№4.-0.44-47

⁶⁵ Мурзаев Э.М. География • названных. -Москва: Наука. 1982. -С 52-51.

⁶⁶ Гарипова Ф. Г. Лексико - семантический анализ гидронимики Заказанья Татарской АСР Тезиси докл. 3-м мвуч конф молодых уч. Ии-тв аз . лнт м исторми -Казань. 1971 -С. 9-И Гидронимна Заказанья Татарской АССР(бассейни рск Ашит, Каавник. Мешн. Шошмм): Автареф дис кямд фкло нау- Казань 1975. 36 с.

⁶⁷ Камолов А.А. Данние гилронимики к проблеме этногенеза башкир // Археология и этнографии Башкирии Т.4-Уфа. 1971- Г 187-290.;-Источники возникновение и лексико - семектические группы башкирских гилронимов Б вшкирвзиковедчесний сб-Уфв. 1975x106-108. . - Гидроимики БашкирииАвтареф дис канд. Филол наук -Уфа, 1964

tadqiqotlar kam bo'lsada, S.Ataniyozov va Z.B.Muhamedovalar⁶⁸ ayrim Turkmaniston gidronimlarini, A.Abdurahmonov esa ba'zi Qozog'iston toponim, agroonim va gidronimlarining imlo xususiyatlarini o'rgandilar⁶⁹.

1.3. O'zbek gidronimiyasiga doir tadqiqotlar

O'zbek gidronimiyasi va uning o'rganilishi uzoq tarixga ega. 1960-1970-yillarda o'zbek gidronimlari xususida katta va kichik tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. A.Ishayevning *Qashqa*⁷⁰, T.Nafasovning *Norin*⁷¹, H.Sharipovning *Itoqar*⁷², N. Begaliyevning *Sirdaryo*⁷³ gidronimlari, A.Nabiyevning *Toshkent ariqlari*⁷⁴ haqidagi tadqiqotlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar keyingi o'n yillikda ham davom ettirilib I.Karimov Xorazm, N.Ya.Mingboyev Mirzacho'l gidronimlarini, T.Nafasov *jili* tarkibli gidronimlarni, Yo. Xo'jamberdiyev Amudaryo gidronimini o'rgandi⁷⁵.

N.Mingboyev o'z maqolasida *Achchiq ko'l, Sho'r ko'l, Oyimko'l, Oqko'l, Eshonko'l, Chibintoyko'l, Moyliko'l, Qiyotko'l, Uyasko'l* kabi gidronimlarning leksik-semantik xususiyatlarini yoritgan. U Sirdaryo viloyat toponimlari doirasida Mirzacho'l gidronimlari salmoqli o'rin tutishini ta'kidlaydi va bu hudud gidronimlarining miqdoran ko'pligi sabablarini, nolisoniy va lisoniy omillarini yoritishga harakat qiladi.

S.Qoraev o'zining toponimik lug'atlarida toponimlar bilan birga juda ko'plab gidronimlarning ham izohini keltirgan. Mahmud Qoshg'ariy, Bobur, Hofizi Abru, Hofiz Tanish al-Buxoriy asarlari, "Avesto", "Hudud ul-olam"

⁶⁸ Атамнйзов С. О гидронимии Юга-Восточного Туркменистана // Питанна гидронимикн. - Киев, 1971, -С 189-194 ; Мухимедова З.Б. О искоторих гидронимах заповдноу Туркменин и Структура и нст тюркских кзиков Москва. 1971, -С. 179-186.

⁶⁹ Абдиракманов А. Жер-су атторинм жъзилуи // Казак тили мен адабиети. - Алма-Ата. 1959 • №1 -Г 36-37. Ўша муаллиф Казакстаннин жер-су аттари -Алма-Ата Илим 1963.-129 б

⁷⁰ Ишаев А. "Кашка" гидроними // Ўзбек тили ва адабиоти, 1967 -№3 -Б 42.

⁷¹ Нафасов Т. Норин гидроними // Ўзбек тили ва адабиоти, 1969 -№] -Б.43.

⁷² Шарипов Х Итокар гидроними // Ўзбек тили ва адабиоти. 1972 №1.-6.18.

⁷³ Бегалиев Н. Сирдарёо гидроними // Ўзбек тили грамматик курилиши ва лексикалогияси масалалари Самарканд 1979 -Б81-84

⁷⁴ Набиев А. Toshkent ariqlari Фан ва турмуш, 1970.-№-11-Б.27,

⁷⁵ Каримов И. Гидроними Южного Хорезмов // Вестник Каракалн фил АН УзССР -Нукус, 1983 -№3 -С 38-

61.Мингбоев Н Я Мирзачул гидронимлари // Ўзбек тили ва адабиоти, 1987.-№2 -Б 50-54 . Нафасов Т Жиликомпанентли гидронимлар // Ўзбек тили ва адабиоти, 1988 -Хе5 -Б.43-43.: Хўжамбердиев Ё Гохида мух, гохида сокин Амударё! // Фан ва турмуш. 1985 -№12 -Б 13

materiallari asosida Narpay, Amudaryo // Jayhun, Sirdaryo, Vaxsh, Zarafshon kabi o'nlab tarixiy va qadimiy gidronimlarning variantlari, shakllari, etimologiyasi, suv obyekti nomlari tarkibida uchraydigan so'zlarning tarixiy-etimologik manbasi, ma'nosi, lahja va shevalarga xos variantlari, ayrim gidronimlarning imlosi o'rganilgan⁷⁶.

1970-1980-yillarda o'zbek tilshunosligida toponimik lug'atshunoslik ham shakllandi va hozirgi kunga qadar S.Qorayev, Z.Do'simov, X.Egamov, H.Hasanov, T.Nafasov, N.Oxunov, B.O'rinboyev, B.Turdaliyev, T.Numonov, A.Haydarovlarning izohli lug'at, lug'at-ma'lumotnoma xarakteridagi toponimik lug'atlari nashr etildi⁷⁷. Ushbu lug'atlarda ko'proq yirik suv inshootlarining tarixiy shakllari, variantlari, onomastik ma'no qirralari, qisman etimologiyasi izohlangan.

S.Qorayev yaratgan lug'atlarda *Chaqar (Toshariq), Quvurariq, Tuyatortar, Zaxariq* kabi Tohkent gidronimlari, *Shahrud, Gulisoy, Qalqonrud, Qarag'anjiyda, Ko'hak // Zarafshon, Sirdaryo* kabi gidronimlar, T.Nafasov ishlarida *Norin, Jilisuv, Jiliko'l, Qizilbuloq, Qizariq* singari gidronimlar izohi berilgan⁷⁸.

X.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Yer tili" (1977), "Geografik nomlar siri" (1985) kabi bir qancha asarlarida gidronimlar izohi masalasi ham o'rganilgan edi. Masalan, olim *Tuyatortar kanali, To'palang daryosi, ko'li Xubbon* singari gidronimlarning etimologiyasiga doir qiziqarli dalillarni keltiradi⁷⁹. N.Oxunov "Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari" nomli risolasida daryo nomlari (*Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Oqdaryo, Zarafshon* kabi), suv omborlari nomlari (*Kattaqo'rg'on suv ombori, Chorvoq suv*

⁷⁶ Qoraev S. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари –ТошкентЎzbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005-240 б ; Qorayev S. Toponimika. – Toshkent. O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. 2006-B 57-bb

⁷⁷ Qoraev S. Географик номлар маъносини биласизми? (Топонимик лугат). *Тошкент: Ўзбекистон. 1970; Географик номлар маъноси -Тошкент Ўзбекистон. 1978-202 б.; Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Ўша муаллиф -Ташкент . 2005.-240. ^Ўша муаллиф Самарканд вилоят топонимларининг изоҳли лугати. Самарканд. 1997 ; Дусимав З Эгамов Х. Жой номларининг кискача изоҳли лугати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1977,-174 б . Хасанов Х Географик номлар сирини. – Тошкент Ўзбекистон. 1985 -120 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.; Кишлогингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. -100 б.; Охунов Н. Жой номлари табири. –Тошкент: Ўзбекистон, 1994. -8 б.; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. - Жиззах, 1992. -52 б. - Самарканд. 1997. -202 б.; Турдиев Б Нумонов Т., Хайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар - Наманган, 1995 - 1-китоб. - 122 б.

⁷⁸ Qoraev S. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Уз мил энц – 240 б; Нафасов Т. Кишлогингиз нега шундай аталган? -Тошкент: Фан, 1980. – 100 б.; Охунов Н. Жой номлари табири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.

⁷⁹ Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965, 52, 55-бет.

ombori kabi), kanal nomlari (*Janubiy Mirzacho'l kanali, Ulug'nor kanali, Narpay kanali, Log'on kanali* kabi), soy nomlari (*Ohakli soy, Qizil soy, Sho'rali soy, Chodak soy* kabi), ko'l nomlari (*Orqako'l, Devonko'l, Oqchako'l* kabi), buloq nomlari (*Qo'tirbuloq, Qayroqchibuloq, Beshbuloq, Oqbuloq* kabi), ariq nomlari (*Jiydaariq, Sho'rariq, Chinorariq* kabi), quduq nomlari (*Toshquduq, Qizilquduq, Otquduq* kabi), hovuz nomlari (*Toshhovuz, Molhovuz* kabi), zovur nomlari (*Ko'kzovur, Qorayog'zovur* kabi), to'g'on va quvur nomlari (*Qumto'g'on, Beshquvur, Toshquvur* kabi) singari gidronimik obyektlarni tasnif etadi hamda bunday gidronimlarning ayrimlarini etimologik jihatdan talqin qiladi. Masalan, *Bulung'ur* kanalining nomi asosida mo'g'ulcha so'z yotadi. Ya'ni *bulung'ur* so'zining ma'nosi *loyqa suv* demakdir. *Arashonbuloq* gidronimining birinchi komponentidagi *arashon* so'zi sanskritcho'lib, "*shifobaxsh, iliq*" ma'nolarini bildiradi. Shunga ko'ra *Arashonbuloq* gidronimi "*shifobaxsh buloq*", "*issiq buloq*" ma'nolarini ifodalaydi. *Ulug'nor* gidronimining ikkinchi qismida qo'llangan "*nor*" so'zi arabcha "*nahr*" (*daryo*) so'zining mahalliy aholi talaffuzidagi fonetik variantidir. Shunga ko'ra *Ulug'nor* gidronimi "*katta kanal*" ma'nosini bildiradi. Yoki *Sangzor* daryosi nomi tojikcha *sang – tosh* va o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi qo'shimchadan tarkib topgan bo'lib, "*toshli yer, toshloq*" ma'nosini ifodalaydi⁸⁰. Shuni ta'kidlash joizki, gidronimlar toponimlarning etimologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar sirasida o'rganib kelingan edi. Tolib Enazarov O'zbekiston Respublikasi toponimlari sirasida *Arnasoy, Yettikechuv, Itbuloq, Ko'ksuv, Oltinquduq, Sariko'l, Tuyatortat, Qaynar, Qayirma, Qizariq* kabi gidronimlarni ham etimologik tahlil qilgan⁸¹. Shuningdek "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi"da ham *Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Norin, Zarafshon, Kosonsoy, Shimoliy Farg'ona kanali, Katta Farg'ona kanali, Katta Andijon kanali* kabi mikrogidronimlarning tarixiy, geografik, gidrologik, gidrografik va qisman

⁸⁰ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 36-37.

⁸¹ Эназаров Т. Ўзбекистондаги бази топонимларнинг этимологик талқини - Тошкент. 2004. – 120 б.

lisoniy izohi berilgan⁸². Yuqorida ko‘rib chiqilgan ishlarda gidronimlar to‘liq qamrab olinmagan va kichik suv obyektlari nomlari to‘planmagan.

O‘zbek gidronimiyasi bo‘yicha dastlabki tadqiqot “Samarqand viloyati gidronimlari” (lisoniy tahlil) deb nomlanadi⁸³. Bu nomzodlik dissertatsiyasi uch bobdan iborat bo‘lib, uning dastlabki bobi “Gidronimik atamalar” tahliliga bag‘ishlangan. Bu bobda viloyat dialekt va shevalarida uchrovchi *ariq, botqoq, bosh, buloq, og‘iz, odoq, (oyoq), soy, suv, quloq, quduq, ko‘l, o‘zan* kabi turkiy, *arna, jo‘y, koriz, nova, chashma, daryo* kabi fors-tojikcha, *nahr, hovuz, sel* kabi arabcha gidronimik aniqlagichlarning leksik-semantik, etimologik xususiyatlari V.V.Radlov, L.Z.Budagov, L.V.Dimitrova, G.I.Donidze, E.M.Murzayev, H.Hasanovlarning tadqiqotlariga nazariy tayanilgan holda o‘rganilgan. Ishning keyingi boblari esa Samarqand viloyati dialekt va shevalarida uchrovchi gidronimlarning leksik, semantik, morfologik va etimologik tahlilini o‘z ichiga oladi. N.Begaliyev keyinchalik e‘lon qilgan “Samarqand toponimiyasi” nomli asarining alohida bobi “Gidronimlar – suv nomlari demak” deb nomlangan. Bu asarda *Darg‘om arig‘i, Jo‘yi Arziz, Obi Mashhad, Chorjo‘y arig‘i, Shahob arig‘i, Korizquduq, Qo‘shquduq* kabi gidronimlarning etimologiyasiga doir ma‘lumotlar keltirilgan⁸⁴.

Tadqiqotning “Gidronimlarning leksik-semantik xususiyatlari” nomli uchinchi bobida gidronimlarning leksik-semantik tasnifiga doir O.T.Molchanov, A.A.Kamolov, S.Ataniyozov, Z.Do‘simov, N.Oxunovlarning tadqiqotlari haqida fikr yuritilgan va viloyat gidronimlarining leksik-semantik tasnifi berilgan. Mazkur bobda viloyat gidronimlari “Suv obyektining tabiiy-geografik holati, xususiyati bilan bog‘liq gidronimlar” va “Hududning tarixi, iqtisodiy va madaniy mavzuiy guruhlarga bo‘lish asosida tahlil qilingan. Mazkur bobning “Viloyat gidronimlarining tarixiy-etimologik tahlili” nomli qismida viloyat gidronimlari etimologik manbasi jihatdan quyidagi 5 guruhga ajratib o‘rganilgan:

⁸² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002-2006. -1-12-жилдлар.

⁸³ Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). – Самарқанд, 1994. – Б. 25.

⁸⁴ Бегалиев Н. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2010. – Б. 13-17.

1) o'zbek tiliga mansub gidronimlar (*Uzunbuloqsay, Qozonariq, Toqqo'zariq, Nishabariq*);

2) fors-tojik tiliga mansub gidronimlar (*Arna, Gardan, Darg'am, Abirahmat, Siyab, Shavdarariq, Xezarariq* kabi);

3) arab tiliga mansub gidronimlar (*Anhor, Narpay, Yelimlisoy, G'ossay, Xavzak* kabi);

4) mo'g'ul tiliga mansub gidronimlar (*Bulung'urariq, Narinariq, Pastkiymog'al* kabi);

5) rus tili ta'sirida hosil bo'lgan (*Kirav nomli tashlama, Birinchi may tog'ani* kabi).

Fikrimizcha, yuqoridagi tasnifga unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Sababi olim fors-tojik, arab, mo'g'ul tiliga mansub deb ko'rsatayotgan gidronimlar o'zbek tilida paydo bo'lgan va bu gidronim boshqa tilniki degan xulosaga kelish noto'g'ri hisoblanadi. Har qanday nom qaysi tilda paydo bo'lsa, o'sha tilning mahsuli hisoblanadi.

A. Aslonov tomonidan Shofirkon tuman toponimiyasi doirasida hudud gidronimlari ham o'rganilgan⁸⁵. U Shofirkon tumanida respublikaning boshqa hududlarida mavjud bo'lgan *qoq, izma, jilg'a, tomchi, sardob* kabi suv obyektlari yo'qligini, tuman gidronimlarining asosini ko'l, ariq, hovuz, quduqlar nomi tashkil etishini ta'kidlaydi. Shofirkon gidronimlarini *ariqlar, zaxkashnomlari, ko'l nomlari (limnonimlar), ko'prik nomlari* kabi guruhlariga ajratadi. Tuman gidronimlarini nomlanish asosiga ko'ra *gidroantroponimlar (Amin boboning ko'li, Abdal boboning zaxkashi), gidrooykonimlar (Ayronchi arig'i, Andaqi arig'ikabi)* va *obyektning xususiyati, holati bilan bog'liq nomlar (Besh ariq, Chuqur ko'l, Ko'hna rud, Sho'r ko'l* kabi) singari guruhga ajratilgan. Olim gidronimlarga oid barcha ishlarida umumiy tasnif beradi, gidronimlarni o'z ichida kichik guruhlariga ajratmaydi.

Farg'ona viloyati gidronimlarining lisoniy jihatdan tadqiqi borasida N. Oxunov xizmatlari katta. Olim hududga mansub gidronimlarni *Jo'yitik, Jo'yko'l,*

⁸⁵ Aslonov A. Shofirkon tuman mikrotoponimivasininin linavistik tahlili. – Toshkent, 2005. – B. 22.

Toshkechuv, Obisiyo kabi gidronimlar hamda *Mingbuloq, Qo'g'aliko'l, Bordimko'l, Sho'rko'l, Polvonko'l, Chapko'l, Ko'l yoqa, Duob, Sardoba, Sozsoy* kabi gidrotoponimlarning etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari, morfemik tarkibi, yasalishi yoritilgan⁸⁶.

O'zbek gidronimiyasi bo'yicha ikkinchi yirik tadqiqot N.Uluqovning monografiyasidir⁸⁷. Olim keyinchalik ana shu monografiya asosida tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi⁸⁸. Olim yuqoridagi monografiyasida gidronimlar va ularning tadqiqi, o'zbek tili gidronimlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari, o'zbek tili gidronimlarining xronologik tasnifi va etimologik tahlili, o'zbek tili gidronimlarining yasalishi va tarkibiy tuzilishi masalalariga batafsil to'xtaladi.

Shuningdek, A.Muhammadjonov, M.Turdibekov, A.Otajonova kabi ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida ayrim gidronimlarning xususiyatlarga doir muhim kuzatishlar keltirilgan. Masalan, T.Nafasov o'zining maqolalarida "*jili*", "*qashqa*" formantli gidronimlarning paydo bo'lishi, etimologiyasi haqida o'z kuzatishlarini bayon qilgan edi⁸⁹. Gidronimlar filolog olimlardan tashqari juda ko'plab geograflar, tarixchilar va etnograflar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Masalan, A.Juvonmardiev "XVI-XIX asrlarda Farg'onada er-suv masalalariga doir" nomli asarida *Norin, Sirdaryo, Shahrixon, Dalvarzin, Andijonsoy* kabi bir qancha gidronimlarning shakllanishi haqida fikr bildirgan edi⁹⁰. Y.Qosimov esa Namangan vohasining sug'orilish tarixidan" nomli asarida o'sha viloyatdagi *Qalmaqariq, Bog'ish, Qurama, Mamay, Beshatmon, Ko'kjar* kabi tarixiy qabila, urug' nomlari bilan atalgan ariqlar, *Boyariq* (hozirgi *Namangansoy*), *Eshonbobo kanali, Yangiariq, Mutagan, Xonariq* kabi boshqa o'nlab suv obyektlarining nomlanishi haqida fikr yuritgan⁹¹. X.Xolmo'minov "Boysun tuman mikrotoponimlarining leksik-semantik xususiyatlari" nomli tadqiqot ishida suv obyektlarini nomlovchi

⁸⁶ Охунов Н. Жойномлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 86.

⁸⁷ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 192.

⁸⁸ Улуков Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2010. – Б. 48.

⁸⁹ Нафасов Т. *Жили* компонентли гидронимлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. № 5, 43-45-бетлар.

⁹⁰ Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғона ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 184.

⁹¹ Қосимов Ў. Наманган воҳасининг сугорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 121.

mikrotoponimlarga: daryo, soy, tog' soylari, irmoqlar, ariqlar, kanallar, sharsharalar, daryo oqimlari, suv oqimlari, buloqlar, kichik ko'llar, suv omborlari, hovuzlar, quduqlar, botqoqlar, ko'priklarni kiritadi⁹².

O'zbek tiligidronimlari yuzasidan tarix, geografiya, tilshunoslik fanlari yo'nalishida bajarilgan ishlar tahlili barcha hududlar gidronimlari, jumladan, Surxondaryo gidronimlari to'liq to'planmagan, ayrimlarining bunyod etilish tarixi, geografik jihatlari o'rganilgan bo'lsada, lisoniy jihatlari: nomlanish tamoyili, etimologiyasi, lug'aviy-ma'noviy, yasalish, morfemik, morfologik, dialektologik xususiyatlari to'la o'rganilmagan.

1.4. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy manbalarda ifodalanishi

O'zbekiston gidronimiyasi qadimiy manbalarga ega. "Avesto", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abu Tohirxo'ja ibn Abu Saidxojaning "Samariya", Abu Rayhon Beruniy, Yoqut al-Buxoriy, Mahmud ibn Vali, Is'hoqxon Ibratning tarixiy asarlari vatanimiz toponimiyasini, jumladan, gidronimiyasini o'rganishda muhim tarixiy manba bo'la oladi.

Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda yaratilgan diniy va afsonaviy matnlarni tashkil qiluvchi asar "Avesto" Markaziy Osiyo va unga yondosh viloyatlarning ko'hna topografiyasiva toponimiyasi haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manbadir. Toponimlarning asosiy qismi "Yasht" va "Vivevdot"da to'plangan. Bular viloyatlar, tog'lar, daryo va ko'llarning nomlaridir. M.Tillayeva tomonidan "Avesto" tilida uchraydigan atoqli otlarning lug'at ko'rsatkichi tuzilgan⁹³.

"Avesto"da uchraydigan Xorazm shevalariga xos *yop*, *arna* kabi gidronimik aniqlagichlar bilan bog'liq onomastika masalalari Z.Do'simov⁹⁴, M.Jo'rayevlar tominidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari "Avesto" tiliga xos gidronimlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

⁹² Холмунинов Х. Микропонимия Байсунского района и его окрестностей. АҚД – Тошкент, 1993. – 6 с.

⁹³ Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий - лисоний тадқиқи ("Авесто ономастикасига киёслаш асосида) Фил фан номзод дис автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 26.

⁹⁴ Дўсимов З. Хоразм ономастик тизимида авестовий элементлар // Филологик тадқиқотлар) Илмий ишлар туплами - Тошкент, 2002 -Б 39-42

Tarixchi va geograf Hofizi Abru Shohobiddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiyning “Tarixi Hofizi Abru” nomli mashhur asarida yer yuzidagi suvlar, tog‘lar, Movorounnahr va Xurosonning geografiyasi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Xususan, Jayhun, Sayhun, Murg‘ob va boshqa daryolar nomlari ko‘rsatib o‘tilgan⁹⁵.

Muallifi noma’lum “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib” (“Olamning mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob”) fanda qisqacha “Hudud ul-olam” shaklida tanilgan mashhur asarda daryo, dengiz va boshqa joy nomlari batafsil keltirilgan. Jumladan, asarning “Dengizlar va qo‘ltiqlar haqida so‘z” nomli bobida *Xazar dengizi*, (hozirgi Kaspiy dengiz), *Xorazm dengizi* (Orol dengizi), “Daryolar haqida so‘z” bobida *Jayhun* (Amudaryo), *Xarnob* (Panj daryosi irmog‘i bo‘lishi mumkin), *Chog‘onrud* (Surxondaryo), *O‘zgand* (Qoradaryo), *Xirsob* (Kurshob), *O‘sh daryosi* (Oqburga), *Qubo daryosi* (Quvasoy), *Xatlom* (Norin), *Parak* (Chirchiq), *Buxoro daryosi* (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning oqim yo‘nalishlari, hududlari, quyilish manbayi, irmoqlari, ayrimlarining nomlanishi haqida batafsil ma’lumot berilgan⁹⁶.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan manbadir. Shuningdek, “Boburnoma” Farg‘ona vodiysi toponimiyasini, jumladan, gidronimiyasini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi. Asarda Farg‘ona vodiysi hududiga xos *Marg‘inon*, *Axsi* // *Axsikat* // *Axsikent*, *Arxiyon*, *Karnon*, *Koson*, *Navkand*, *Pop qo‘rg‘oni*, *Sayram*, *G‘avo*, *Pishxoron*, *G‘aznayi Namangankabi* toponimlar keltirilgan. Jumladan, *Aylamish daryosi*, *Andijon suvi*, *Xoqon arig‘i*, *Xo‘jan suyi*, *Sayxun* // *Sirdaryo* // *Ars suyi*, *Sang suyi*, *Koson suyi*, *Xoqon arig‘isingari* gidronimlar haqida ham ma’lumotlar kuzatiladi⁹⁷.

⁹⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - Б.381.

⁹⁶ Худуд ул-олам / М асўул муҳаррир Мирсодиқ Исмоков. - Тошкент: О‘zbekiston 2007 – Б.10.

⁹⁷ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. - Тошкент: Шарк, 2002 -336 б+32 б. Зарварак

“Boburnoma” asaridagi gidronimlarni qanday suv obyektining atoqli otini anglatishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) daryo nomlari: *Oqsuv daryosi, Amu daryosi, Jun daryosi, Sayhun daryosi, Saru daryosi, Ilamish daryosi, Daryoyi xo‘r* kabilar. Asarda daryolar nomi tarkibida ba‘zan “suyi” so‘zi ishlatilgan: *Axsi suyi, Valxob suyi, Gandak suyi, Kulxak suyi* singarilar keltirilgan. Bundan tashqari “rud” so‘zi daryolar nomi tarkibida qo‘llanilgan: *Jamrud, Kamrud, Surxrud* kabilar;

2) buloq-chashma nomlari: *Yonbuloq, Qarg‘abuloq, No‘rabuloq, Boboqaro chashmasi, Bodomchashma, Garmchashma, Halvochashma, Chashmai para* singari;

3) ariq, hovuz, soylar nomi: *Qirqariq, Xoqon arig‘i, Havzi mohiy*. Ariq nomlarining ayrimlari tojikcha “juy” so‘zi orqali ifodalangan: *Juyi Injil, Juyi Shoxiy* kabi;

4) guzar (kechuv) lar nomi: *Qanor guzari, Nilob guzari, Oxor guzari* kabilar;

5) ko‘llar nomlari: *Qorako‘l, Kuli Malik, Kuli Mag‘ok* singari ko‘l nomlari uchraydi;

6) ko‘priklar nomi: *Mirzo ko‘prigi, Mullabobo ko‘prigi, Muhammad Chab ko‘prigi, Cho‘pon ko‘prik, Qutlug‘ qadam ko‘prigi* singari. Ba‘zi ko‘prik nomlari tarkibida fors-tojikcha “pul” so‘zi ishtirok etgan: *Puli Mag‘oq, Pulikoh, Puli Ravon, Puli Solor, Pulchirog‘* kabilar.

“Boburnoma” asarida muallif gidronimlarning ba‘zilariga mufassal to‘xtaladi, ularni atroflicha izohlaydi. Hozirgi Sirdaryo haqida shunday keltiradi: “Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyiga mashhurdir, sharq va shimoli tarafidan kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tib, g‘arb sorig‘a oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruhiyaga mashhurdir, o‘tib yana shimolga mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondan xili quyiroq bu daryo tamom xumga singar, hech daryoga qotilmas”(“Boburnoma” 60-b.). Ko‘xak suyi xususida mana shu ma‘lumotlarni keltiradi: “Ko‘xak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki guruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubdur, Ko‘xak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘xak suyi derlar.

Bu suvdin bir ulug' rud ayiribtilar, balki daryochadir, Darg'om suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar. Samarqanddin bir shar'iy bulg'oy. Samarqandning bog'ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma'murdur" ("Boburnoma" 104-b.).

Abulg'ozii Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari onomastikasi doirasida ham gidronimlar mavjud bo'lib, M.Turdibekov ular doirasida tadqiqotlar olib borgan.

Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan gidronimlarni quyidagi guruhlariga ajratib, lisoniy jihatdan tahlil qilish mumkin: 1) okean, dengiz va ko'llarning nomi; 2) daryolar, buloqlar nomi; 3) ariqlar, anhorlar nomi; 4) boshqa xil suv inshootlarining nomlari (bandlar, ko'priklar)⁹⁸.

Ushbu guruhlar doirasida Rumu Farang dengizi, Bahri Hind, Aras, Amu, Dajla, Nil, Frot, Chashmai Sabz, Injil arig'i, Jo'yi Navro'ziy kabi dengiz, daryo, buloq, koriz, ariq nomlari izohlangan.

I bobga doir xulosalar

1. Gidronimiya tilshunoslikning nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lgan sohalaridan biri bo'lib, u ham toponimikaning boshqabo'limlariqatori o'z o'rganish obyekti va predmetiga ega.

2. Gidronimlar o'z tarixiy manbalariga ega. Gidronimlar ko'pgina tarixiy manbalarda aks etgan va izohlangan. Jumladan, "Boburnoma" asarida gidronimlar atroflicha izohlangan.

3. O'zbek tilshunosligida hududiy toponimlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab monografik tadqiqotlarda o'zbek tilida gidronimik so'z va atamalar hamda ulardan shakllangan gidronimlarning salmog'i yuqori ekani o'z isbotini topgan. Ular o'zbek tilshunosligida toponimikaning bir qismi sifatida o'z o'rniga ega va o'z navbatida ularni tarixiy-lisoniy jihatdan monografik tarzda alohida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

⁹⁸ Yo'ubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Filol.fan.nomzodi. dis. Avtoref. – Toshkent. 1994. – B. 13.

II BOB. BOYSUN TUMANI GIDRONIMLARINING INDIKATORLARI, LEKSIK-SEMANTIK, GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

2.1. Boysun tumani gidronimiyasida qoʻllanadigan gidronimik indikatorlar

Maʼlumki ilmiy tadqiqotlarda onomastik terminlarni turlicha nomlash kuzatiladi. Rus tilshunosligida A.B.Superanskaya “geografik soʻz”⁹⁹, B.A.Serebrennikov toponimlarga qoʻshib aytiladigan birliklarni “indikatorlar”¹⁰⁰, V.A.Nikonov esa “geografik atamalar” deb ataydi¹⁰¹. Tojik tilshunosligida S. Sheraliyeva gidronimlar bilan qoʻllanadigan soʻzlarni “gidronimlar yasovchi formantlar” desa¹⁰², qozoq tilshunosligida G.K.Konkoshbayev “xalq geografik terminlari”¹⁰³, boshqird tilining toponimlarini tadqiq qilgan A.A.Kamalov “geografik terminlar”¹⁰⁴ deb ataydi. Oʻzbekiston toponimlari tadqiqi bilan shugʻullangan olimlar Z.Doʻsimov, S.Qorayev, T.Enazarov toponimlarni anglatadigan soʻzlarni “indikatorlar” deb ataydilar¹⁰⁵. Odatda tabiatda uchraydigan barcha geografik obyektlar geografik terminlar bilan ataladi. Gidronimlarni anglatuvchi koʻrsatkichlarni, yaʼni ariq, arna, buloq, daryo, koʻl, soy, jilgʻa, irmoq, quduq, hovuz kabi atamalarni indikatorlar deb atash maqadga muvofiq deb oʻylaymiz.

Arna indikator. Arna hajman daryodan kichik, ariqdan katta, suvning harakatlanish oqimi boʻyicha oqadigan suv obyekti. *Arna* gidronimik indikator va *kanal* indikator teng qoʻyiladi va tadqiqotlarda arna, kanal nomlari deb bir oʻrinda tahlil qilinadi. S.Qorayev ham *arna* terminini *katta kanal*, Mirzachoʻl regionida esa *jar* deb izohlaydi. S.P.Tolstovning fikricha, *arna* qadimiy *xet* soʻzi boʻlib, “buloq”

⁹⁹ Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, – С. 98 – 100.

¹⁰⁰ Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания. – Москва, 1959. № 6. – С. 37.

¹⁰¹ Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2010. – С. 11.

¹⁰² Шералиева С. Гидронимия Хотлонской области: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – С. 85.

¹⁰³ Конкошбаев Г.К. Казахские народные географические термины // Известия АН КазССР. Серия география. – Алма-ата, 1951. – вып. 3. – № 99.

¹⁰⁴ Камалов А.А. Некоторые аспекты изучения башкирских народных географических терминов // Вопросы топонимики Башкирии. – Уфа, 1981. – С. 10.

¹⁰⁵ Дўсимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С. 36; Кораев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 16; Эназаров Т.

Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. ... дис. – Ташкент, 2006. – Б. 44.

ma'nosini bildirgan¹⁰⁶. V.V.Bartold *arna* so'zi qadimiy xorazmiylar tiliga mansubligini aytadi¹⁰⁷. Munis va Ogahiy asarlarida, vaqf va meros hujjatlarida, Xiva xonlari arxiv hujjatlarida *arna* so'zi kanal nomiga qo'shilib kelgan. O'zbekistonning ba'zi hududlarida, jumladan, Zomin, G'allaorol, Jizzax tumanlarida kichik jarni *arna* deyishadi. Boysun tuman gidronimiyasida selda yoki suvning shiddat bilan kelishidan hosil bo'lgan chuqur ariq, tuproqli joyni yuvib ketgan, tik chuqur hosil bo'lgan joy *arna* deyiladi. *Bo'zariq, Munchoq* (Boysun t.) Tuman hududida *arna* indikatori bilan bog'liq *Arnali* nomli hudud ham mavjud. (Boysun t. Pulxokim q.).

Ariq indikatori. Ariq sun'iy ravishda yasalgan suv yo'li, o'zani va undagi suv. (Qadimiy eroniy tillarda oqmoq fe'lining o'zagi, ya'ni "suv"). Boysun tumanida ariq indikatori bilan nomlanuvchi gidronimlar: *Jo'yi Yusuf, Novariq* (Boysun t. Darband q.), *Jo'yi Chinor, Jo'yi Kabutiy, Jo'yi Kalon, Jo'yi Qayirma, O'rtaariq, Qizilariq, Toirariq//Tohirariq, Tutisiyo(h)* (Boysun t. Sayrob q.), *Bo'zariq, Shaymatariq, Jarichol, Jo'yi Chinor, Noviob* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Allayorning arig'i, Ortiqboy arig'i* (Boysun t. Machay q.) *Jari Chol* (Machay q.), *Jo'yi qayirma* (Sayrob q.), *Chinor, Qayqi, Tabali, Afg'on shahid, Qaribog', Toshloq, Qishloqsoy arig'i, Yangiariq, Mechitli, Sariqariq* (Boysun t. Pulxokim q.).

Band indikatori. *Band* so'zi *to'siq, g'ov, to'siq, to'g'on, damba* ma'nolarini anglatadi. Suv ombori, soy va daryolarga qurilgan to'g'on. Suv to'planadigan va ayriladigan joy nomi. *Sarband* (Boysun t. Pulxokim q.), *Sarband* (Boysun t. Machay q. Machay daryosiga tashlangan to'siq).

Buloq indikatori. Buloq so'zi fors-tojikcha *chashma* atamasi bilan parallel tarzda qo'llanadi. Buloq yer ostidan chiqayotgan suv manbai va uning suvi. Buloq komponentli toponimlar turkiy tillar hududida mo'g'ul tilida keng tarqalgan. Keyinroq buloq so'zining ma'nosi kengayib, daryo, kichik daryo, kanal, ariq ma'nolarida ham qo'llanadigan bo'lgan. Boysun tumani tog'li hudud bo'lganligi

¹⁰⁶ Толстов С.П. По следам древне хорезмийской цивилизации. – М.-Л., 1948. – С. 81.

¹⁰⁷ Бартольд В.В. Сочинения. – М., 1963. – Т. II. – Ч. 1. – С. 122.

va aynan tog' qismi qor suvi bilan to'yingani uchun hududda buloqlar soni bir muncha ko'proq. Shuningdek, shifobaxshligi jihatidan ham Boysun buloqlari alohida ahamiyatga ega. To'plagan materiallarimizning aksar qismini ham buloq indikatorini bilan bog'liq birliklar tashkil etadi va dissertatsiyamizda ularning soni 100ga yaqinni tashkil etadi. Shuningdek bu hudud mikrotoponimlarining bir qismi sifatida juda faol qo'llanadi. Masalan: *Omonxona* (Boysun t. Omonxona q.), *Katta g'urg'urak*, *Kichik G'urg'urak* (Boysun t. Qiyakamar q.), *Chagan*, *Chimoy*, *Oq buloq*, *Ko'k buloq*, *Hazrat Eshon Bobo*, *Zarangbuloq*, *Qo'shbuloq*, *Piyozli*, *Oqboybuloq*, *Olchabuloq*, *Norbuloq*, *Morbuloq*, *Jiydabuloq*, *Do'stboybuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Pudinabuloq* (Boysun t. Machay q.), *Jiydabuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Xayrashiq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Yonar buloq*, (Boysun t. Darband q.), *Aynnibuloq*, *G'o'rinbuloq*, *Gandabuloq*, *Luxlux//Luxliq*, *Qizilbuloq*, *Suzundiki Mo'min*, *Xo'jamayxona* (Boysun t. Sayrob q.) kabi.

Botqoq indikatorini. Botqoq doimo yoki uzoq vaqt zax bo'lib yotadigan joy¹⁰⁸. Boysun tuman gidronimiyasida Botqoq indikatorini oyoq bosib bo'lmaydigan bo'sh loy, bilan qoplangan yer, doimiy qora loy va suv aralashib, badbo'y hid taratib turadigan joyga nisbatan qo'llanadi. Boysun tumanida botqoqliklar nisbatan kam uchraydi. Masalan: *Sassiq* (Boysun t. Pulxokim q.), *G'alchalik* (Boysun t. Omonxona q.)

Daryo indikatorini. Tabiiy o'zandan oqadigan katta suv¹⁰⁹. Ozarbayjon toponimlari tadqiqi bilan shug'ullangan G.A.Gaybullayev *daryo* so'zi eron tiliga mansub desa¹¹⁰, N.Begaliyev fors tilida *daryo*, ya'ni *dengiz* so'zi bilan bog'liq¹¹¹ ekanligini ko'rsatadi. Hajman kanal, ariq kabi suv obyektlaridan katta, oquvchi suv obyektini. Doimiy ravishda o'z manбайдan quyilish joyi tomon oqib turadigan katta miqdordagi suv. *Labisho'r* (Boysun t. Darband q.), *Tangak* (Boysun t. Sayrob q.), *Turkan// Turkamdaryo* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Obisho'rdaryo* (Boysun t. Panjob q.) *Machaydaryo* (Boysun t.).

¹⁰⁸ Qorayev.S O'sha asar. 62-b.

¹⁰⁹ Qorayev.S O'sha asar. 62-b.

¹¹⁰ Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. – Баку: ЭЛМ, 1986. – С. 88.

¹¹¹ Бегалиев Н. Самарканд вилояти гидронимлари: Филол. фан. ном. ... дис. – Самарканд, 1994. – Б. 76.

Jilg'a indikator. Tog'dan oqib tushayotgan kichkina suv. Jildirab oqadigan soy. Boysun tuman gidronimiyasida jilg'a indikator bilan nomlanuvchi birliklar juda kam. Masalan, *Qizil kanyon jilg'asi*. (Boysun t. Boysun shahridan 3km uzoqlikda). Qizil kanyon jilg'asining yana bir jihati shundaki, bu jilg'ada bahor va kuz oylaridagina suv mavjud bo'ladi, qolgan fasllarda esa quruq bo'ladi.

Irmoq indikator. Daryoga qo'shiladigan soy¹¹². Irmoqlar birlashib daryo hosil qiladi. Masalan, *Machay, Irg'aylisoy* (Boysun t. Sherobod daryoga quyiladi).

Jorma indikator. Yerni yorib ochilgan ariq, quduq. Jorma so'zi bilan bog'liq indikatorlar xalqimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sababi ular insonlar qo'l kuchi bilan qazilgan va kundalik ehtiyoj uchun xizmat qilgan. Boysun tumani Pulxokim qishlog'ining tog'li hududlarida *Jorma* nomli indikator mavjud bo'lib, u vaqtinchalik o'rnatilgan aholi tomonidan ochilgan va ichimlik suvi hamda chorva mollari uchun suv manbai vazifasini o'tagan.

Ko'l indikator. Bu indikator kichikroq tabiiy suv havzasi nomini anlatadi. Ko'l suvining ko'p yoki kamligiga qarab *ko'lchak*, *ko'lmak* variantlari ham mavjud. Ko'l indikator bilan nomlanadigan gidronimlar Boysun tuman hududida ham uchraydi, ularning soni ko'p bo'lmasada, hudud hayoti uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy suv obyektidir. Masalan, *Kattako'l* (Boysun t. Sho'rob q.), *Ko'limohi* (Boysun t. Darband q.), *Ko'lchak*, *Ko'lak* (Boysun t. Machay q.), *Zaynaning ko'li* (Dashtig'oz q.), *Kampirko'l*, *Konbeshbuloq*, *Ravshan*, *Sariqiya*, *Xomkon* (Boysun t.) va hakazo. Bu gidronimik indikator umumiy oltoy tillari uchun mushtarak, kelib chiqishiga ko'ra esa eng qadimiy bo'lib, turkiy tillarda bir qancha fonetik variantlarda ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida V.Vafoyev *ko'l* so'zi haqida e'lon qilgan maqolasida "ko'l" so'zi VII-VIII asrlarda "daryo" ma'nosida, X-XI asrlarga kelib, faqat oqmaydigan suv obyekti bilan bog'liq qo'llanilgan¹¹³, - deb ta'kidlaydi. S.Qorayev esa ko'l quruqlikdagi chuquqliklarni to'ldiruvchi suv hovuzi ekanini ta'kidlaydi¹¹⁴.

¹¹² Qorayev.S. O'sha asar. 63-b.

¹¹³ Бафоев Б. "Кўл" сўзининг маънолари ва тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – № 2. Б.18.

¹¹⁴ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006. – Б. 196.

Qoq indikator. Qoq tabiiy suv obyekti hisoblanadi. Qor, yomg‘ir suvlaridan taqir, qattiq chuqur yerga yig‘ilgan suv bo‘lib, undan ko‘proq dasht hayvonlari, chorva mollari foydalanadi. Mahmud Qoshg‘ariy qoqni “chuqurlik, chuqur joy”¹¹⁵ deb izohlaydi. Qoq indikatorli gidronimlar Boysun tumanida ham uchraydi, lekin ularning soni nisbatan kam. *Boyg‘aro* (Boysun t. Pulxokim q.), *Shodiboy qoqi* (Boysun t.)

Quduq indikator. Suv olish maqsadida qazilgan tor va teran chuqurlik. Qadimgi turkiy tilda hambu atama shunday ma‘noni anglatgan. Bu so‘zning *quyug‘*, *quzuq*, *qudug‘* shakllari mavjud bo‘lgan. Keyinchalik *quduq* shaklini olgan va shu shakl hozirgi o‘zbek adabiy tiliga yetib kelgan. Boysun tuman hududida *Adiriko‘rquduq* (Boysun t. Panjob q.), *Galaquduq* (Sayrob q.), *Oyinniquduq* (Sho‘rob q.), *Soriqquduq* (Machay q.), *Quduqi Asad*, *Quduqi Cho‘bin*, *Quduqi Ganda*, *Quduqi Zoir*, *Quduqi Mamayusuf*, *Quduqi Mardon*, *Quduqcha* (Boysun t. Sayrob q.), *Tutli quduq//Tuliquduq* (Chilonzor q.) nomli quduqlar mavjud.

Soy indikator. Ikki adir yoki tog‘ oralig‘idagi pastlik joy, suv yo‘li. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” soy (say) so‘zining tub ildizi “toshloq tekislik” ma‘nosini anglatgan va hozirgi ma‘nosi keyin yuzaga kelgan, deb izoh beriladi. Mahmud Qoshg‘ariy esa “say – qora toshli yer” deb izohlagan. Fin lingvisti Gustav Ramsted *say* so‘zini mo‘g‘ul tilidagi *toshlidaryo*, *daryo o‘zani* ma‘nolarini anglatgan “sayir, sajir” so‘zlari bilan bog‘laydi. Ayrim manbalarda *soy* so‘zining *sayram* shakli ham bor degan izohlar keltiriladi. Mahmud Qoshg‘ariy “sayram suv” so‘ziga “to‘piqdan past oqadigan suv” deb izoh bergan. “Turkiy tillar etimologik lug‘ati”ga ko‘ra tualiklar tilida daryo o‘zanida shag‘al bilan qoplangan joylar sayiram so‘zi bilan ifodalanadi. Tilimizda faol ishlatiladigan chuqur emas mazmunidagi “sayoz” so‘zining tarkibida ham “soy” so‘zi bor. Demak *soy* va *sayram* so‘zlari bir xil ma‘noga ega. Boysun tuman gidronimiyasida ham bu atama keng qo‘llanadi va barchasida *toshli*, *suv sayoz oqadigan joy* ma‘nosini anglatadi. Masalan: *Abdujabbor soy*, *Anbarsoy* (Darband q.), *Arrasangsoy*, *Archako‘mdi* (Boysun t.), *Archiog‘aboy* (Sayrob q.), *Aylangarsoy*, *Anjarasoy*, *So‘zan*, *Selga*,

¹¹⁵ Махмуд Қошғарий. Девони лугатит тудк. – Тошкент: Фан, 1960. – Т. I. – Б. 180.

Xukparida, Chashmazor, Chingsoy, Chindon, Chosh, Shotutsoy, Shovvasoy, Qamishlov, Qayroqsoy, Qayrog'ochsoy, Qag'ni, Qoranqo'l, Qo'g'alisoy, Qo'rg'ondara, Qo'rg'onak, Qizilovulsoy, Quvluqsoy, Urug'li, Uzunsoy, Uzundara, Uzunquduq, Usmonsoy, Sirlisoy, Toshko'priksoy, Zarangsoy, O'rtano'g'ay, O'rmoncha, (Boysun t.), Bodomchali (Sayrob q.), Bozorsoy, MurdiSohib (Darband q.), Bo'xcha parida, Jariqning soyi, Sangoba, Soyidaroz, Soyibostirma, Souisangloq//Sangloqsoy, Soyito'qsabo, Soyi Sulaymon, Shamanisoy, Sharshara, Sho'raksoy, Sho'rtangsoy, Xachchagi (Sayrob q.), Darasoy, Parax, Pulxokimsoy, Ro'daqo'l (Boysun t.), Donimardkush, Danisesoy, Devkamar, Panjobsoy (Sayrob q.), Dehmalik, Gumatak, Maburli (Boysun t.), Gazak, Noviob, Og'zikatta, Soyi Kalon, SoyiObdir (Panjob q.), Gandasoy, Kepakdara, Martkush, Navdaksoy, Parchsoy (Sayrob q.), Gugurtsoy, Hangaronsoy, Jilko'priksoy, Inkabodsoy, Irg'ayli, Kelkengsoy, Omborsoy, Omonxona (Boysun t.), Hazarmish, Oqsoy, Cho'yonsoy (Sho'rob q.), Julga, Jo'yak, Jaqandi (Boysun t.), Jinjakli soy, Og'zikengsoy, Paxtalisoy, Xachchasoy, Sho'raksoy, Sho'rbuloqsoy (Xo'jabulg'on q.), Ichaksoy, Narigisoy, Olchasoy, Oxuno'ldisoy, O'riklisoy (Machay q.), Kandiklisoy, Ko'ksoy, Oqsoy, Otchoparsoy (Pulxokim q.), Ko'kkamar, Sebaksoy (Omonxona q.), G'arovlisoy, G'armalisoy, G'ishakli soy, Takasho'r (Chilonzor q.). To'plangan gidronimlar ichida soy indikatorini bilan bog'liq nomlar eng salmoqli hisoblanadi, ularning soni 100 dan ortiq.

Hovuz indikatorini. Suv saqlash uchun xizmat qiladigan maxsus qazilgan chuqurlik, suv ombori. S.Qorayev ham bu indikatorini "kichik suv ombori" deb ataydi. Respublikamiz hayotida qadimdan bu obyektlarning ahamiyati yuqori bo'lgan. Buxoroda 300 dan ortiq hovuzlar bo'lganligi XIX asr hujjatlarida qayd qilingan. XX asrda esa sanitariya talablari sababi bilan aksar hovuzlar quritilib, o'rniga binolar qurilgan. Boysun tumani gidronimiyasida bu atama muhim ahamiyatga ega. Hudud aholisining har bir uyida hovuz mavjud bo'lib, ichimlik suvi saqlash uchun qurilgan. Masalan: *Hovziqallaj* (Darband q.), *Qoqisunchali* (Sayrob), *Hovzihomih* (Darband q.), *Hovzi Qobul* (Darband q.), *Hovzi Kavsar* (Darband q.). Tadqiqot ishimizda 14 ta indikator asosida 300 ga yaqin Boysun

tuman gidronimlari to'plangan va ularning ko'pchiligi tahlil qilingan bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: *Arna* indikatoriga oid 3ta, *Ariq* 25ta, *Band* 2ta, *Buloq* 93ta, *Botqoq* 2ta, *Daryo* 5ta, *Jilg'a* 1ta, *Irmoq* 2ta, *Jorma* 1ta, *Ko'l* 11ta, *Qoq* 2ta, *Qudug* 12ta, *Soy* 123ta, *Hovuz* 6ta.

2.2. Boysun tumani gidronimlarining leksik-semantik tahlili

Hozirgi o'zbek adabiy tili, xalq shevalariga xos gidronimik ko'rsatkichlarni to'plash, ularni ma'lum bir sistema asosida leksik-semantik, etimologik xususiyatlarini ochib berish o'zbek tilshunosligining asosiy vazifalaridan biridir. Bunda mavjud materiallarni qiyosiy metod asosida areal tilshunoslik nuqtai nazaridan sinxron va diaxron asosda o'rganish gidronimlar tadqiqida dastlabki va muhim bosqich hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida gidronimlarning leksik-semantik tasnifi borasida N.Oxunov, N.Begaliyevlar samarali tadqiqotlar olib borishgan. Ularning tadqiqotlarida gidronimlarning barcha turlari to'liq qamrab olinmagan va mansab yoki unvon, shuningdek, ijtimoiy guruhlar nomi bilan atalgan gidronimlar tahlilga tortilmagan. N.Begaliyev *tarixiy gidronimlar* terminini izohlar ekan, ularni quyidagi tiplarga ajratadi:

a) qadimiy manbalarda qayd qilinib, o'zida tarixiy voqealar haqida xabar tashuvchi, sanasi taxminiy bo'lgan gidronimlar: Nami, Politimet, Varaqsar, Ras-at-Tok, Bulung'ur singari;

b) tarixi aniq bo'lgan, qurilgan yili, nomlanish motivatsiyasi ma'lum nomlar kommemorativ (grekcha-"eslatish" so'zidan) nomlar: "Birinchi May tog'ani"¹¹⁶.

Shuningdek, N.Begaliyev neogidronimlarni, ya'ni yangi suv obyekti nomlarini ham gidronimlarning leksik-semantik tasnifi doirasida tadqiq etadi. N.Uluqov esa bu yondashuvni leksik-semantik tasnif izchilligi va mantiqiylikiga putur yetkazgan deb baholaydi va o'z tadqiqotida Farg'ona vodiysi gidronimlarining nomlanish motivi va lug'aviy-ma'noviy xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'ladi:

¹¹⁶ Begaliyev N. O'sha dissertatsiya. 97-b.

I.Suvga xos tabiiy va obyektga xos tabiiy-geografik belgi-xususiyatlarasosida nomlangan suv obyektini nomlari.

II.Tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiyvaboshqa omillarasosida nomlangan suv obyektini nomlari.

Yuqoridagi tasnif asosida tadqiqotchi gidronimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlariga oid mukammal tahlilni bergan va bu tahlilda gidronimlarning barcha xususiyatlari qamrab olingan.

Boysun tuman gidronimiyasini tahlil qilish asosida tumanning Machay, Darband, Sho'rob, Sayrob, Xo'jabulg'on, Panjob,Chilonzor, Pulxokim, Pudina, Omonxona,Sariqamish, Dashtig'oz kabi hududlari qamrab olindi va gidronimik ko'rsatkichlar sirasiga quyidagi lug'aviy birliklar kirishi aniqlandi: ariq, anhor, ama, band, to'g'on, damba, botqoq, buloq, chashma, daryo, jilg'a, jorma // yorma, kechuv, ko'l, oydin, olish, selxona, soy, selga, kanal,qoq, quduq // quyi, hovuz, quloq, suvlot, sharsharak, chalchiq va boshqalar. Boysun tuman mikrotoponimlari tadqiqi bilan shug'ullangan olim X.Xolmo'minov ushbu hudud gidronimlarga juda boyligini ta'kidlaydi va bir qancha daryo nomlari: Machay daryosi, Gummatlak daryosi, Qo'rg'oncha daryosi, Allachopon daryosi, Qayroq daryosi, Panjob daryosi va b. Boysun mikrotoponimlarini olim quyidagi nominativ ko'rsatkichlarga ko'ra ajralib turishini ta'kidlaydi:

1. Mikrotoponim uning o'tmishda ma'lum shaxsga tegishli bo'lganligini bildiradi: Tojikariq, Halimabuloq, Bibinorbuloq, Fotimabuloq, Qultoyning qudug'i, Ashurxonning qudug'i, Yo'ldoshbuloq, Ismatbobo hovuzi, Xoliyorbobo hovuzi, Sangbobo qoqi, Bibichalar qoqi, Oydon qoqi va b.

2. Mikrotoponim shaxsning alohida ijtimoiy guruhlarga mansubligini bildiradi: Boyto'p ariq, Oqsoqolariq, Burqut arig'i, Kalquduq, Xoki Safed arig'i.

3. Obyektini tashqi tomondan tavsiflaydi: Bo'zariq, Qizilariq, Egriariq, Qizilariq, Egriariq, Qizilhovuz, Oqbuloq, Tutliquduq, Qizilqoq va b.

4. Mikrotoponim suvning ta'm sifatini tavsiflaydi: Sho'rariq, Sho'rsoy, Chuchukquduq, Sho'rquduq, Tolliqoq va b. Olim mikrogidronimlar tarkibiga

ko'prik nomlarini ham kiritadi: Darband ko'prigi, Mulla To'ra ko'prigi, Jom ko'prigi, Tillakamar ko'prigi¹¹⁷

Mazkur gidronimik ko'rsatkichlar o'ziga xos tarixiy-etimologik manba va lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarga ega. Shu bois to'plangan gidronimlarning indikatorlarini tekshirib toifalash, leksik-semantik tahlil qilish, gidronimlarning derivatsion modellarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'yladik. Ushbu bo'limda etnonim, antroponim, zoonim, fitonimlardan hosil bo'lgan gidronimlar, shuningdek keyingi bo'limlarda obyektning tabiiy-geografik belgilari asosida paydo bo'lgan gidronimlar tahlil qilinadi.

Suv obyektlarining nomlanish tamoyillari va motivlari turli xil dalillarga asoslanadi. Mazkur dalillar aniqlovchi (atribut) xarakterda bo'lib, o'zi ifodalayotgan suv obyektini boshqa shu xildagi obyektidan farqlash ehtiyoji natijasida vujudga keladi¹¹⁸.

Gidronimlarning nomlanishida shu obyektning joylashish o'ri, kishilarning qanday etnik guruhga mansubligi, obyekt atrofidagi o'simliklar va hayvonot dunyosi, gidronimning bunyod etilishida rahbarlik qilgan hamda bunyod etgan shaxs, shuningdek gidronim hududida yuz bergan hodisa ishtirokchisi bo'lgan shaxs nomlari nomlanish motivi vazifasini bajaradi.

Boysun tuman gidronimlari tarkibida **etnogidronimlar**, ya'ni ma'lum urug' va qavm nomlari bilan ataladigan gidronimlar ham uchraydi. Ushbu gidronimlarning urug' va qavm nomlari bilan atalishining o'ziga xos sabablari mavjud. Birinchidan, etnogidronimlar ushbu suv obyektiga atrofida yashagan yoki yashayotgan xalqlarni bildiradi. Ikkinchidan, suv obyektining paydo bo'lishida suv qavm yoki urug' vakillarining ishtiroki, uchinchidan, suv obyektida boshqa millatlarning ishtirok etishini bildiradi. Boysun tuman gidronimlari tarkibida o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirmaydigani ham mavjud. Masalan, *Koreystepa* arig'i (Pulxokim q.). Gidronim bunday atalishiga hudud aholisi ko'zlari kichik, koreyslarga o'xshash ko'rinishda bo'lgani uchun shunday nomlangan. Hududda

¹¹⁷ Холмуминов Х. Микротопонимия Байсуноского района и его окрестностей. АКД – Ташкент, 1993. – 10 с.

¹¹⁸ Улюгов.Н. О'sha asar. 86-b.

koreys millati vakillari ishtiroki yo'q. Gidronimlarning nomlanishida kishilarning tashqi ko'rinishi asos bo'lgan. *O'rtano'g'ay* (Boysun t.), *Qipchoqsoy* (Chilonzor q.), *O'rsoy*, *Afg'on shahid arig'i* (Pulxokim q.), *Oyinniquduq* (Sho'rob q.), *Urug'lisoy* (Boysun t.) *Toqchibuloq* (Boysun t. Panjob q.). Ushbu gidronimlar nomlanishida suv obyektlari bo'yida ma'lum urug' vakillari ishtiroki asos bo'lgan. Masalan, *Oyinniquduq* atamasi quduq bo'yida o'zbeklarning oyinni urug'i vakillari istiqomat qilishi bilan bog'liq. *Qipchoqsoy* – urug' nomi bilan bog'liq soy nomi. Mahalliy aholi *qapchiq* so'zi bilan bog'lab izohlaydi. Bir odam soy bo'yidan qapchiq topib olgani uchun shunday atashgan.

Boysun tumani gidronimlari tarkibida antropogidronimlar ham mavjud. **Antropogidronimlar** kishi nomi bilan bog'liq bo'lgan gidronimlar hisoblanadi. V.A.Nikonov: "Kishilarning mashhur insonlarning nomlarining geografik atamalarga aylanishi bu – onomastikada keng tarqalgan lingvistik hodisalardan biri"¹¹⁹ deb ko'rsatadi. Kishilarning suv obyekti bilan munosabati: unga egaligi, barpo etganligi kabi dalillar asosida motivlangan, atalgan suv obyektlari *antropogidronimlar* deyiladi¹²⁰. Bunday nomlarni Z. Do'simov *antronomik tip* termini ostida tahlil qiladi¹²¹.

Boysun tumanidagi antropogidronimlarning yuzaga kelishida suv obyektlarining ma'lum kishilar tomonidan bunyod etilishi, kishilar uchun xizmat qilishi va bevosita inson hayoti bilan bog'liqligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Antropogidronimlar *antroponim+gidronim* tipida shakllangan. Bunda antroponim o'zi nomlayotgan suv obyektining farqlovchi, boshqa suv obyektlaridan ajratuvchi *lisoniy aniqlovchi* – *atribut* vazifasini bajaradi. Bunda shaxs va obyekt munosabati muhim o'rin tutadi.

Antropogidronimlar Boysun tumani gidronimlari doirasida salmoqli o'rin tutadi. Boysun tumani antropogidronimlarini qanday suv obyekti nomini bildirishiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

¹¹⁹ Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С. 30.

¹²⁰ Улуқов.Н. О'sha asar. 86-b.

¹²¹ Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 94-97.

1. **Kishi nomlari bilan atalgan ariq nomlari:** *Jo'yi Yusuf* (Boysun t. Darbandq.), *Ortiqboy arig'i* (Boysun t. Machay q.), *Shaymatariq* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Toirariq//Tohiariq* (Boysun t. Sayrob q. 1890-yilda Tohir ismli shaxs tomonidan 6000 metr uzunlikda qazilgan ariq) kabi.

2. **Kishi nomlari bilan atalgan buloq nomlari:** *Do'stboy buloq*, *Hazrati Eshon Bobo*, *Oqboy buloq*, *Shoyimbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Hasani boli buloq*, *Chashmi Boyhoji*, *Chashmi Abduqodir*, *Chashmi Valiboy*, *Chashmi Halima*, *Chashmi Shokir* (Boysun t. Sayrob q.), *Chashmi Qosim* (Boysun t. Panjob q.), *Mirzoshoh* (Boysun t. Darband q.) *Suzundiki Mo'min* (Boysun t. Sayrob q.)

3. **Kishi nomlari bilan atalgan hovuz nomlari:** *Hovzi Qobul*, *Hovzi Rahmat* (Boysun t. Darband q.)

4. **Kishi nomlari bilan atalgan soy nomlari:** *Abdujabborsoy* (Boysun t. Darband q.), *Archi Og'aboy* (Boysun t.), *Murdi Sohob* (Boysun t. Darband q.), *Oxuno'ldisoy* (Boysun t. Machay q.), *Soyi Obdir* (Panjob q.), *Soyisulaymon* (Boysun t. Darband q.), *Shamanisoy* (Boysun t. Sayrob q.), *Haydarsoy* (Boysun t. Pulxokim q.) kabi.

5. **Kishi nomlari bilan atalgan quduq nomlari:** *Quduqi Asad* (Boysun t. Sayrob q. 120 yillar oldin qazilgan, hozirda mavjud), *Quduqi Mardon*, *Quduqi Zoir*, *Quduqi Mamayusuf* (Boysun tumani, Sayrob q.) kabi.

6. **Kishi nomlari bilan atalgan ko'l nomlari:** *Ravshan ko'l* (Boysun t.), *Zaynaning ko'li* (Boysun t. Dashtig'oz q. Ushbu ko'l hozirda mavjud emas)

Boysun tuman antropogidronimlarining atalishi asosiga ko'ra ham guruhlash mumkin:

1) **bevosita kishi ismlaridan hosil bo'lgan gidronimlar:** *Abdujabborsoy* (Boysun t. Darband q.), *Ortiqboy arig'i* (Boysun t. Machay q.), *Shaymatariq* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.).

2) **tarkibida "ota", "buva", "bobo", "ona" so'zlari ishtirok etgan gidronimlar:** *Hazrat Eshon bobo bulog'i* (Boysun t. Pulxokim q.), *Xo'ja Qo'chqor Ota bulog'i* (Boysun t. Padang q.), *Kengota suv ombori*, *Oqota bulog'i* (Boysun t.)

3)shaxsning unvoni, mansabi, tabaqasi ishtirok etgan gidronimlar: *Chashmi Boyhoji bulog'i, Xo'ja Qo'chqor ota bulog'i, Xo'jachakchakor bulog'i, Xo'jamayxona bulog'i, Hazrati Eshon bobo bulog'i, Xo'jabo'lgansoy, Soyito'qsabo* (Boysun tumani) kabi.

Boysun tumani antropogidronimlari orasida kishi vafoti bilan bogliq bo'lganlari ham mavjud: *Murdi Sohib soyi* (Boysun t.Darband q.), *Oxuno'ldisoy* (Boysun t. Machay q). Shuningdek, Boysun tuman hududi antropogidronimlarini tahlil qilish asnosida shu narsa ayonlashadiki, eng ko'p antropogidronimlar Sayrob qishlog'i hududiga to'g'ri keladi va bu nomlanish qishloqning mashhur kishilari hayoti bilan bog'liq.

N.Uluqovning fikricha antropogidronimlar boshqa kategoriyadagi so'zlardan yasalgan gidronimlarga nisbatan turg'un emas¹²². Shuning uchun ularni to'plash, nafaqat lisoniy, balki tarixiy, geografik jihatdan ham tadqiq etish muhim deb hisoblaymiz.

Topogidronimlar. Suv obyektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari topogidronimlar hisoblanadi¹²³. Demak, joy nomlari bilan bigliq bo'lgan gidronimlar topogidronimlar hisoblanadi.

Boysun tumani topogidronimlarining yasalishida quyidagi tiplarni uchratishimiz mumkin: 1.Toponim+buloq. *Omonxona bulog'i*, (Boysun t. Omonxona q.) *Pudinabuloq* (Boysun t. Pudina q.) 2.Toponim+soy. *Inkabodsoy* (Boysun t. Inkabod q.), *Otchoparsoy* (Boysunt. Pulxokim q.), *Panjobsoy* (Boysunt. Sayrob q.), *Pulxokimsoy* (Boysun t.) 4. Toponim+ariq. *Mechitli arig'i, Koreys tepa arig'i* (Boysun t. Pulxokim q) 5. Toponim+ko'l. *Xomkon ko'l* (Boysun t.) kabi.

Agiogidronimlar. Agiogidronimlar termini grekcha agio – “muqaddas, ilohiy” va gidronim – “suv obyektini nomi” ma'noli qismlaridan tarkib topgan. Demak, agiogidronimlar – diniy e'tiqod va tushunchalar, xalq urf-odatlar va marosimlari asosida muqaddas, ilohiy deb qaralgan narsa, voqea-hodisalar, joy bilan atalgan suv obyektini nomlaridir. Masalan, *Xo'jamayxona bulog'i*. (Boysun t.

¹²² Uluqov.N. O'sha asar. 90-b.

¹²³ Uluqov.N. O'sha asar. 90-b.

Darband q.), *Omonxona bulog'i* (Boysun t. Omonxona q.), *Xo'jaqo'chqor ota bulog'i* (Boysun t. Padang q), *Hazrat Eshon bobo bulog'i* (Boysun t. Pulxokim q.) kabi.

Turli davrlarda davlat tuzilishi, mansab, unvonlar va turli toifa, guruh va tabaqalarni ifodalovchi *xon, amir, qozi, noib, ponsod, bakovul, boy, bek, xo'ja, shayx* kabi so'zlar asosida yaratilgan joy nomlari O'zbekiston gidronimiyasida juda ko'p¹²⁴. Boysun tuman gidronimiyasida ham yuqorida keltirilgan gidronimlar *agiogidronimlar* hisoblanadi. *Xo'jamayxona* (Boysun t. Darband q.). Rivoyatga ko'ra, shu yerda tabiiy ravishda yuzaga kelgan kamarga har xil tarixiy sabablarga ko'ra bir guruh xo'ja urug'iga mansub kishilar g'oyib bo'lgan. Keyinchalik ularning nomiga bu yerdan qabr ko'tarilgan va qabr yonidagi kamardan qishin-yozin bir xil me'yordagi suv otilib chiqadi. Suvdagi baliqlarga aholi teginmaydi. Buyuk sarkarda Amir Temur Xo'jamayxonaotani ziyorat qilganliklari haqida ma'lumotlar bor. *Xo'jaqochqorota bulog'i* (Boysun t. Padang q) ham ana shunday ilohiy deb qaralgan joy nomlaridan biridir. Turli hududlardan farzand so'rab borgan kishilar buloq suvida yuvilib, bu muqaddas joyni ziyorat qilganlaridan so'ng farzandli bo'lishgani, o'g'il farzand so'raganlar uch kun ostonasini supurib ziyorat qilganlaridan so'ng o'g'il farzandli bo'lishganliklari odamlar orasida haqiqatga aylanib bormoqda.

Xo'ja (f. – xo'jayin, sohib) – musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan imtiyozli tabaqa. Xo'ja tor ma'noda Yaqin va O'rta Sharq xalqlari o'rtasidagi sayidlardan keyin turgan feodal ijtimoiy tabaqa. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalardastlab kito'rt xalifa Abu Bakr, Umar, Usmon va Alidan (Alining Fotimadan boshqa xotinlaridan) tarqalgan avlodlar deyilsa, oshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari deb ko'rsatiladi. Xo'jalar islomda oqsuyaklar tabaqasi sifatida sayidlardan keyin turib, ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganlar¹²⁵. Keyinchalik ba'zi hududlarda xo'ja so'zining

¹²⁴ Qorayev.S. Toponimika. – Toshkent, 1970; Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? – Toshkent: O'zbekiston. 1978.

¹²⁵ Islam. Sarvaehnik. – Toshkent, 1978. – B. 179.

ijtimoiy-siyosiy ma'nosi unutilgach, etnik atamaga aylangan, ma'lum kishilar guruhining nomi bo'lib qolgan¹²⁶.

Boysun tumanidagi bir qancha gidronimlar ham xo'ja so'zi asosida vujudga kelgan. Mazkur gidronimlar xo'jalar yashaydigan hududga mansub yoki ular tomonidan bunyod etilgan obyektlarni ifodalaydi. *Xo'ja* tarkibli gidronimlardagi *xo'ja termini* o'zi nomlashda qatnashayotgan suv obyektini biror diniy shaxs, ya'ni xo'ja tabaqasiga mansub kishi bilan bog'liqligini ko'rsatsa, ba'zilar suv obyektining ular tomonidan bunyod etilganligini ifodalaydi.

Fitogidronimlar. Fitogidronimlar daraxtlar, umuman o'simliklar dunyosining suv obyektlariga bog'liqligi asosida yuzaga kelgan gidronimlar turi hisoblanadi. O'zbek tilida fitogidronimlarning yuzaga kelishi suv obyektlari hududida o'simlik xillarining bunyod bo'lganligi natijasidir. Barcha zamonlardan ma'lumki, gidronimlar va o'simliklar dunyosini bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi, suv bor ekan, ular ham mavjud. Fitogidronim so'zi fito – o'simlik + gidro – suv + onoma – nom so'zlaridan kelib chiqqan. Fitogidronimlar fitotoponimlarning bir turi hisoblanadi. N.Oxunov fitotoponimlar borasida tadqiqot olib borgan. O'simlik va daraxt nomi bilan atalgan Xorazm viloyatiga xos nomlarni Z.Do'simov fitotoponimlar termini ostida tahlil qilgan¹²⁷.

Boysun tuman gidronimlari tizimida ko'plab fitogidronimlar mavjud. *Archako'mdi soy* (Machay q.), *Anorbuloq* (Sayrob q.), *Bodomchali soy* (Sayrob q.), *Jiydabuloq* (Machay q.), *Jinjaklisoy* (Xo'jabulg'on q.), *Jo'yichinor* (Sayrob q.), *Olmalibuloq* (Sho'rob q.), *Olchabuloq* (Omonxona q.), *Olchasoy* (Machay q.), *Paxtalisoy* (Xo'jabulg'on q.), *Piyozlibuloq* (Pulxokim q.), *Pudinabuloq* (Machay q.), *Chashmehulul* (Sayrob q.), *Chinorbuloq* (Sayrob q.), *Chinorariq* (Pulxokim q.), *Chilonbuloq*, *Shotutsoy* (Boysun t.), *Qamishlovsoy* (Boysun t.), *Qayrag'ochsoy* (Boysun t.), *Qo'g'alisoy* (Boysun t.), *Tutisiyoh* (Sayrob q.), *Zarangbuloq*, *Irg'aylisoy* (Boysun q.), *O'riklisoy* (Machay q.), *G'armalisoy*, *G'arovlisoy*, *G'ishaklisoy* (Boysun t. Chilonzor q.) kabi.

¹²⁶ Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati – Toshkent, 1988. – B. 197.

¹²⁷ Do'simov Z. O'sha asar. 99-100-b.

Boysun tumani gidronimlarini qanday daraxt yoki o'simlik nomi bilan atalishiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) manzarali daraxt nomlari bilan atalgan suv obyektlari: *Archako'mdisoy* (Machay q.), *Jo'yichinor* (Sayrob q.), *Chinorbuloq* (Sayrob q.), *Chinorariq* (Pulxokim q.), *Qayrag'ochsoy* (Boysun t.), *Zarangbuloq* (Boysun t.) kabi.

2) mevali daraxt nomlari bilan atalgan suv obyektlari: *Anorbuloq* (Sayrob q.), *Bodomchali* (Sayrob q.), *Jiydabuloq* (Machay q.), *Olmalibuloq* (Sho'rob q.), *Olchabuloq* (Omonxona q.), *Olchasoy* (Machay q.), *Chashmehulul* (Sayrob q.), *Chilonbuloq* (Boysun t.) Chilon jiydasi o'sadigan joydagi buloq, *Shotutsoy* (Boysun t.), *Tutisiyoh* (Sayrob q.), *O'rikli soy* (Machay q.). Boysun tuman fitogidronimlari hududlar doirasida bir-birining nomini takrorlaydiganlari ko'p. Masalan, *Jiydabuloq* gidronimi Boysun tumanining Machay, Sho'rob, Pulxokim qishloqlarida uchraydi va hammasida jiyda daraxti bor joydagi suv obyekti ma'nosini ifodalaydi. *Olchabuloq* gidronimida ham xuddi shu holat kuzatiladi.

3) donli o'simliklar, poliz ekinlari va sabzavot nomlari bilan atalgan suv obyektlari: *Piyozlibuloq*, *Arpalisoy* (Boysun t. Pulxokim q.) Pulxokim qishlog'i tog'larida mahalliy aholi erta bahorda manzil aylaydigan buloq atrofida piyoz o'simligi ko'p bo'lgan ekan va aholi undan iste'mol uchun foydalanishgani uchun hududdagi buloqni shunday nom bilan ataganlar.

4) o't nomlari bilan atalgan suv obyektlari: *Qo'g'alisoy* (Boysun t.), *qog'a* – poyasi qalin, ikki yoki uch metr uzunlikda o'sadigan ko'p yillik o'simlik. *Qo'g'a* odatda yasash, qovun solib osib qo'yish uchun ishlatiladi. *Jinjakli soy* (Xo'jabulg'on q.), *Paxtalisoy* (Xo'jabulg'on q.), *Pudinabuloq* (Machay q.). *Pudina* xalq tilida, adabiy tilda yalpiz. *Qamishlov*, *Irg'aylisoy* (Boysun t) (Yog'ochi qattiq, po'sti qizg'ish buta, *G'armalisoy*, *G'arovlisoy* (Chilonzor q.), *G'ishaklisoy* (Chilonzor q.) *G'ishak* o'simligidan mahalliy aholi tilida sobav ya'ni paxta savalashda ishlatiladigan tayoqchalar tayyorlanadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan ham ko'rinib turibdiki, o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan gidronimlar – fitogidronimlar o'z mazmun-mohiyati,

etimologiyasi, shakllanish tarixi bilan o'zi mansub hududning tabiatini, o'simliklar dunyosini aks ettiradi. O'zbek tili fitogidronimlari doirasida mevali, manzarali daraxtlar, o'simliklar, o't nomlari bilan atalgan gidronimlar salmoqli o'rin tutadi, poliz ekinlari, sabzavot nomlari, donli o'simliklar nomlari bilan atalgan gidronimlar esa kam. Buning boisi mevali, manzarali daraxtlar ko'p yil yashaganligidir.

Zoogidronimlar. Hayvon nomlari bilan atalgan suv obyektlari nomlari zoogidronimlar hisoblanadi. Tadqiqotlardan ma'lumki, hayvon, parranda, jonzotlarning umumiy nomini ifodalovchi appelyativ leksik sathga mansub so'zlarni zoonim termini ostida tahlil qilish kuzatiladi¹²⁸. Atoqli otlar sirasiga va appelyativ leksikaga mansub zoonimlar D.Abdurahmonov, D.Bozorova, F.Ishoqov, A.Ishayev, S.Qorayev, B.Choriyev, B.Zaripovlar tomonidan o'rganilgan. Tahlillardan oydinlashadiki, gidronimlarning bu turning shakllanishiga uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, jonivorlar, qush va parrandalarning nomlarini ifodalovchi apelyativ so'zlar asos bo'ladi: *Qo'chqorbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Norbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.) gidronimi nor ya'ni tuyalar bilan bog'liq bo'lib, tog' bag'rlarida tuyalar o'tlab yuradigan hudud va o'sha hududdagi tuyalar suv ichadigan buloq ma'nosini anglatadi. *Morbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.). Morbuloq Pulxokim qishlog'i tog'larida joylashgan bo'lib, qishloq ahlining rivoyat qilishicha qadimda buloq boshini ilonlar egallab yotgan va ular shunchalik katta bo'lganligidan xalq orasida mor ilon, katta ilon degan nom olgan va shunga nisbat berilib buloq nomi shunday nomlangan. *Itbuloq* (Boysun t.) *Xukparida* (Boysun t.) *Xukparid*, ya'ni "Cho'chqa qulab tushib o'lgan soy" degan ma'noni anglatadi.

Tahlillardan ayonlashadiki, gidronimlarning lisoniy tadqiqi ular mansub bo'lgan hudud hayotini, tabiatini, hayvonot olamini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

¹²⁸ Yuldasheva D.M. O'zbek bolalar folklori tilida: Fil.fan.nomzodlik avtoref. – Toshkent, 2007. – B. 23.

2.3. Obyektning tabiiy-geografik belgilari asosida paydo bo'lgan gidronimlar

Boysun tuman gidronimlarini tabiiy-geografikbelgi-xususiyatlari asosida quyidagicha guruhlash mumkin:

Suvning tabiiy belgi-xususiyatlari asosida yuzaga kelgan gidronimlar:

- 1) Rang ifodalovchi komponentli gidronimlar;
- 2) Suvning maza-ta'mi bilan bog'liq gidronimlar;
- 3) Suvning hidi va harorati bilan bog'liq gidronimlar;
- 4) Suvning shifobaxshligiga nisbat berilgan gidronimlar;

Suv obyektining tabiiy-belgi xususiyatlari asosida yuzaga kelgan gidronimlar:

- 1) suv obyektining hajm xususiyati bilan bog'liq gidronimlar;
- 2) tashqi ko'rinish va shakliy tuzilish asosida nomlangan gidronimlar;
- 3) suv doim oqish-oqmasligiga nisbat berish asosida nomlangan suv obyektlari;

Suvning tabiiy belgi-xususiyatlari asosida yaratilgan gidronimlar

Tildagi har bir so'z o'zining ma'no mundarijasiga ega. *Suv* so'zining asosiy ma'nosi – “vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat tuzsiz, rangsiz, shaffof suyuqlik”¹²⁹. *Suv* leksemasi hozirgi o'zbek adabiy tilida *ko'z yoshi, ichimlik suvi, sel, soy, jilg'a, kanal, sharbat, mineral suv, ter, ko'lmak, jonlanish, so'lak, uyg'onish, zahm, yiring, spirtli ichimlik* kabi ma'nolarni ham anglatishi mumkin¹³⁰.

Suv so'zining gidronimik jihatdan o'ziga xos maza-ta'm, hid, harorat kabi belgi-xususiyatlarga ham ega. Suv obyektlarini nomlashda suvga xos ana shu belgi-xususiyatlar ham asos bo'lib xizmat qiladi.

I. Rang ifodalovchi komponentli gidronimlar. O'zbek tilida *suv* so'ziga rang bildiruvchi terminlarning qo'shiluvidan rang bilan bog'liq gidronimlar

¹²⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981. 11t. – B. 79.

¹³⁰ Sobirov A.O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 54-55.

hosil bo'lgan. *Suv* leksemasi bilan bog'liq bo'lgan bunday masalalar o'zbek tilining sug'orish leksikasi negizida X.Jabborov tomonidan o'rganilgan¹³¹.

Rang bilan bog'liq gidronimlar tarkibida *oq*, *ko'k*, *qizil*, *sariq* kabi rang ifodalovchi so'zlar qatnashadi. Boysun tumani gidronimlari tarkibida ham *oq* so'zi bilan bog'liq bo'lganlari mavjud: *Oqsoy* (Boysun t. Sho'rob q), *Oqsoy* (Boysun t. Pulxokim q.), *Oqsoy* (Boysun t.), *Oqota* (Boysun t.), *Oqbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.).

Oq so'zi lug'aviy jihatdan "qor, sut, paxta rangidagi" degan ma'noga ega¹³². N.G.Mallinskiy fikricha muzlik tagidan oqib chiqadigan suv *oqsuv* deyiladi. Tarkibidagi muz zarralari tufayli muzlik suvi oqish ko'rinadi. V.L.Vyatkin ham tog' daryolari *oqsuv* va *oqdaryo* deb atalishini ko'rsatadi¹³³. V.V.Bartold ko'rsatishicha, tabiiy o'zanda oqadigan suv *oqsuv* deb ataladi¹³⁴. Boysun tuman gidronimiyasida *oq* so'zi bilan bog'liq gidronimlarni ikki ma'noda izohlash mumkin: birinchidan suvning qor suvidan iborat toza va tiniq ekanligi hamda suv obyektidagi suvning domiy qurimasligi, ikkinchidan, yer tuzilishi bilan bog'liq, ya'ni suv obyektini hududining oppoq rangdagi tuz bilan qoplanganligi. Masalan, Boysun tumanining Pulxokim va Sho'rob qishloqlaridagi *Oqsoy* gidronimi suv obyektini atrofi juda katta hududda oq tuzlar bilan qoplanganligi uchun shunday nomlangan. Shuningdek boshqa bir hududdagi *Oqsoy* atamasi esa *suvi qurimaydigan soy*, qor suvlari doimiy oqib turadigan soy ma'nosini anglatadi. Shuningdek, Pulxokim qishlog'idagi *Oqbuloq* atamasi buloq suvining *doimiy qurimasligi*, *qor suvidan iboratligi* va *suvning toza, chuchuk* ekanligi uchun shunday nomlangan va *suvi oq – tiniq buloq* degan ma'noga ega.

Ko'k so'zi asosida shakllangan gidronimlar. **Ko'k** so'zi "Tiniq osmon rangidagi, moviy, zangori" degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi¹³⁵. Boysun tuman gidronimiyasida **ko'k** so'zi bilan bog'liq gidronimlar uchraydi: *Jo'yikabuti*

¹³¹ Jabborov X. O'zbek tilining sug'orish leksikasi. – Qarshi: Nasaf, 2004. – B. 38-40.

¹³² O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – B. 557.

¹³³ Vyatkin V.L. Material k istoricheskoy geografii Samarkandskogo vilayata. – Spravochnik knijki Samarkandskoy oblasti. 1902 g. V VII. – Samarkand, 1902.

¹³⁴ Bartold V.V. Sochineniya. – Moskva. 1963. – T.III. – C.316.

¹³⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. – B. 412.

(Boysun t. Sayrob q.), *Ko'kabuloq* (Boysun t. Darband q.), *Ko'kbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Ko'ksoy* (Boysun t. Pulxokim q.), *Ko'kkamarsoy* (Boysun t. Omonxona q.), *Chashmekabutak* (Boysun t. Sayrob q. buloq). Ushbu gidronimlarning nomlanishi suv obyektini hududining doimiy yam-yashil manzarali joy bo'lgani va suvning toza, tiniq, musaffo ekanligi asosida shunday nomlangan. *Ko'kkamarsoy* va *Ko'ksoy* gidronimlari esa suv obyektining tuproq qatlami ko'mko'k rangda bo'lganligi asosida nomlangan.

Sariq so'zi asosida shakllangan gidronimlar. Boysun tumanidagi *Sariqiya* (Boysun tumanidagi ko'1), *Sariqiya* (Boysun tumanidagi soy), *Soriqquduq* (Boysun tumani Machay qishlog'idagi quduq) kabi gidronimlar *sariq* so'zi asosida shakllangan. Ushbu gidronimlarning nomlanishida suv obyektini joylashgan hudud inobatga olingan. Sariq rang tuproqli hududdagi suv obyektini ma'nosini anglatadi.

Qizil so'zi bilan bog'liq gidronimlar. *Qizil* so'zi ishtirok etgan gidronimlar Boysun tumani hududida ham uchraydi. Asosan bunday tarkibli gidronimlar tuproq tuzilishi qatlami bilan bog'liq, ya'ni suv obyektini nomlanishida tuproqning rangi asos qilib olingan. *Chashmi surxok* (Boysun t. Sayrob q.), *Qizilbuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Qizilsoy* (Boysun t. Machay q.), *Qizilariq* (Boysun t. Sayrob q.), *Qizilbuloq* (Boysun t. Sayrob q.) kabi.

II. Suvning maza-ta'mi bilan bog'liq gidronimlar. *Shirin, achchiq, totli, sho'r, chuchuk* kabi so'zlar qo'shilishi natijasida suvning ma'za-ta'mini ifodalovchi gidronimlar yuzagakeladi. Boysun tuman gidronimiyasida ham bir qancha suv obyektlari suvning ma'za-ta'mi bilan bog'liq bo'lib, ularning yasallishida yuqoridagi kabi so'zlar uchraydi: *Labisho'r* (Boysun t. Darband q.), *Obisho'rdaryo* (Boysun t. Panjob q.), *Sho'rob* (Boysun t. Sho'rob q.), *Sho'robsoy* (Boysun t. Sayrob q.), *Sho'raksoy* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Sho'rtangsoy* (Boysun t. Sayrob q.), *Sho'rbuloqsoy* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Sho'rbuloq* (Boysun t. Panjob q.), *Takasho'r* (Boysun t. Chilonzor q.), *Shakarbuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Tollibuloq* (Boysun t. Pulxokim q.). Shuningdek, *Gandabuloq, Gandasoy, Quduqi ganda* (Boysun t. Sayrob q.) kabi suv obyektlari *ganda*

“yomon, yoqimsiz” so‘zi orqali yasalgan bo‘lib, sho‘r suvli gidronim ma‘nosini ifodalaydi.

O‘zbek tilida sho‘r so‘zi asosida shakllangan gidronimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi va ular asosan sho‘r so‘zining “tarkibida tuz moddasi ko‘p bo‘lgan” ma‘nosida yuzaga kelgan.

Shakarbuloq so‘zidagi *shakar* so‘zi shirin ma‘nosini anglatadi va “suvi shirin, yaxshi ta‘mli, ichimlik suvi sifatida foydalansa bo‘ladigan” suv obyektini ma‘nosida qo‘llanadi.

III. Suvning hidi va harorati bilan bog‘liq gidronimlar. *Sassiqbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Sovuqbuloq* (Boysun t.) Sassiqbuloq gidronimi suvning hidi asosida yuzaga kelgan. Suv iste‘molga yaroqsiz suv obyektini ma‘nosini anglatadi. Boysun tuman gidronimlari orasida *qaynar*, *issiq* tarkibli gidronimlar uchramaydi. Sovuq so‘zi bilan yasalmagan bo‘lsada deyarli barcha buloqlar suvi yozda muzdek haroratda bo‘ladi, qish kunlarida esa suvning harorati iliqlashadi.

IV. Suvning shifobaxshligiga nisbat berilgan gidronimlar. Ayrim suv obyektlarining, ko‘proq buloqlarning suvi mineralligi, shifobaxshligi bilan xarakterlanadi va ayrim buloqlar qanday kasallikka shifoligiga nisbat berish asosida nomlanadi: Boysun tumanida shifobaxsh buloqlar ko‘p. *Ko‘k‘yo‘talota* bulog‘i (Boysun t.). Boysun tumanidagi shifobaxsh buloqlarning ko‘pchiligi kasallikka nisbat berish orqali nomlanmagan, lekin shifobaxshlik xususiyati bilan mashhur. *Oqota* (Boysun t.). Tarkibida oltingugurt mavjud bo‘lgan ushbu buloq suvi oshqozon-ichak kasalliklarida davo hisoblanadi. *Obishifo* (Boysun t. Darband q.). Qo‘tir yara bilan kasallangan bemorlar bu buloq suvidan shifo topishadi. Dunyoga mashhur bo‘lib borayotgan *Omonxona* va *Xo‘jamayxona* bulog‘i suvlari ham shifobaxsh buloqlar sirasiga kiradi.

Suv obyektining tabiiy belgi-xususiyatlari asosida yaratilgan gidronimlar:

Suv obyektining hajm-xususiyati bilan bog‘liq gidronimlar. Bunday gidronimlar suv obyektining keng ma‘nodagi hajm-xususiyatini: katta-kichikligini, uzun-qisqaligini ifodalaydi, ularning tarkibida ana shu tushunchalarni ifodalovchi

so'zlar qo'llanadi: *Kattako'l* (Boysun t. Sho'rob q.), *Kattatomchi* (Boysun t. Sho'rob q.), *Kattag'urg'urak*, *Kichikg'urg'urak* (Boysun t. Qiyakamar q.), *Og'zikensoy* (Xo'jabulg'on q.), *Og'zikatta soy* (Boysun t. Panjob q.). Shuningdek, katta, ulug' ma'nosini beruvchi so'z bilan yasalgan *Soyikalon* (Boysun t.), hamda ingichka, tor soy ma'noli *Ichaksoy* (Boysun t. Machay q.) kabi gidronimlar ham mavjud.

Tashqi ko'rinishi va shakliy tuzilishiga nisbat berish asosida nomlangan suv obyektini nomlari: *Jo'yi qayirma* (Boysun t. Sayrob q.), *Qayqi ariq* (Boysun t. Pulxokim q.). Bu suv obyektlarining nomlanishida suv obyektining shakliy tuzilishi asos bo'lgan.

O'zanida suv doimiy oqish-oqmasligiga ko'ra nomlangan suv obyektlari. Suv obyektlarida suv doimiy bir me'yorda oqavermaydi. Ayrim suv obyektlarida bahorda, kuzda yog'ingarchilik ko'p vaqtda suv ko'p oqadi, boshqa paytlarda suv deyarli bo'lmaydi. Bu guruhga mansub gidronimlar ana shu xususiyatlarni e'tiborga olish asosida nomlangan suv obyektlari nomlaridir: *Quruqsoy* (Boysun t. Panjob q.), *Pitovtomchi* (Boysun t. Sho'rob q.), *Ko'rchashma* (Boysun t.)

Tahlillardan ko'rinadiki, o'zbek tili gidronimlarini leksik-semantik tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.4. Boysun tuman gidronimlarining yasalishi

Har qanday so'zning o'ziga xos tarkibi, morfologik tuzilishi va yasalish vositalari bo'ladi. Gidronimlar o'ziga xos spetsifik xarakterli strukturaga ega. Gidronimlar har qanday usulda yasalavermaydi, ularning yasalishida ma'lum sistema, qonuniyat mavjud bo'ladi. V.A.Nikonov: "Har qanday atamaning kelib chiqishini aniqlash uchun uni yakka, alohida holda o'rganish mumkin emas, ularni ma'lum bir atamalar sistemasida qarash kerak" - degan fikrni bildiradi¹³⁶.

Gidronimlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi. O'zbek tilshunosligida affiksatsiya usuli bilan so'z yasash eng mahsuldor usul hisoblanadi. Ammo toponimiya sohasida bu usul uncha samarali emas. O'zbek tilida affiksatsiya usuli

¹³⁶ Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2010. – С. 67.

bilan yasalgan toponimlar soni kam. Lekin shunday bo'lsada, o'zbek tilining toponimik sathida, jumladan, gidronimiyada affiksatsiya usulining o'z o'rni bor. Affiksatsiya usulida affikslar vositasida turli so'z turkumlariga mansub lug'aviy asoslardan sodda yasama gidronimlar hosil qilinadi.

O'zbek tilida so'z yasovchi affikslar ko'p, lekin ularning ayrimlarigina gidronimlar yasashda qo'llanadi. A.V.Superanskaya ta'kidlaganidek, toponimlar yasashda tildagi barcha vositalar ishtirok eta olmaydi¹³⁷. Gidronimlar yasashda qo'llanadigan affikslarni ayrim tadqiqotchilar *gidronimik affikslar* deb ataydilar.

O'zbek tili gidronimiyasi, jumladan, Boysun tuman gidronimiyasida quyidagi affikslar vositasida gidronimlar yasalishi kuzatiladi:

1.-li affiksi. Bu qo'shimcha faol qo'llanadigan qo'shimchalardan bo'lib, o'zbek tilida ot, sifatdosh, harakat nomidan egalik, mavjudlik, ortiqlik ma'nosidagi sifatlar yasaydi.

G.I.Donidzening ko'rsatishicha, -li affiksi atoqli va turdosh otlardan hoosil bo'lgangeografik nomlar tarkibida uchraydi¹³⁸.

-li affiksi sodda yasama gidronimlarda asosan egalik, mavjudlik ma'nolarida qo'llanadi. Bu affiks yordamida fitogidronimlar, etnogidronimlar, topogidronimlar hosil qilinadi.-li affiksi vositasida yasalgan gidronimlarning morfologik modeli *gidroasos + gidronimik affiks*, ya'ni *ot + -li affiksi*: *Maburli* (Boysun t. - soy), *Mechitli* (Boysun t. Pulxokim q. - ariq), *Kandikli* (Boysun t. Pulxokim q.- soy), *Irg'ayli* (Boysun t. - soy), *Bodomchali* (Boysun t. Sayrob q.- soy), *G'ishakli*, *G'armali* (Boysun t. Chilonzor q. - soy), *Urug'li* (Boysun t. - soy).

2. -ma affiksi. Bu affiks ham o'zbek tilida faol qo'llanadiga affikslardan hisoblanadi. Fe'l asosidan shaxs va narsaning harakat-holat bilan bog'liq turli belgisini anglatuvchi sifat yasaydi¹³⁹. Ushbu affiks fe'l asoslardan suv obykti va undagi suvning turli turli belgi-xususiyatini ifodalovchi gidronimlar yasashda qo'llanadi.

¹³⁷ Superanskaya A.V. Struktura imeni sobs tvemnogo. Filologiya i morfologiya. – Moskva: Nauka, 1969 – s 56.

¹³⁸ Donidze G.I. Ob affikalnoy slovo a tyurkskoy toponimii. – Onomastika Vostoka. – Moskva: Nauka, 1980. – c. 93.

¹³⁹ Begmatov E. Shimoli Xorazm toponimlarining yasalishi. O'zbek tili va adabiyoti. 1969. N5.

-ma affiksi yordamida yasalgan gidronimlarning tuzilish modeli *fe'l+-ma-* sifat ko'rinisida bo'ladi: *Izma* (Boysun t. Sariqamish q. – buloq), *Jorma* (Boysun t. Pulxokim q. – buloq). Boysun tumani gidronimlari tarkibida *-ma* affiksi bilan qo'shma tarkibli gidronimlar ham uchraydi: *Soyibostirma* (Boysun t. Sayrob q. – soy) Bostirmali soy degan ma'noni anglatadi. *Jo'yi qayirma* (Boysun t. Sayrob q. – ariq) qayrilgan, ya'ni suv yo'nalishi o'zgargan degan ma'noni anglatadi.

Kompozitsiya usuli bilan gidronimlar yasalishi. O'zbek tilida so'z yasashda eng ko'p qo'llanadigan usullardan biri bu kompozitsiya usulidir. Bu usul gidronimlar yasashda ham faol qo'llanadi. Kompozitsiya usuli bu – ikkiva undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi so'z yasash. Mazkur usul ilmiy manbalarda sintaktik-leksik usul, sintaktik usul, leksikalizatsiya usuli terminlari bilan talqin etiladi¹⁴⁰.

Kompozitsiya usuli bilan gidronim yasash deyilganida, ikki va undan ortiq asosni qo'shish asosida qo'shma tarkibli suv obyekti va inshooti nomlari yasalishi tushuniladi. Masalan, *Anorbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Oyinniquduq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Kattatomchi* (Sayrob q.), *Kampirko'l* (Boysun t.), *Teshiksoy* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Sassiqbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Sho'rsoy* (Boysun t. Sho'rob q.), *Shaymatariq* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.) kabi.

Boysun tumani gidronimlarining salmoqli qismini qo'shma tarkibli gidronimlar tashkil etadi. Bu gidronim yasashda eng salmoqli usul kompozitsiya usuli ekanligini ko'rsatadi. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, Boysun tumani hududi bo'yicha to'plangan 300dan ziyod gidronimlarning 200ga yaqini kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma gidronimlardir.

Boysun tumanidagi ba'zi gidronimlar avval so'z birikma holatida bo'lgan va keyinchalik til taraqqiyoti, gidronimik derivatsiya ta'sirida qo'shma tarkibli gidronim holatiga kelib qolgan: *sassiq buloq* (sifat + ot) – *Sassiqbuloq* kabi. Shunga o'xshash *Sovuqbuloq* (Boysun t.), *Qizilsoy* (Boysun t. Machay q.), *Uzunsoy*, *Uzunquduq* (Boysun t.), *Qizilbuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Qizilariq*

¹⁴⁰ O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1976. T I. – B. 32.

(Boysun t. Sayrob q.), *Sho'rsoy* (Boysun t.) kabi qo'shma tarkibli Boysun tumani gidronimlarida ham shunday holat kuzatilgan.

O'zbek tili gidronimiyasida, aynan Boysun tuman gidronimiyasida quyidagi tuzilish tipidagi so'z birikmalaridan kompozitsiya usulida qo'shma tarkibli gidronimlar yasalishi kuzatiladi:

Sifatlovchili (yoki bitishuv munosabatidagi) so'z birikmalaridan yuzaga kelgan qo'shma tarkibli gidronimlar: *Qo'g'alisoy* (Boysun t.), *Oqbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.).

Sifatlovchi + sifatlanmish aloqasidagi birikmalardan kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma tarkibli gidronimlar morfologik jihatdan quyidagi modellarda bo'ladi:

a) sifat+ot: *Qizilariq* (Boysun t. Sayrob q.), *Qizilbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Kattatomchi* (Boysun t. Sho'rob q.), *Uzunsoy* (Boysun t.), *Uzunquduq* (Boysun t.), *Teshiksoy* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Sho'rsoy* (Boysun t. Pulxokim q.), *Yolg'izbuloq* (Boysun t. Darband q.), *Qo'shchashma* (Boysun t. Machay q.) kabi.

b) ot+ot: *Zarangsoy* (Boysun t.), *Qayroqsoy* (Boysun t.), *Anorbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Qo'chqorbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Tababuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Toshbuloq* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Shakarbuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Chinorbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Pudinabuloq* (Boysun t. Machay q.), *Oynabuloq* (Boysun t. Machay q.) kabi.

d) son + ot: *Uchko'z* (Boysun t.), *Birmesh* (Boysun t.)

e) sifatdosh +ot: *Yonarbuloq* (Boysun t. Machay q.), *Aylanarsoy* (Boysun t.)

Boysun tuman gidronimiyasida kompozitsiya usuli asosida yasalgan suv obyektlari nomlari doirasida *sifat+ot*, *ot+ot* tarkibli sifatlovchi birikmalardan yasalgan qo'shma tarkibli gidronimlar ko'p uchraydi.

2.5. Boysun tuman gidronimlari hosil bo'lishida o'z va o'zlashma qatlam

Har bir aholi yashash hududining nomlanishi ushbu hududda yashovchi xalqning til xususiyatlari, kundalik mashg'uloti bilan uyg'un holda tarixdan shakllanib kelgan. O'zbekiston tarixida turli millat, elatlar yashab o'tgani sabab gidronimlarida ham turkiy, forsiy, so'g'diy, arabiy tillar fonetikasi aks etgan. Aholisi turkiy tilli bo'lgan hududlarda ham forsiy komponentli joy nomlarining uchrashi aholining boshqa tillar va uning vakillariga hurmat bilan qaraganidan, bag'rikenglik munosabatlaridan dalolat beradi.

O'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi.

O'zbek tili leksikasining boshqa tillardan kirgan qismi o'zlashgan qatlam hisoblanadi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, iboralar va so'z yasovchi qo'shichalar ham kirib keldi. Keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari singari tilimizga moslashib, ajralmas holatda o'rmasdi.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi: o'z qatlam, o'zlashma qatlam.

O'z qatlam. O'z qatlamga *umumturkiy* so'zlar va *o'zbekcha* so'zlar kiradi. *Umumturkiy* so'zlar barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan. Umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekcha so'zlar o'zbek tili sharoitida o'zbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari asosida yaratiladi. **IRG'AYLI** – Boysun tumanidagi soy nomi. *Irg'ay+li*, *Irg'ay* – yog'ochi qattiq, po'sti qizg'ish buta. Irg'ay o'sadigan joy - *Irg'ayzor*, xalq shevasida bu nom *Irg'ayli* deb ataladi. Ya'ni irg'ay o'sadigan soy. **ICHAKSOY** – Boysun tumani Machay qishlog'idagi soy. *Ichak+soy*, Soyning nisbatan uzunligi belgisi asosida nomlangan, yoki nisbatan

hajm-shakl belgisi (ingichka, tor) asosida atalgan joy. **KO'LAK** – Boysun tumanidagi ko'l (Machay). *Ko'l-ak* – “ko'lcha”, “chuqurlik”. Ko'l – quruqlikning suvga to'lgan, atrofi berk suv havzasi. **KO'LCHAK** – Boysun tumanidagi ko'l (Machay). Turkiy tillardagi *ko'l*, eroniy tillardagi *choh* leksemalaridan yasalgan. Ko'lchak – “ko'lcha, ko'lchak”. **LUQLUQ** – Boysun tumanidagi soy. Panjob yaqinida oqib o'tadi. Luq/lux – qo'g'a o'simligi ; -luq –lik qo'shimchasining variant, lux o'simligi o'sgan, luqli (soy). **QO'G'ALISOY** – Boysun tumanidagi soy nomi. *Qo'g'a* – poyasi qalin, ikki yoki uch metr balandlikda o'sadigan ko'p yillik o'simlik nomi. *Qo'g'alisoy* – qo'g'a o'simligi o'sadigan joydan oqib o'tadigan soy demakdir. **G'AROVLI SOY** – Chilonzor qishlog'idagi soy. *G'arov+li+soy*, G'arov o'simligi o'sadigan soy. G'arov – poyasi qattiq, bo'g'im-bo'g'im, ichi kovak, qamishga o'xshash o'simlik. **G'ISHAKLI SOY** - Chilonzor qishlog'idagi soy. *G'isha+k+li+soy*, G'isha – Qamishga o'xshab o'sadigan, ammo poyasining ichi g'ovak bo'lmaydigan o'simlik, savag'ich. G'isha-sobav o'simligi o'sadigan soy. **ZARANGBULOQ** – Boysun tumanidagi buloq. Zarang+buloq, Zarang daraxti ko'p bo'lgan joydagi buloq.(Pulxokim) **ZARANGSOY** – Boysun tumanidagi soy. **TESHIKSOY** – Boysun tumani Xo'jabulg'on qishlog'idagi soy. Teshik – teshilgan joy, kovak, o'yi. *Teshik+soy*, Teshikli soy. Tashqi belgi asosida nom olgan soy.

O'zlashma qatlam. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibiga tarixiy sabablarga ko'ra boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib kelgan. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar o'zlashma so'zlar deyiladi. O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin. Boysun tuman gidronimlari hosil bo'lishida ham o'zlashma qatlam so'zlari muhim ahamiyatga ega. Chunki hududda tojik millatiga mansub aholi ko'pchilikni tashkil etadi. **GUMATAK** – Boysun tumanidagi soy nomi. Gidronim *gum+tak* so'zlaridan tarkib topgan. *Gum* - forscha daryo yoki ko'lning chuqur joyi, chuqur¹⁴¹; *tak* – shimoliy eroniy tillarga oid. Pomir tillarida *tak* – “oqmoq, daryo,

¹⁴¹ O'zbek tilining izohli lug'ati: 1-jild – B. 522.

oqim”, so’g’dcha *tag’a* - “daryo”¹⁴². *Gumatak* –“ chuqurlikdan oqib o’tadigan daryo,soy” degani. Ushbu gidronim asosida qishloq nomi ham vujudga kelgan. **RO’DAQO’L** – Boysun tumanidagi soy. So’g’dcha *ro’d+ak* va turkiy qo’l (suv o’zani) so’zlaridan tuzilgan. *Forscha ro’d* – tog’ jilg’asi, *-ak* sifat yasovchi affiks. *Ro’dakqo’l* – “tog’ jilg’asining o’zani, suv oqar yo’l”. **SARIBAND** – Boysun tumanidagi soy nomi (Pulxokim). *Forscha* izofa *sar+i+band* – “band boshi”, “band usti”. Pulxokim qishlog’iga keladigan ariqning boshlanish joyi. **SOYI DAROZ** – Boysun tumani Sayrob qishlog’idagi soy. Uzun soy ma’nosini anglatadi. **SOYI KALON** – Boysun tumani soy. *Soy +i+kalon*, Uzun soy, katta soy. **SELGA** – Boysun tumanidagi soy. Arabcha *sayl* – sel so’zi fors va o’zbek tillariga o’tgach, unga *forscha* o’rin-joy ma’nosini ifodalovchi – *goh* affiksi qo’shilgan: *sel-goh*, *selga* – sel suvi oqib keladigan va to’planadigan joy, selxona, halqob joy. **XUKPARIDA** – Boysun tumanidagi soy. *Forscha* *xukparid* – “cho’chqa qulab tushgan”, “to’ng’iz qulab tushib o’lgan joy” demakdir. **CHASHMAZOR** – Boysun tumanidagi soy. *Forscha* *Chashmasor (chashma+sor)* – yerosti suvlari qaynab, sizib chiqadigan manbasi, bulog’i ko’p joy. *-Sor* affiksi ko’plik ma’nosini bildiradi, *-sor* affiksli so’zlar o’zbek tilida *-zor* tarzida o’zlashgan deyiladi. **CHINGSOY** – Boysun tumanidagi soy. *Ching/chink* – “jarlik” (qozoq va qoraqalpoqlarda shing, rus geografik adabiyotlarida - chink).

II bobga doir xulosalar

1. Toponimlarning boshqa turlari kabi gidronimlar ham o’z nomlanish ko’rsatkichlariga ega.
2. Suv obyektlarining nomlanish tamoyillari va motivlari turli xil dalillarga asoslanadi. Gidronimlarning nomlanishida shu obyektning joylashish o’mi, kishilarning qanday etnik guruhga mansubligi, obyekt atrofidagi o’simliklar va hayvonot dunyosi, gidronim bunyod etilishida ishtirok etgan shaxs nomlari kabilar nomlanish motivi vazifasini bajaradi.

¹⁴² Nafasov T. O’sha asar, 1988. – B. 163.

3. Gidronimlar yuzaga kelishida obyektning hajmi, shakli, miqdor belgisi, rang-tus belgilari yetakchi hisoblanadi.

4. Gidronimlar o'ziga xos spetsifik xarakterli strukturaga ega. Ularning yasashida affiksatsiya, kompozitsiya usullari yetakchilik qiladi. Boysun tuman gidronimiyasida kompozitsiya usuli asosida yasalgan suv obyektlari nomlari doirasida *sifat+ot*, *ot+ot* tarkibli sifatlovchi birikmalardan yasalgan qo'shma tarkibli gidronimlar ko'p uchraydi.

5. O'zbek xalqi tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bu o'zaro aloqada bo'lgan xalqning tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbek tili leksikasining boshqa tillardan kirgan qismi o'zlashgan qatlam hisoblanadi. O'zbek tili leksik qatlamiga yangi so'zlar, iboralar va so'z yasovchi qo'shichalar ham kirib keldi. Keyinchalik ularning ko'pchiligi o'z qatlam so'zlari singari tilimizga moslashib, ajralmas holatda o'rmasdi. Boysun tuman gidronimlari tarkibida o'z va o'zlashma qatlama oid bo'lganlari mavjud. Hudud aholisining etnik tarkibi sabab o'zlashma qatlama oid so'zlar salmog'i yuqori.

III BOB. BOYSUN TUMANI GIDRONIMLARI HOSIL BO‘LISHIDA LINGVOMADANIY ASOS

3.1. Xalq madaniy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan gidronimlar

Xalq tarixi, uning muqaddas nomi inson uchun doimo qadrlil ko‘rinadi. Shuningdek, xalqimiz o‘zidan oldingi ajdodlar yaratgan moddiy-ma‘naviy boyliklar bilan mag‘rurlanadilar. Kishilar qadimdan har bir narsani va voqea-hodisani maxsus nom yoki atama bilan atagani natijasida qo‘yilgan nomlar ajdodlardan avlodlarga yetib kelgan. Ana shu joy nomlari har bir xalqning qadimiy tarixini, uning boy kechmishini, o‘tmish ma‘naviyatini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joy nomlarini, jumladan, gidronimlarni bilish, o‘rganish millatning burchi bo‘lishi bilan birga, uning ma‘no-mazmunini tushunish, nima uchun shu nomning qo‘yilish sababini aniqlash ham muhim masaladir. Gidronimlarning mamlakat hududida yashayotgan boshqa millatlarning, elatlarning qadriyatlarini hurmat qilish, ularni tushunib, ma‘no-mazmunini anglab yetish alohida qimmatga ega. Xalqlar, tillar, lahjalar hamisha bir-biriga yaqin va mushtarak bo‘lib, elatlar bir hududda yashab bir-birlari bilan doimiy madaniy-iqtisodiy aloqada bo‘ladi.

Bilamizki, til insonga berilgan eng bebaho ne‘mat, tengsiz mo‘jizadir. Insonga xos eng noyob hodisa – fikrlash ham til orqali amalga oshadi. Til millatning ma‘naviyati, madaniyati, falsafiy-diniy e‘tiqodlari, axloqiy-estetik qarashlari, maishiy hayoti, turmushga oid tushuncha va tasavvurlarni o‘zida ifodalaydigan vositadir. O‘zbek tili xalqning ana shu ma‘naviy qarashlarini hisobga olgan holda joy nomlarining nomlanishida hissa qo‘shmoqda. Ana shu masalani ilmiy tadqiq etuvchi toponimist olimlar joy nomlarini o‘rganib, uning lisoniy, tarixiy tahliliga ahamiyat qaratib kelmoqdalar. Ayniqsa, Boysun, Denov, Sho‘rchi, Sherobod tumanlarida bu sohada ma‘lum ijobiy ishlar qilindi. Boysun tumanining o‘zida yetti mingdan ortiq mikrotoponimlar to‘planib ilmiy tahlil etildi¹⁴³.

¹⁴³ Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – Toshkent, 2008. – B. 8-9.

Xalqimiz har bir joy nomini qo'yishda o'sha joyning tabiati, aholining turmush tarzi, xo'jaligi, uning ko'hna tarixiga xos xususiyatlari barchaning diqqat markazida bo'ladi. Jumladan gidronimlarning nomlanishida ham ana shu xususiyatlarga e'tibor qaratilgan. Jumladan, *Yakkatut, Piyozli, Chimoy, Olchabuloq*, hajm va miqdor bilan bog'liq *Qo'shbuloq, Qo'chqorbuloq, Norbuloq, Morbuloq* kabi. Boysun tuman gidronimlarining nomlanishida xalqning urf-odatları, qadriyatları aks etgan. Shuningdek, *Oyinniquduq, Qipchoqsoy, O'rsoy* kabi urug'lar nomi aks etgan gidronimlar ham mavjud. Bu tadqiqot ishimizda Boysun tuman gidronimlari haqida fikr yuritar ekanmiz, Boysun so'zining o'zi ham xalqimizning o'tmishi, madaniyati, turmush tarzidan xabar beradi. Boysun so'zi Istahriy va muallifi noma'lum "Hudud al-Olam" asarida Basand shaklida yozilgan. Bosand va Basand "qator karvonsaroylari bo'lib, sarbonlari ko'pdir. Harakatchan, xalqi ko'p, savdo qiladigan bozori keng Bosand". V. A. Livshisning ta'kidlashicha, "Bosand" so'zi ko'p ishlatilib, sand so'zi ma'nosida so'g'dcha kenglik, ulkan, katta deb ifodalangan. N.A. Mayevning fikricha Boysunning haqiqiy nomi Boyshin bo'lib, "Boylar, zodagonlar manzili". Filolog olim Y.Xo'jamberdiyevning ilmiy tadqiqotida turkcha so'zi "cho'qqi, qoya, baland tog' tizmasi" ma'nosida izohlanib Boysun/Boysin – "Baland tog' tizmasi, baland cho'qqi, katta qoya" degan ma'nolar qayd qilingan. Boysun so'zi tog' nomiga qiyosiy izohlanib, "buyuk tog', tog'ning quyi qismidagi qishloq" degan ma'nolarni anglatadi¹⁴⁴.

Boysun tumani o'zining qadimiyligi, madaniyati bilan jahon hamjamiyati e'tiborida turgan hudud hisoblanadi. Bu hudud uzoq o'tmishga borib taqaladigan arxeologik yodgorliklari, nomoddiy madaniy meosi, boy tarixi bilan mashhur. Hududning madaniy hayoti haqida gapirganda, albatta, paleolit davriga oid insoniyat beshigi – Teshiktosh Kamari, Amir Temur g'ori, Machay g'orlari, oltmish besh yillik dinozavrlar izlari, o'z davrida muhim istehkom, strategic inshoot vazifasini bajargan Uzundara, Qo'rg'onzal, Tumanqo'rg'on singari arxeologik yodgorliklari, ming yillik tarixga ega Sayrob chinorlari, Xo'jamayxona

¹⁴⁴ Tursunov.S. O'sha asar. 36-bet.

ziyoratgohlari, Omonxona shifobaxsh suvi, Hazrat Eshon bobo bulog'i, Xo'jaQo'chqor ota bulog'i va go'zal tabiati, Xo'jag'urg'ur ota g'ori, Tangisar, Qizil kanyonlari haqida aytib o'tish joizdir. Bu madaniy obyektlar qatorida gidronimlarning ham o'rni bor, albatta. Ana shunday gidronimlardan biri bu *Omonxona bulog'i* hisoblanadi. Bu buloq shifobaxshligi sabab ham xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hudud geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga ham o'zgacha ta'sir etadi. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxasislarning fikricha bunday foydali xususiyatlarga ega buloq suvi inson tanasini, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Tananing ichki organlarini yuvishda foydalaniladigan gemodez suyuqligi bilan solishtirilganda, foydali va zararsizligi hisobga olinsa, Omonxona buloq suvi bir necha marta ustun turadi. Shuningdek, bu yerda Omonxona g'ori ham mavjud bo'lib, bu g'orda yozning chillasida 5-6 daraja sovuq, qish kunlarida esa 20-22 daraja iliq harorat kuzatiladi va aholi bunga mo'jizaviy holat sifatida qaraydilar. Bu g'orda aholi yoz bo'yi qish uchun yig'gan sariyog' mahsulotini mol qorniga solingan holatida yozda saqlaydilar va g'or harorati mahsulotning yaxshi saqlanishini ta'minlab beradi. Xalq orasidagi rivoyatga ko'ra biror kishi o'zga kishining sariyog'idan bir siqim ham olib chiqishga urinsa, g'or og'zi qisqarib, odamni chiqarmay qolishi mumkin. Shuningdek, o'g'irlik yoki boshqa jinoyat sodir etgan kishi g'orga kirsa, qaytib chiqayotganda g'or og'zining yopilib qolishi o'sha kishining gunohkorligidan dalolat bergan. Boysun ahli, Omonxona qishlog'i aholisi hozir ham bu rivoyatga amal qilib kelishadi va bu rivoyatning xalq orasida mavjudligi kelajak avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim hisoblanadi. Shuningdek, Boysunlik aholi orasida Omonxona bulog'i haqida bir qancha rivoyatlar yuradi. Aytishlaricha, Sohibqiron Amir Temurning lashkari shu vodiya kelganda holdan toyib qoladi va askarlar birin-ketin kasallikka chalina boshlaydi. Shunda askarlar bu buloq suvidan ichib, buloq atrofidagi g'or salqinida dam olib o'z holiga qaytgan ekanlar. Rivoyatdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bu manzil qadimdan el-u xalqning sihat-salomatligini saqlashda xizmat qilib

kelgan. Mahalliy aholi yoz kunlarida yosh bolalarni muzdek buloq suvida cho'miltirishni odat qilgan, sababi bu buloq suvidan bahra olgan kishiga yozning juda issiq kunlari ham ta'sir o'tkazmaydi va tibbiyotda ham o'z isbotini topgan.

Har xil tarixiy manbalardan har xil davrlarda Boysun tog'laridan Iskandar Zulqarnayn, Kirdan qasos olishga otlangan To'maris, xalq botiri Alpomish, Sohibqiron Amir Temurning ot o'ynatib o'tganligini bilamiz. Rivoyatlar Omonxona tarixini yetti asr ilgaridan boshlaydilar. Shifobaxsh Omonxona suvining paydo bo'lishi ham rivoyatlarga borib taqaladi va Sulton Vali balogardon hassasining toshga sanchilishidan kelib chiqqan deb qaraydilar. Yana bir rivoyatda esa o'tloqdagi sigirini izlab iztirob chekkan Sulton Valining yetti yashar o'g'li Qamari Azizning ixlosiga borib taqaydi. Yana bir rivoyatda esa Amir Temurning tush ko'rgani va Omonxona g'oridagi Sulton Valini ziyorat qilgani haqida aytiladi. Rivoyatlardan ko'rinadiki, ushbu gidronim xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq.

Xalq madaniy hayoti bilan bogliq bo'lgan gidronimlardan biri bu Boysun tumanidagi *Xo'jamayxona* shifobaxsh bulog'i hisoblanadi. Buloqdan sekundiga uch kub auv otilib chiqadi. Suvda uzunligi bir metr keladigan baliqlar suzib yuradi, lekin mahalliy aholi tomonidan baliqlar muqaddas hisoblanib ovlanmaydi. Rivoyat qilishlaricha, bu yerda tabiiy ravishda yuzaga kelgan kamarda har xil tarixiy sabablarga ko'ra bir guruh xo'ja urug'iga mansub kishilar g'oyib bo'lishgan. Keyinchalik ularning nomiga qabr ko'tarilgan. Qabr yonidagi kamardan qishin-yozin bir xil me'yorda shifobaxsh shirin suv otilib chiqib turadi. Buloqning baliqlari bor va yuqorida aytganimizdek, ziyoratchilar yoki o'zga kishilar baliqlarga zarar yetkazmaydilar. Shifo izlab uzoq va yaqin joydan kelgan ziyoratchilar kamar ichiga oldi tomoni bilan kirib, ziyorat qilib bo'lgach, orqasi bilan chiqishadilar. O'zbek xalqining buyuk sarkardasi Amir Temur ham bu joyni ziyorat qilganligi haqida aytiladi.

Hazrat Eshon Bobo bulog'i Boysun tumani Pulxokim qishlog'idagi buloq hisoblanadi. Bu buloq suvi ham shifobaxsh hisoblanib, suv tarkibidagi yod, tuz moddasi qalqonsimon bez xastaligida davo hisoblanadi. Ushbu gidronim hosil bo'lishida rivoyatlarga asoslanadi. O'tmishda xalqning mashhur kishilaridan biri

to'satdan g'oyib bo'ladi. Bu joy mahalliy aholi tomonidan ilohiy hisoblanib, o'sha joyda qabr ko'taradilar va ziyoratgoh joyga aylantiriladi. Qabr yaqinidan esa katta miqdorda ikkita joyda buloq otilib chiqadi. Mahalliy aholi yozda issiq urgan bolalarni shu buloq suvida cho'miltiradilar. Shuningdek, terisiga so'gal chiqqan kishilar kelib ziyorat qilib, suvida poklansa so'galga davo topadilar. Qishloq aholisi necha ming yillardan buyon bu joyni muqaddas bilib, suvidan bahramand bo'lib kelishmoqda. Ushbu gidronimning xalq hayotidagi muhim o'rni shundaki, butun qishloq aholisining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishida, butun kundalik turmush tarzida suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda faqatgina ushbu buloq suvidan foydalanadilar.

Xo'jaQo'chqorota bulog'i va anomalik zonasi Boysun tumani hududining eng noyob madaniy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Buloq suvi yozda ham muzdek harorati bilan hammaga birdek manzur. Buloq boshida, tog'ning ustida shu hududning mashhur kishilaridan birining qabri joylashgan bo'lib, qabr oldidan buloq paydo bo'lgan. O'sha buloq suvi tog'ning ustidan pastlikka qarab oqib tushadi va bu suvdan borgan ziyoratchilar bahramand bo'ladilar. Rivoyatlarga ko'ra bu buloq suvi, u yerda yotgan kishilarni ziyorat qilganlar o'z niyatlariga yetadilar. Asosan o'g'il farzand so'ragan ehtiyojmandlar ziyoratgohga borib, uch kun ostonasini supurib, suvlaridan bahramand bo'lishsa, o'g'il farzandli bo'lishar ekanlar. Mahalliy aholi, boshqa chekka hududlardan boradigan kishilar ham bunga hozirgi paytda ham qat'iy amal qiladilar. Ushbu hudud Xalqning madaniy hayotida ham muhim ahamiyatga ega. Har yili ziyorat, eko, agroturizm shaydolari bilan gavjum bo'ladigan joy. Xo'jaQo'chqor ota ziyoratgohi hududida 150 gektarga yaqin joyda turizm zonasi barpo etilgan. Ushbu mo'jizaviy buloq suvi bilan mahalliy aholi tog' etagida bodom, yong'oq, olma, gilos, uzum, o'rik, nok kabi mevali daraxt ko'chatlari ekilib parvarish qilmoqda va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar yetkazib bermoqda. Suvning tabiiyligi, chuchuk va xushta'mligi bois bu mevalar boshqa hududlarda takrorlanmaydigan ta'mga ega.

Yuqoridagi dalillardan oydinlashadiki, suv inshootlarining inson hayotidagi o'rni beqiyosdir. Suv insoniyat ehtiyojini qondiradigan muhim manba hisoblanadi.

Qadim zamonlarda insonlar suvni muqaddas bilishgan. Suvni zarga, suvchini zargarga o'xshatishgani ham bejiz emas. Kundalik ehtiyojlarini yaxshilash uchun suv inshootlari vositasida chorvachilik, dehqonchilik faoliyatlari bilan shug'ullanishgan. Vatanimiz hududida III ming yillar ilgari yaratilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda ham suvning muqaddasligi, borliqning mavjudligi suv bilan ekani aytilgan. Kim suvga yaxshi munosabatda bo'lmasa, uvol qilsa jazolangan. O'sha paytlarda ham suvga bo'lgan hurmat madaniyat belgisi hisoblangan. Demak, juda qadim zamonlardan suv xalq hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va xalqimiz unga hurmat bilan munosabatda bo'lib kelgan.

3.2. Folklor janrlarida gidronimlarning aks etishi

Qadim zamonlardan xalqimizda suv bilan bog'liq turli qarashlar shakllangan. Xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalarida bu qarashlar aks etgan. Suv bilan bog'liq turli marosimlar shakllangan. Masalan, xalqimizda suv eriydi, yo'q qiladi, tozalaydi, yuvadi, tiklaydi, suv – hayot, poklik, yangilanish shu bilan birgalikda halokat va o'lim ramzi, shuningdek, u aql bovar qilmaydigan kuch qudrat va itoatsizlik yimsoli sifatida qarashlar ming yillar oldindan shakllangan. Shuning uchun ham “O't baloyingdan, suv baloyingdan asra”, degan maqollar xalq orasida doimiy ishlatiladi. O'zbek folklorida suv bilan bog'liq mif va afsonalar talaygina. “Avesto” mifologiyasining o'zbek folklorida saqlanib qolgan namunalarida suv obyektlari bilan bog'liq turli miflar keltirilgan. Ajdodlarimizning mifologik qarashlari va e'tiqodiy ishonchlari tizimida suv bilan bog'liq pesonajlardan biri Hubbi bo'lib, u haqdagi afsonalar yurtimizning har bir hududida mavjud. Afsonalarda keltirilishicha, suv manbalari yaqinida kechqurun yurish hosiyatsizlik keltiradi. Nima bo'lganda ham bu kabi qarashlar xalq tasavvurlarining mahsuli hisoblanadi. Inson dunyoga kelganda uning pok bo'lishi uchun chaqaloqni suv bilan yuvib, keyin quloqlariga azon aytishadi, inson dunyoni tark etganda ham so'nggi manzilga suv bilan poklab kuzatishadilar, yangi hayot

qurayotgan kelin-kuyovlaraga ham hayotlari shirin bo'lsin deb, shirin suv ichiradilar.

Qadimdan O'rta Osiyo aholisi bahor fasli kirishi bilan kunlarning tezda isib tog'dagi qorlarning erishini, soylarda suvlarning ko'payishini intizorlik bilan kutishgan. Ba'zi yillarda yog'in kam bo'lib, soylarda suvlar kamayib qolganda qishloq ayollarining kekxa yoshdagisi boshchiligida ibtidoiy tasavvurlar bilan bog'liq "Suv xotin – suvsiz xotin" marosimi o'tkazilgan. Ko'chada yorg'ichoq ko'tarib marosim qo'shig'ini aytishgan, shuningdek, suvni ko'paytirish uchun, toshbaqalarni to'ntarib qo'yish, oynani osmonga qaratib o'yish kabi holatlarni ham uchratish mumkin. Bu kabi marosim va urf-odatlar suvni saqlab qolish, suv inshootlarida suvning qurib qolmasligi uchun o'tkazilgan.

O'zbek folklorida dostonlar alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot ishimizni Boysun tumani gidronimlari misolida olib borar ekanmiz, hudud bilan bog'liq bo'lgan "Alpomish" dostoni va undagi gidronimlarning aks etishi, hayotiyiligini yoritish muhim vazifamizdir. Alpomish dostonida bir qancha gidronimlar aks ettirilgan bo'lib, bu holat Boysun ahlining azaldan suvga bo'lgan munosabatini ifoda etadi. Dostonda uchraydigan gidronimlar doston toponimiyasining salmoqli qismini tashkil etadi. Bu atamalar bevosita suv va suv obyektlari bilan bog'liq. Dostondagi gidronimlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: a) daryo nomlari; b) ko'l nomlari¹⁴⁵. Asarda uchrashi mumkin bo'lgan ko'l nomlari quyidagilar: *Bobir ko'li, Ko'kqamish ko'li, Arpali ko'li, Achchiq ko'l, Oyna ko'li* (Oyko'l).

Gidronimlar turlicha ma'nolarni ifodalab keladi. Ba'zi gidronimlarning etimologiyasi hammaga tushunarli bo'lib, ortiqcha izoh talab qilmaydi. Masalan, Achchiq ko'l gidronimi suvning maza-ta'miga nisbat berib shunday nomlangan va bu atama tarixan real bo'lgan, hozirgi kungacha ham saqlanib kelayotgan suv nomi hisoblanadi. *Ko'k+qamish* ko'l atrofida qamish o'sgan, qamishlar hamisha ko'm-ko'k tusda bo'lgan. Dostonning bosh qahramoni Barchin *Ko'kqamish ko'li* atrofida chorvachilik ilmlarini o'rganadi. "Qizimga *Ko'kqamish ko'lida* qo'y sog'dirib, chorvachilik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin". Dostonda

¹⁴⁵ Noraulova Sh. "Alpomish" dostoninina onomasiologik asoslari. – Surxon-Nashr. 2016.

shunday satrlar uchraydi: "Shul o'n ming uyli Boysun-Qo'ng' irot elining hammasi boy edi. Bir yog'i Qalmoqqa yetdi, keti hali ham *Ko'kqamish ko'lidan* chiqib, ado bo'lgan emas. Ana shunda oldidagi boylar Oynako'lga yetib, ko'lni yoqalab qo'nib yotar". Dostonda tasvirlangan *Ko'kqamish ko'li* Kofrun bilan Bandixon o'rtasidagi darada bo'lib, Ketmonchopti tog'idan boshlanadigan Xangaronsoy suvidan to'lib turgan.

Dostonda *Oynako'l* degan ko'lning nomi keltiriladi. Ana shu oyna nomi bilan ataluvchi ko'l Ketmonchopti tog'ining sharqiy-shimolidagi Sanjar tog'ida hozir ham bor. Xalq izohiga ko'ra Oynako'l – tiniq, zangori rangdagi suvli buloq ko'lini ma'nosini anglatadi. Bu gidronim oyna so'zining ma'nosiga nisbat etilgan. Dostonda, shul vaqtda mollar bilan birga kelayotgan qora uylar Chilbir cho'lini, *Oyna yoqalab* qo'na berdi.(32-b.). Bular shu Chilbir cho'lida, Oyna ko'lida qo'nib, suvlab, mollari o'tlab qo'nib yota bersin, endigi so'zni Qalmoq yurtidan eshiting.(33-b.).

Bobir ko'li. Yarqillagan Bobir ko'lini ko'rib, Bobir ko'lda, yaylov joylarda yurib.(322-b.).

Arpali ko'li. Alpomish ketganda, Arpalining ko'lida qolib edi, shundan beri ajriq bosib yotgandir (362-b.). *Shunday qilib kiyintirib, keskir qilichlarin beliga boylab, Arpali ko'lidan otlana berdi.*

Dostondagi gidronimlar *antropogidronim* (Bobir ko'li), *fitogidronim* (Arpali ko'li, Ko'kqamish ko'li) ko'rinishida uchraydi.

Yoz bo'lsa, yaylovim Amu yoqasi,

Men bo'laman Boysin-Qo'ng' irot elning to'rasi (90-b.)

Amudaryoning xalq hayotidagi o'rni beqiyosdir. Azaldan insoniyat rivoji, xalqning yaxshi turmush tarzi ushbu daryo bilan chambarchas bog'liqdir. Dostonda ham yoz paytida mahalliy aholi daryo yoqasiga vaqtincha o'mashib, chorvachilik, dehqonchilik kabi mashg'ulotlar bilan mashg'ul bo'lganligi haqida aytib o'tilgan. Bu esa gidronimlarning insoniyat hayotida naqadar ahamiyatga ega ekanligiga yaqqol misoldir.

O'zbek folklorida maqollar bilan bog'liq gidronimlar ham uchraydi.

So'zning onasi – quloq, suvning onasi – *buloq*.
Har toycha o'zining suv ichgan *bulog'*ini maqtar.
Ko'lmak suvga – sassiqlik alaf.
Oy suluvi – nur, *Soy* suluvi – suv.
Suv ichadigan *quduq'*ingga tupurma.
Suv ichganda, *ariq* qaziganni unutma.
Suvni ich, *chashmani* bulg'ama.
Koriz suvi – jon suvi.
Bir odam *ariq* qaziydi, ming kishi suv ichadi.
Otang mirob bo'lsa ham *ariqni* tozalab suv ich.
Boy boyga boqar, suv *soyga* oqar.
Choy to'kilib *soy* bo'lmas, yulduz yig'ilib oy bo'lmas.
Yurgan – *daryo*, o'tirgan – bo'ya.
Tomchi toshib bo'lguncha, *daryo* oqib bo'lar.
Suv ichadigan *quduq'*ingga tupurma.
Ahmoqda or bo'lmas, *dengizda* guzar.
Toma-toma *ko'l* bo'lur, Hech tommasa cho'l bo'lur.

Cho'lda yurgan qo'ng'ir g'oz, *ko'l* qadrini ne bilur. Bu kabi maqollarda xalqning suvga bo'lgan munosabati, suvni isrof qilmaslik haqidagi qarashlari aks etgan. Masalan, otang mirob bo'lsa ham *ariqni* tozalab ich, degan maqolda ham garchi eng yaqin insoning suv egasi, suvni boshqaradigan kishi bo'lsa ham suvga bo'lgan hurmatingni yo'qotma deydi dono xalqimiz. Yoki, suv ichganda quduq qaziganni unutma, ya'ni sening shu suvdan bahramand bo'lishingda sababchi bo'lgan insonni doim hurmat qilish kerakligi, xalq orasida suv chiqargan kishining obro'si yuqori ekani haqida aytiladi. Suv ichadigan quduq'ingga tupurma deyilganda xalqning suvga bo'lgan azaliy hurmat-e'tibori aks etadi. Azaldan odamlar suvni muqaddas bilishgan va suvga behurmat bo'lgan kishiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishmagan.

Topishmoqlar.

Ketaveradi, ketaveradi orqasiga qaramaydi (*Ariq*).

Saman otim soy soy yoqalab boradi (*Soy, sel*).
 Uzun-uzun iz kelar,
 Uzun bo'yli qiz kelar.
 Qoshginasi qaltirab,
 Ko'zginasi yaltirab (*Ariq*).
 Otasi egri-bugri,
 Onasi silliq juvon,
 O'g'li qo'shiqchi,
 Qizi o'yinchi (*Ariq, suv, baqa, baliq*).
 Qozonda emas qaynaydi, qishin-yozin tinmaydi. (*Buloq*)
 Jonon kosa ko'zi o'ynar,
 Sochlari jilva-jilva. (*Buloq*)
 Otasi egri, bolasi chopqir yo'rg'a. (*Ariq, daryo*)
 Bor-bor otim, bor otim,
 Borganingcha bor otim.
 Ajriq ko'rsang tishlama,
 Ayg'ir ko'rsang tishlama. (*Ariq, suv*)
 Oppoq qushim qaqillar,
 Qanotlari shaqillar. (*Sharshara*)
 Qamish boshi qaltiroq,
 Jilg'a tubi jaltiroq. (*Jilg'adagi suv*)
 Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,
 Shoshib, chopib chiqar u.
 Ulkan zamin bag'ridan,
 Salom olib chiqar u. (*Buloq*)

Ushbu topishmoqlarda gidronimlar aks etgan. Topishmoqlarning aksarida suv otga o'xshatiladi. Suvning tekis oqishi, manzildagi kishilarning intiqlik bilan kutayotganligi aks etgan. Yuqoridagi kabi folklor janrlarida gidronimlarning xalq hayotida qanday ahamiyatga ega ekani yoritilgan.

3.3. Boysun tuman gidronimlarining lingvomadaniy kodlarda aks etishi

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til va adabiyotga daxldor bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan birgalikda madaniyat bilan ham aloqadordir. Ana shu aloqadorlik lingvokulturologiya fanining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. "Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator tushunchalar olib kirdi. Ular orasida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega"¹⁴⁶. Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko'ra madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi¹⁴⁷. Madaniy kod o'zida milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me'yorlarni o'zida shartli ravishda aks ettiruvchi ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi belgilar tizimidir.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, fazoviy kod, tibbiy kod, me'moriy kod, rang-tus kodi, antroponimik kod kabilar qayd etilgan. Ushbu kod turlarining ichida **biomorf kod** muhim ahamiyatga ega. **Biomorf kod** – hayvonlar yoki o'simliklar bilan bog'liq kod¹⁴⁸ bo'lib, uni hayvonlar, hasharotlar, qushlar va o'simliklar nomi aks ettiradi. Inson o'zini tabiatning bir qismi sifatida tasavvur etadi. Tabiatda uning eng yaqin qo'shnilari esa hayvonot hamda o'simliklar olami vakillaridir. D.Tosheva o'zining tadqiqotida o'zbek tilidagi frazemalarda eng faol qo'llanuvchi zoonimlar sirasiga it, ilon, ot, eshak, qush, quyon, tuya kabi jonivorlarni kiritish mumkinligini bayon etadi¹⁴⁹. Boysun tumani gidronimlarini

¹⁴⁶ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – N 3 – B.15

¹⁴⁷ Kononenko B.I. Bolshoy tolkoviy slovar po kulturologii. – M.:Veche,2003. – C. 512.

¹⁴⁸ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 2015. – B. 22.

¹⁴⁹ Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan.bo'yicha fals.d-ri diss. – Toshkent, 2017. – 152 b.

ham ushbu kod orqali aks ettirish mumkin. Hudud gidronimlari tarkibida zoogidronimlar mavjud bo'lib, ularda turli mazmun aks etgan bo'ladi. Masalan, *Itbuloq* (Boysun tumani) gidronimida biomorf kod – it orqali salbiy munosabat ifodalanadi. Ya'ni, hech kim suv ichmaydigan, go'yoki xalq orasida harom deb qaralgani uchun shunday nomlangan. Salbiy munosabatning yaqqol aks etishi uchun it leksemasi ega bo'lgan konnotatsiya unga bog'langan aksident nom yordamida kuchaytiriladi. Xalq orasida *it tekkan oshdek, it yalog'idek, yaloqi itdek* kabi o'xshatishlar ham bejizga ishlatilmaydi. *Qo'chqorbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.) gidronimi baquvvatlik, kuchlilik etaloni sifatida xalq orasida mashhur. Ushbu buloqdan suv ichgan insonlar, hayvonot olami Qo'chqordek baquvvat bo'lishi, kasalliklarga kam chalinishi buloq suvining xalq orasida alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Biomorf kod sifatida baholanuvchi o'simliklar dunyosi bilan bog'liq gidronimlar ham mavjud bo'lib, ularda ko'proq inson ehtiyoj va manfaatlari asosiy mezon vazifasini o'taydi. Gidronim nomlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'simliklar dunyosi foydali, shifobaxsh, iste'molga yaroqlilik xususiyatlari bilan ijobiy munosabat uyg'otadi. *Bodomchali, Jiydabuloq, Olmalibuloq, Olchabuloq, Chinorbuloq, Chinorariq, Shotutsoy, Tutliquduq, Zarangbuloq, O'rikli soy* kabi o'simliklar bilan bog'liq Boysun tuman gidronimlarida salbiy munosabat ifodalanadigan bironta xususiyat yo'q. Ushbu gidronimlar ichida *chinor* etaloni bilan bog'liq bo'lganlariga o'zbek xalqida munosabat o'ziga xosdir. Uning uzoq umr ko'ruvchi, yirik, sersoya daraxt ekanligi, ko'pincha suyanchiq assotsatsiyasini yuzaga keltiradi. *Chinor* leksemasining ma'nosi "suyanchiq, qo'llab-quvvatlovchi shaxs" (O'TIL, IV, 489)dir. Bu o'zbek xalq maqollarida ham aks etgan: *Chiroying borida chinoringni top; Bolalining beli - chinor, Bolasizning beli sinar* va h.k. *Chinorbuloq, Chinorariq* gidronimlari chinor daraxti yonidagi suv obyektini ifodalaydi. Hududda ushbu gidronimlarga nisbatan insonlar o'zgacha munosabatda bo'ladi, sababi ular insonlar ehtiyoji uchun xizmat qiladi. *Chinorbuloq* suvidan foydalanish inson umri chinordek uzun bo'lishi, baquvvatlik kabi xislatlarni tarkib toptiradi degan qarashlarni shakllantirgan.

Lingvomadaniy kodlardan biri bu **antropomorf kod** hisoblanib, *ota*, *bobo* etalonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu etalonning milliy-madaniy konnotatsiyasi o'z ichiga *mehribonlik*, *g'amxo'rlik*, *kuchlilik*, *jur'atlilik*, *ishonch*, *hurmat* kabi konnotativ ma'nolarni oladi. Boysun tumani hududida ham *ota*, *bobo* komponentli gidronimlar mavjud: Hazrat Eshon *bobo* bulog'i, Xo'ja Qo'chqor *ota* bulog'i, Kengota suv ombori, Oqota bulog'i (Boysun t.) kabi. Ushbu gidronimlar shifobaxsh bo'lganligi, kishilar undan najot topganligi bois ham hurmat ma'nosida *ota* etaloni qo'shib aytiladi. Shuningdek, farzandsiz kishilar buloq suvidan foydalanib farzandli bo'lganligi bois *mehribonlik*, *mo'jizakorlik* xususiyatini aks ettiruvchi *bobo* etaloni bilan qo'llanadi.

Mifologik kod o'zida g'ayritabiiy kuch-qudrat, go'zallik yoki xunuklik, gullab-yashnagan joy yoki qo'rqinchli, qop-qorong'u joy kabilarni aks ettiradi. Mifologiya, avvalo, ibtidoiy xalqlarning tabiat, olam tuzilishi va inson haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi qissa, dostonlar majmui sifatida tushiniladi¹⁵⁰. Mifologik obrazlarga *dev*, *ajdarho*, *alp* kabilar kiradi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da *dev* so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Dev – zardushtiylikda yovuzlikning asosiy timsoli; turkiy va fors-tojik xalqlari mifologiyasida yovuzlik timsoli. U dahshatli, zulm va zo'rlik, qonxo'rlik yoki yovuz kuchlarning irodasiga bo'ysunuvchi bahaybat maxluq sifatida namoyon bo'ladi, "Gulnor pari", "Yunus pari", "Misqol pari" kabi dostonlarda qasr, bog' va h.k. sohibining amriga itoat etib, parilarni qo'riqlaydi." (O'zME, III, 226). Boysun tuman gidronimlari tarkibida *Devkamar soyi* (Boysun t. Sayrob q.) mavjud bo'lib, soyni yuqori qismi kamarlik bo'lib, kamarda devlar (afsonaviy maxluqlar) yashaydi deb faraz qilinadi va aholi u joyga bormaslikka harakat qilishadi.

Rang-tus kodi. Lingvomadaniy kodlar ichida rang-tus bilan bog'liqlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Lingvomadaniyatda rang konseptini insonni o'rab turgan olamni anglashida muhim kognitiv kategoriyalardan biri sifatida ko'p narsa-hodisalarni o'zida aks ettiradigan "madaniy kod" deya ta'kidlaydi tilshunos A. Belov. Ranglar har bir millatda o'ziga xos ifodaga ega bo'lib, u nolisoniy

¹⁵⁰ Mahmudov N. Xudavberqanova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviat: 2013.

omillar, xususan, millatning dunyoni bilishi bilan bog'liq holda tilda namoyon bo'ladi va rang orqali har bir millat dunyodagi ma'lum hodisalarni tasavvur qiladi. O'zbek madaniyatida *oq* rang pokizalik, musaffolik, ezgulik timsoli sifatida ifodalanadi. Boysun tuman gidronimlari tarkibida *oq rang* bilan bog'liq gidronimlar ham mavjud bo'lib, ular o'ziga xos mazmun kasb etadi. Masalan, *Oqsoy* (Boysun t. Sho'rob q.), *Oqota bulog'i* (Boysun t.), *Oqbuloq* (Boysun t.) kabi. Bu rang bilan ifodalanuvchi gidronimlar suvi qurimaydigan, xalqqa doimiy xizmat qiladigan, ularning ehtiyojini doimiy qondirib keladigan suv obyektini ifodalaydi.

Sariq rang baxtiyorlik, xushchaqchaqlik, beg'uborlik, kuch-quvvatga intilish, quyosh porlashi kabi ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, sariq rang qo'rqoqlik, yolg'onchilik, dardmanlik (sarg'aymoq, yuzi somon kabi sariq) rangi ham hisoblanadi. Boysun tumani hududidagi *Sariqiya ko'li* (Boysun t.), *Soriqquduq* (Boysun t. Machay q.) gidronimlari o't-o'lan o'smaydigan, sahro kabi joydagi suv obyekti ma'nosini beradi. Xalq orasida bu hududga borishni istamaslik, nochor qolish, u yerda qolib ketish falokatli hodisa sifatida qaraladi. Demak, sariq rang etalonli gidronimlarga nisbatan xalq orasida salbiy munosabat shakllangan.

Ko'k rang salomatlik va yangilik, tiniqlik, musaffolik timsolidir. *Ko'kbuloq*, *Ko'kkamarsoy*, *Ko'ksoy* (Boysun t.) kabi gidronimlarda ham yuqoridagi kabi ma'nolar aks etgan. *Ko'kbuloq* gidronimi doimiy ko'm-ko'k rangdagi tabiat hududida joylashgan buloq, aholi manzil tutib yashaydigan va ular uchun ehtiyojini qondiradigan manba, shuningdek manzarasi juda chiroyli joy sifatida aholiga xizmat qiladi. Lingvomadaniyatda rangning o'ni alohida ahamiyatga ega.

III bobga doir xulosalar

1. Gidronimlar xalq madaniy hayotini aks ettiradigan muhim manbalardan hisoblanadi. Gidronimlarning nomlanishida ham bu omil yetakchi hisoblanadi. Boysun tuman gidronimlarining nomlanishida ham xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, ijtimoiy hayot muhim ahamiyat kasb etgan.

2. **Gidronimlar xalq og‘zaki ijodi janrlarida ham uchraydi va bu holat dostonlarda yetakchilik qiladi. “Alpomish” dostonida bir qancha gidronimlar aks ettirilgan bo‘lib, ular doston toponimiyasining salmoqli qismini tashkil etadi. Dostondagi gidronimlarni daryo nomlari, ko‘l nomlari kabi guruhlariga bo‘lish mumkin. Dostondagi gidronimlar antropogidronim, fitogidronim ko‘rinishlarida uchraydi. Suvning xalq hayotida qanday ahamiyatga ega ekani, suvdan qanday foydalanish, unga bo‘lgan hurmat maqol va topishmoq kabi folklor janrlarida ham aks etgan.**

3. **Lingvomadaniy kod o‘zida madaniyat ustuvorliklarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha, ko‘rsatma, qadriyat va me‘yorlar yig‘indisi hisoblanadi. Boysun tuman gidronimlarini biomorf kod, antroponimik kod, mifologik kod, rang-tus kodi kabi lingvomadaniy kodlarda aks ettirish mumkin.**

UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek tili toponimik sistemasida gidronimlar uning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Gidronimlar toponimlarning boshqa turlariga nisbatan o'zining qadimiyligi, tabiiyligi, turg'unligi va yashovchanligi hamda salmoqli miqdorga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

2. Boysun gidronimiyasi O'zbekiston gidronimiyasining tarkibiy qismidir. O'rganilgan hudud gidronimiyasi o'zining shakllanishi, taraqqiyoti, tillar munosabati va o'zaro ta'siri, gidronimik birliklarning leksik tarkibi, grammatik tuzilish va yasalish jihatidan O'zbekiston gidronimiyasi sistemasining barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

3. Gidronimlarning lug'aviy-ma'noviy tahlili xalqlarning qadimgi o'tmishi, hayot tarzi, urf-odatlarini, milliy an'analarini o'zida aks ettiruvchi muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Gidronimlar o'zbek xalqining tili, tarixi, etnik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy munosabatlari, shuningdek, O'zbekistonning tabiiy-geografik xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi muhim lisoniy manba hisoblanadi.

4. O'zbek tili gidronimlarining lisoniy shakllanishida ot so'z turkumi muhim o'rin tutadi. Otlar turli mustaqil so'z turkumlariga xos so'zlarga qo'shib, ularni gidronimik obyektlarning atoqli otini ifodalashga xoslaydi.

5. O'zbek tili gidronimlarining nomlanishida obyektning joylashish o'ri, kishilarning qanday etnik guruhga mansubligi, obyekt atrofidagi o'simliklar va hayvonot dunyosi, gidronim bunyod etilishida rahbarlik qilgan va ishtirok etgan shaxs, shuningdek gidronim hududida yuz bergan hodisa ishtirokchisi bo'lgan shaxs nomlari nomlanish motivi vazifasini bajaradi.

6. O'zbek tilida gidronimlar hosil bo'lishidagi eng ko'p qo'llanadigan usul kompozitsiya usulidir. Boysun tuman gidronimlarining salmoqli qismini qo'shma tarkibli gidronimlar tashkil etadi. Boysun tuman gidronimiyasida kompozitsiya usuli asosida yasalgan suv obyektlari nomlari doirasida *sifat+ot*, *ot+ot* tarkibli sifatlovchi birikmalardan yasalgan qo'shma tarkibli gidronimlar ko'p uchraydi.

7. O'zbek tili gidronimlarining shakllanishi va nomlanishida turkiy, forsiy, arabiy tillar ta'siri seziladi. Boysun tuman gidronimlarining aksariyatida o'zlashma qatlama oid so'zlar aks etgan.

8. Gidronimlar suv obyektlarining nomlari bo'lishi bilan bir qatorda, o'zi joylashgan hudud madaniy hayoti, e'tiqodi, qarashlari, turmush tarzini aks ettiruvchi lisoniy darakchilardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aslonov A. Shofirkon tuman mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili. – Toshkent, 2005. – 22 b.
2. Begmatov E. Shimoliy Xorazm toponimlarining yasalishi // O'zbek tili va adabiyoti. 1969. №5.
3. Donidze G.I. Ob affiksallyy slovo a tyurkskoy toponimii // Onomastika Vostoka – Moskva: Nauka, 1980 – С. 93.
4. Агеева Р.А. Субстратная гидронимия западной части Калининской области (В границах исторической Деревской латмни) / Топонимия Центральной России. – Москва, 1974. – С. 104-111.
5. Бартольд В.В. Сочинения.– М., 1963. – Т. II. – Ч. 1. – С. 122.
6. Бафоев Б. “Кўл” сўзининг маънолари ва тарихи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – № 2.
7. Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил). – Самарқанд, 1994. – Б. 25.
8. Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари: Филол. фан. ном. ... дис. – Самарқанд, 1994. – Б. 76.
9. Бегалиев Н. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2010. – Б. 13-17.
10. Бегалиев Н. Сирдарё гидроними // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва лексикологияси масалалари. – Самарқанд, 1979. – Б. 81-84.
11. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма катлами. – Тошкент, 1999. – Б. 27.
12. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макрокўлами таркиби // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 5. – Б. 35-36.
13. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006. – Б. 16.
14. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – 168 б.
15. Бобур, Захириддин Мухаммад. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б+32 б.
16. Бўриева Х.А. Тошкент шахрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 2007. – Б. 25.
17. Вопросы ономастики / Сборник научных статей. Выпуск I. – Самарқанд: издание СамГУ, 1971. – 150 с.
18. Вопросы ономастики / Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарқанд: издание СамГУ, 1975. – С. 95.
19. Вопросы ономастики / Сборник научных статей. Выпуск III. – Самарқанд: издание СамГУ, 1976. – 170 с.
20. Гарипова Ф.Г. Лексико-семантический анализ гидронимии Заказаньи Татарской АССР / Тезисы докл. 3-науч. конф. молодых уч. – Казань, 1971. – С. 9.

21. Гейбуллаев Г.А. Топонимия Азербайджана. – Баку: ЭЛМ, 1986. – С. 88.
22. Головина Э.Д. Топонимия бассейна р. Моломи (Словообразовательный анализ): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ленинград, 1971. – С. 15.
23. Гриценко К.Ф. Якутские названия озер междуречья Лени и Алдана. – Питание гидронимии Материки 3-республиканской ономастической (гидронимичной) иерархии. – КМСА: Научная мысль. 1971. – С. 16.
24. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Дис. докт. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С. 36.
25. Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма. – Ташкент, 1970. – С. 24.
- 24 с. Дусимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. – Ташкент, 1986. – С. 48.
26. Дусимов З. Хорезм ономастик тизимида авестовий элементлар // Филологик тадқиқотлар. Илмий ишлар тўплами. – Тошкент, 2002. – Б. 39-42.
27. Дусимов З. Хорезм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 136 б.
28. Исаев Д. “Исик-кол” дегам ат кандайча аслин чиккан. – Изв. АН Кирг ССР, 19 (9-16 б) – С. 19-25.
29. Ишаев А. “Кашка” гидроними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1967. – № 3. – Б. 42.
30. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарканд, 2011. – 83 б.
- Бегматов Э., Авлокулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2007. № 3. – Б. 20.
31. Камалов А.А. Некоторые аспекты изучения башкирских народных географических терминов // Вопросы топонимики Башкирии. – Уфа, 1981. – С. 10.
32. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарк, 2006. – С. 192.
33. Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана. – Ташкент, 1969. – С. 25.
34. Караев С.К. Ойконимия Узбекистана (историко-географическое исследование формирования названий населенных пунктов республики): Дисс. докт. геогр. наук в форме науч. доклада. – Ташкент, 1998. – С. 50.
35. Караев С.К. Топонимия Узбекистана (социолингвистический аспект). – Ташкент: Фан, 1991. – 132 с.
36. Конкошбаев Г.К. Казахские народные географические термины // Известия АН КазССР. Серия география. – Алма-ата, 1951. – вып. 3. – № 99.
37. Караев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 16.
- Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2006. – Б. 44.
38. Караев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 223-238.
39. Қосимов Й. Наманган воҳасининг сугорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988. – 121 б.

40. Магазаник Э.Б. Ономапозтика или “говорящие имена” в литературе. – Ташкент: Фан, 1978. – 148 с.
41. Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. – Тошкент: Фан, 1960. – Т. I. – Б. 180.
42. Мингбоев Н Я Мирзачул гидронимлари // Ўзбек тили ва адабиоти, 1987.-№2. – Б. 50-54.
43. Мирзаев И. Бадиий таржимада киши исмлари ва географик номларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. № 5. – Б. 70-73.
44. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. – Халқ сўзи. – 2018. – 6 июнь.
45. Муҳаммаджонов А. “Қува” ёки “Қубо” топоними ва “Қубод” атамасининг этимологик асослари// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. № 3. – Б. 41-46.
46. Муҳаммаджонов А. “Турон” геоними ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №2. – Б. 12-16.
47. Муҳаммаджонов А. Марғилон-Марғинон номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. – Б. 39-42.
48. Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 4. – Б. 37-42.
49. Муҳаммаджонов А. *Фарғона* номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №6. – Б. 7-12.
50. Набиев А. Тошкент ариқлари // Фан ва турмуш, 1970. -№11. – Б. 27.
51. Нафасов Т. *Жили* компонентли гидронимлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. № 5. – Б. 43-45.
52. Нафасов Т. Норин гидроними // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. - №1. – Б.43.
53. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С. 24.
54. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.
55. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2010. – С. 11.
56. Отажонова А. Хоразм этнопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. – Тошкент, 1997. – Б. 26.
57. Отин Е.С. Гидромимия Юга-Восточной Украины: Автореф дис .. док. наук. – Киев, 1974. – 44 с.
58. Охунов Н. Жойномлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 86.
59. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов. – Ташкент, 1978. – С. 23.
60. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 36-37.

61. Пўлатов Ю. Бадиий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 63.
62. Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). – Тошкент, 2006. – Б. 26.
63. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.
64. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил, 8 февраль. №28 (6722).
65. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz
66. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
67. Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий лисоний тадқиқи. – Тошкент, 2010.
68. Холмуминов Х. Микротопонимия Байсунского района и его окрестностей. АКД. – Ташкент, 1993. – 24 с.
69. Холмуминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1988.
70. Хужамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимии Сурхандарьинской области. – Ташкент, 1973. – С. 25.
71. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. – Тошкент, 2006. – Б. 56.
72. Эназаров Т.Ж. Шаҳрисабз ҳудуди жой номларининг тарихий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент, 1993. – Б. 21.